

SADRIDDIN AYNİY



ESKI MAKTAB



YETİM

SADRIDDIN AYNIIY

ESKI MAKTAB



YETIM

QISSALAR

«Kamalak» nashriyoti
Toshkent – 2019

UO'K 821.222.8-31

KBK 84(5Toj)

A 39

Nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir
O'ktamoy XOLDOROVA

Ayniy, Sadriddin.

A 39

Eski maktab, Yetim: qissalar/Sadriddin Ayniy. – T.: «Kamalak» nashriyoti, 2019. – 192 b.

Hurmatli kitobxon!

Qo'lingizdagi kitobda mashhur yozuvchi, o'zbek va tojik tillarda ko'plab she'rlar, qissalar va romanlar yaratgan Sadriddin Ayniyning turli yillarda yozilgan «Eski maktab» va «Yetim» qissalari jamlangan. Qissalardagi obrazlar tilsimida inson hayotidagi turli to'siqlarni yengib o'tishda, irodali bo'lishga, mustaqil hayot ko'nikmalarini bosqichma-bosqich yengib o'tishga tayyorlash yozuvchi tomonidan badiiy ifodalangan.

Keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

UO'K 821.222.8-31

KBK 84(5Toj)

ISBN 978-9943-5684-8-8

© C. Ayniy, 2019
© «Kamalak», 2019

ESKI MAKTAB

I

Agar unutmagan bo'lsam, olti yasharlik vaqtim edi, men meni qishloq machiti oldidagi maktabga eltib berdi, shu vaqt onam: «Seni to'rt yasharu to'rt oy, to'rt hafta va to'rt kunligingda dasturxon qilib maktabga eltib, saboq boshlatib qo'ygan edik. Lekin bu vaqtlarda sen juda yosh eding; shuning uchun ham seni maktabda qiynalarsan deb o'yladim va hammazga o'ynab yurishga qo'ydik. Endi g'ayrat qilib o'qib to'rt yasharliklarida borgan tengdoshlaringga yetib qolsan der edi. Men bo'lsam o'sha vaqtlarda menga qattiq ta'sir bo'lgan onamning bu maslahatini bajo keltirish, tezroq saboq o'rganib, tengdoshlarim bilan baravar bo'lish va hatto ulardan oldinga o'tishni istar edim.

Lekin maktab hayoti va sharoiti mening bu tilagimga yo'l bermadi, harakat va g'ayratlarim zoye ketdi.

Men maktabga bordim, maktab bizning uyimiz kabi keng, to'rt eshikli, yorug' va tinch bo'lmay, torgina bir xonadan (hujradan) iborat edi. Uning ikki eshigi bor bo'lib, buning birini bir tavaqali va bu eshik ko'pincha yopiq turar edi. Ikkinchi eshigi darcha bo'lib, uch gaz bo'yi va yarim gaz eni bor. Bu darchaning oldi domla (maktabdor)ning o'tiradigan joyi edi. Darchalarga esa, parda qilingan (derazasi qog'oz bilan qoplangan) va qog'ozga esa qor-yomg'irning ho'llab yirtib yubormasligi uchun zig'ir moyi surtilgan, bu moyli qog'oz ko'chani chang va tuprog'ini o'ziga ola berib, qozon sochliq kabi qop-qora kirlanib ketgan edi, agar yanglishmasam, domlani tug'ilganidan beri sovun yuzini ko'rmagan, bemahoya kirlanib bitgan basharasiga o'xshar edi. Shuningdek, maktabning haligi aytganim derazasidan darsxonaga hech bir yorug'lik kirmas edi. Hujrani shipi tagidan devorning

shipga yaqinlashtirgan joyidan ikki tomondan ham bir-biriga ro'parama-ro'para qilib ochilgan ikki tuynukcha bo'lsa ham, bulardan kiradigan yorug'lik pastga tushmasdan, hujraning devorlarida qolar edi.

Bu hujraning kengligi o'n olti gaz murabba (kvadrat) edi, uning ichida bir-birining ustidan o'tkazilib to'rtta sinch tortilgan va bu bilan hujra to'qqiz bo'lakka bo'lingan, go'yo maktabxonaning ichida to'qqiz oxur paydo bo'lgan edi.

Eshik oldidagi oxurchada bolalarning kavushlari turardi, darcha oldidagi oxurchada bo'lsa domla va qolgan yetti oxurchada esa bolalar o'tirardilar. Bu vaqtda u maktabxonada qancha bola o'qiganligi aniq esimda yo'q. Faqat shuni eslaymanki, u vaqtlarda uch yuz uylik qishlog'imizning to'rt yashardan o'n ikki yasharga qadar bo'lgan barcha bolalari shu maktabning shogirdi hisoblanardi, undan tashqari, bizning qishloq xo'jalar qishlog'i bo'lganligi uchun ham «tabarruk» bir qishloq hisoblanganidan, atrof qishloqlardagi ba'zi «ixlosmandlar» ham o'z bolalarini bu maktabga yuborar edilar.

Xayriyatki, bu maktabda o'quvchi bolalarning hammasi har kuni muntazam davom qilmas edi, aks holda o'tirish nari tursin, hujrada tikka turishga ham joy topilmagan bo'lar edi. Shunday bo'lsa ham, bolalar amir zindonida qamalgan bandilar kabi, bir-birovlarini bosib, tiqilib, qiynalib o'tirar edilar.

Men bu maktabxonaning bizning katakchaga o'xshaganini hanuz unutganim yo'q. Bizning katakchamizda esa, onam tovuqqa tuxum bostirgan edi, yangi tuxumdan chiqqar jo'jalar bir-birovlarini bosib ona tovuqning qanoti ostiga tiqilar edi. Bu maktabxonadagi bolalar ham bir-birovlarini bosib o'tirishda xuddi shu jo'jalarga o'xshardilar, faqat ikki o'rtadagi farq shugina ediki, bizning jo'jalarimizning chug'urlashlari quloqqa bir turli yoqar, ammo bu maktabxo-

nadagi bolalarning qichqirishlari, dod-bedodlarning zarbidan esa kishining qulog'i portlash darajasiga kelar edi...

II

Meni maktabga otam olib bordi, u holvai uchun bir la'li kulcha non va mag'izni bir dasturxonga o'rab, o'zi bilan olib borgan edi.

Domla men bilan otamni o'z ro'parasiga o'tirg'izdi. Dasturxonni ochib kulchalardan birini ushatdi, o'zi bir burda olib, otamni ham non yeyishga undadi, otam ham bir burda nonni olib sindirib og'ziga soldi. So'ngra domla ushatilgan kulcha burdalarini tovuqlarga beradigandek maydaladi va bu non bo'lakchalarini maktabxonaning har tomoniga – bolalarning ustiga qarab sochdi.

Bu vaqt maktabxona ichida ur-ur, sur-sur, bir-birovining chopon va ko'ylaklarini yirtish, quloqlarini cho'zish, ko'zlarini o'yish va yuzlarini tirnashlar boshlandi. Buning ustiga, bolalarning yigi-sig'isi, dodu-faryodi go'yo maktab tomini osmonga ko'tarar edi.

Bu non ushoqlari ustida janjal-to'polon bo'lib turganda domla betaraf turmadi, uning orqasida devorga suwab qo'yilgan uzun-qisqa bir necha tayoq turar edi. U bu tayoqlardan eng uzun tayoqni olib, bir chekkadan bolalarning boshlariga qarab ura boshladi, bolalar o'zaro talashishni qo'yib, hammalari yig'iga tushdilar. «domlajon, tavba qildim... yedim» sadolari hamma bolalarning og'izlaridan barobar chiqib ko'kka ko'tarilar edi.

Men ham toqat qilolmay, bolalar qatorida yig'lashga kirishdim. Lekin otam meni yupatdi va agar yig'lamasdan maktabda qolsam, menga bir «kurra»¹ olib bermoqchi bo'ldi, domla ham otam bilan birga meni yupatishga kirishdi. «Men

¹ Kurra – xo'tik..

ham, – dedi u,– har bozor kuni bir chaqmoq qand olib bera-man».

Otamning va'dasi garchi bolalarni azoblash uchun yasalgan maktabxonada meni qolishga rozi qilolmagan bo'lsa ham, domlaning yupatishi meni bir oz tinchlantirdi, chunki u boshqa bolalarni ayamasdan urgani holda, menga, qand va'da qilmoqda edi. Men uning bu so'zidan «meni urmas», deb o'z-o'zimga tasalli berar edim, shunday bo'lsa ham, ikki ko'zimni u tayoqlardan, ayniqsa, maktabning har tomoniga yetib, hatto uzoq burchaklardagi pusgan «bolalargacha omon bermaydigan boyagi uzun tayoqdan sira uzmas edim... Bolalar bir oz tinchlandilar. Domla ko'rpachasi ostidan bir taxtachani olib unga ko'p narsalarni yozib otamga ko'rsatdi. Ammo otam savodli bo'lgani uchun domlaning yozgan ba'zi narsalariga qarshi chiqdi va «Buni bunday yozmaydilar», dedi.

Boshida domla janjal chiqardi va otamning gaplarini qabul qilmadi. Lekin otam ham janjal ko'tarib, o'z gapini o'tkazdi va u bir oz qizishib «unday bo'lsa, o'zingiz yozing», deb taxtachani otamning oldiga irg'itdi. Otam domla yozgan ba'zi narsalarni o'chirib, ularning o'rniga boshqatdan yozdi.

Shu vaqtdan boshlab otam ko'zimga katta odam bo'lib ko'rindi va u o'sha vaqtgacha qishloqning donosi va zo'ri deb bilganim domladan ham donoroq va kuchli bo'lib ko'rina boshladi. Bu hol menga quvvat berdi. Men o'z ko'nglimda: «Agar maktabdor meni ursa, men otamga undan shikoyat qilaman, otam kelib uni uradi. Agar bolalarni urmoq uchun maktabdorning tayog'i bo'lsa, otamning ham govron tayog'i bor. Otamning govron tayog'iga ho'kiz chidolmaydi. Ammo oriq, yuzi bir burda va o'zi holsizlikdan o'lib borayotgan domla bo'lsa, bir govron urilishi bilan o'lib qoladi...» deb o'ylardim.

Domla meni o'z ro'parasiga o'tqazib, oxurchaning de-
vohani hisoblangan sinchi ustiga taxtani qo'ydi va menga
«a'uzu billoh, bismillo»ni aytirdi.

Otam menga bularni ko'p vaqtdan beri o'rgatar edi, shu-
ning uchun ham tilim tutilmasdan va qo'rqmasdan «a'uzu
billoh, bismillo»ni baralla aytib yubordim.

Domla mendan xursand bo'ldi. Bolalar ham menga qa-
rari va domla tayog'idan qo'rqqanlari sababli boshlarini
ko'tarmagan holda, barmoqlarini ko'z oldilariga keltirib bir-
birovlariga meni ko'rsatar edilar, bu esa mening ko'zimga,
menim agar biron ovloq, hech kim yo'q yerda yolg'iz topsa-
lar, u barmoqlari bilan mening ko'zimni o'yadiganday bo'lib
ko'tarilar edilar.

Domla fotiha o'qidi, bolalar ham «omin» deb fotiha-
ga qo'shildilar. Shu bilan mening saboq boshlash marosi-
mim bitdi, otam qaytib, uyga ketdi va men, u kunga qadar
ko'timganim bir uqubatxonada qoldim.

III

Otam ketgandan keyin domla meni o'ziga yaqinroq
bir yerga o'tqazdi va yoshi kattaroq bir bolaga menga
o'rgatishni buyurdi. U bola meni o'z taxtachamga qaratib
«Alif, be, te, se, degin», dedi. Men ham uning og'zidan olib
haligi uch so'zni, ya'ni uch harfning otini aytib berdim.
Men bu so'zlarni ayta oladigan bo'lgandan keyin haligi
bola boshqa bolalarni o'rgatishga ketdi. Bolalar u bolani
xalfa der edilar.

Bir oz vaqt o'tgandan keyin domla chiqib ketdi va uning
ketgani hamon xalfa bolalarga:

– Turinglar, kurash qilamiz, – dedi.

Bolalar gurillashib o'rinlaridan turdilar va bir-birovlari
bilan kurasha, yoqalasha boshladilar, kuchlilar kuchsizlarni
yiqitib bosdilar.

Bolalar yarim soatcha bir-birovlari bilan kurashganlaridan keyin xalfa borib maktabdorning o'rnida devorga suyak qo'yilgan uzun tayoqni oldi va bolalarni bir boshdan ura boshladi. Men qo'rqib maktabxonadan chiqib qochmoqchi bo'ldim, lekin bu muyassar bo'lmadi. Chunki maktab eshigini ichkaridan zanjirlab, zulfiniga cho'p tiqqanlar va chiqish-kirish yo'li butunlay berkilgan ekan, men yosh va endigina olti yoshda bo'lganimdan eshikni ochpshga bo'yim va kuchim yetmas edi.

Xalfaning tayog'i ostida uyon-buyon qochib yugurishib yurgan bolalar, uning:

– Har kim o'z o'rniga o'tirsin, bo'lmasa yana ham qattiqroq uraman! – deyishi bilan o'z joylariga o'tirdilar, men ham o'z o'rnimga borib o'tirdim.

Xalfa qo'lida uzun tayoq, tikka turgani holda:

– Bolalar endi kamonboziy! – dedi.

– Kamonboziy!

– Kamonboziy!

– Kamonboziy!

Bolalar birdan shovqin ko'tardilar va amaliy ishga ko'chdilar. Bolalar maktabning birdan-bir palosi bo'lgan o'z ostilaridagi bo'yraning cho'plarini sug'ura boshladilar va kissalaridan ip chiqarib, o'sha cho'plardan yoy (kamon) yasadilar.

Har bola shu kabi bir bo'yra cho'pdan kamon yasab, bo'yraning ikkinchi bir cho'pini o'q o'rnida ishlatib, o'z ro'parasidagi bolaga qaratib otar edi...

Yana maktab ichida to'polon boshlandi, har bir bola boshqa bir bolaning ko'zini, yuzini va burnini nishonga olib urar edi.

Bir oz shu ravishda intizomsiz turishganlaridan keyin, xalfa tayoqni olib o'rnidan turdi-da, bolalarni bir boshdan urdi va bolalarga qarab:

«Indi saf tortib urushamiz!» – dedi.

Saf tortamiz, saf tortib urushamiz!» – deb bolalar ham qo‘llashdilar.

Katta, katta-kichik bolalarni ikkiga bo‘lib, maktabxona – ikki tomoniga o‘tqazdi. Har tomonda ikki qatordan – bolalarni oldinga va kichiklarni orqaga qo‘ydi va har bir devor ostida, ikki safning o‘rtasida turib farmon berdi:

Hoshlanglar, otinglar! Oldingi qatorda turgan bolalar birinchi qatordan boshladilar, orqa qatordagi kichkina bolalar esa ikkinchi qatordan boshladilar, oldindagilarga «o‘q» tayyorlab berar edilar.

Bu orada bir «o‘q» borib qarshi safdagi bir bolaning ko‘ziga sanchildi. U bola «voy o‘ldim, voy ko‘zginam», deyib baqirib, o‘zini bir tomonga oldi. Bu bolaning safdoshlari birdan qo‘zg‘alib aslida yirtilib bitgan bo‘yra parchalarini yerdan yig‘ib olib qarshi safdagi bolalarning boshlariga yong‘irday yog‘dirdilar. Qarshi safdagilar ham bu hujumni tinchlik bilan qabul qilmadilar, ular ham o‘z oyoq ostilaridagi bo‘yralarni ko‘tarib ikkinchi tomondagilarning ustlariga ota boshladilar!..

Maktab ichi chang-tuproq va xas-xashak bilan to‘ldi. Men bolalarning oyoqlari ostida qolib ezilishdan qo‘rqib qochdim va domlaning o‘tiradigan o‘rniga borib, chizib qo‘yilgan surat kabi devorga qapishib turdim.

«Urush» davom qilmoqda edi, birdan maktab eshigi shiddat bilan taqilladi. Taqillatuvchi borgan sayin qizib, eshikni oyog‘i bilan tepar edi. Men eshik sinar yoki buzilib ag‘anar, deb qo‘rqar edim.

Bolalar eshik taqillashini eshitishi bilan mushuk tovushini eshitib qochgan sichqon bolalariday qo‘rqib qochib o‘z oxurlariga kirib yashirindilar, lekin oxurchaning devori bir bolani pana qilgudek balandlikda emas edi. Bolalar boshlarini egib, yuz va ko‘zlarini yerga yopishtirib yashirindilar,

biroq o'zlari hech bir narsani ko'rolmasalar ham ularning orqalari do'ng'ayib turar va har kimga ko'rinar edi.

Eshik hali ham taqillardi, lekin bu bolalarning hech birovi borib eshikni ochishga botirlik qilolmas edi.

Bolalar o'z o'rinlarida yashirib o'tirib tinchlanganlaridan keyin xalfa borib eshikni ochdi. G'azab shiddatidan yuz-ko'zi, qosh-qovoq, soqol-mo'ylovlari, it ko'rgan mushukning juniday fahillab hurpaygan bir odam maktabxona-ga kirdi.

Bu kishi domla edi.

Domla maktabxonaga kirgan hamon, eshikni ochish uchun borgan xalfaning qo'lidan uzun tayoqni tortib oldi va avval boshlab xalfaning boshiga bir necha bor urdi. Xalfa esa domlanning tayog'i ko'tarilishi bilan, uzum o'g'irlash uchun boqqa kirib, bog'bon tayog'iga uchragan it kabi, dod solib, talvasalanar, har tomonga qochar edi. Ammo domlanning uzun tayog'i hujraning har bir burchagiga yetar va xalfaning badanini urib qabartirar edi.

Domla xalfani urib o'z g'azabi o'tini bir oz pasaytirgan bo'ldi-da, o'z o'rniga borib o'tirdi. Men esa, hanuz uning oxurchasida devorga qoqilgan surat kabi turar edim. Meni ham o'z o'rnimga o'tqazdi. Lekin meni urmadi.

So'ngra domla yana uzun tayog'ini ko'tardi va hali ham boshlari quyi va orqalari do'ngdek bo'lib ko'tarilib turgan bolalarni ura boshladi. U har bir tayoqni ko'tarib tashlaganda o'n-o'n besh bolani birdan urar va bolalar ham barobar:

– Tavba qildik! – deb baqirar edilar. Shundan keyin domla:

– O'qinglar! – deb buyruq berdi.

Bolalar tayoq yegan orqalarini silab-silab boshlarini ko'tardilar. Ko'zlarini domladan uzmaganlari holda, boshlarini kitob va taxtachalarga egib, allanimalar deb vaysab baqirisha boshladilar.

Men ham ularga taqlid qilib ko‘zlarimni taxtachamga tikib «alif, be, te, se», deb qichqirmoqda edim.

Bolalar qichqirishib bir oz o‘qiganlaridan keyin, domla xalfani o‘z oldiga chaqirdi. Yangigina domladan xo‘p tayoq yegan xalfa hech bir qo‘rqmasdan uning oldiga keldi. Men xalfaning dovyurakligiga hayron qoldim va men ham shunaqa qo‘rqmas bo‘lishni orzu qildim. Ammo men o‘z ko‘nglimda aytar edimki, «agar men ham shu xalfaday qo‘rqmas bo‘lsaydim, domla meni urmoqchi bo‘lganda men xalfa singari undan qochmas, balki qo‘lidan tayoqni tortib olib, o‘zining boshiga uraverar edim. Esizki hali men kichikman va ko‘nglimda qo‘rqish ham ko‘p».

Domla xalfadan:

– Ayt menga, bu qadar g‘alvani kim qo‘zg‘atdi? – deb so‘radi. Xalfa domlaning so‘rog‘iga javoban bir necha bolaning otini tutib ko‘rsatdi.

Bolalar o‘qishlarini to‘xtatib, quloq soldilar va xalfaning kimlarni chaqqanini bilmoqchi bo‘ldilar.

Ammo domla bunga yo‘l bermadi.

Uzun tayog‘ini ko‘tarib bolalarning boshlariga uraverdi, bolalar ham qayta boshdan qichqirib o‘qishga kirishdilar.

Domla «gunohkor» bolalarning otlarini eshitib bo‘lganidan keyin:

– Jim bo‘linglar! – deb baqirdi. Bolalarning barisi birdan o‘qishdan to‘xtadilar. Domla, xalfa chaqqan bolalarning nomlarini bir-bir aytib chaqirar edi. Domla, agar yanglishib bir bolaning o‘rniga ikkinchi bir bolani chaqirsa, xalfa uning yanglishini tuzatar, «u emas, bu emas, bu» deb domlaga luqma tashlar edi.

Shunday qilib, o‘n-o‘n ikki bola domlaning oldiga to‘plandilar, ularning hammasi ham kattaroq bolalardan edi. Domla xalfaga:

– Eshikni yop, – dedi.

Xalfa maktabning eshigini ichkaridan zanjirlab, zulfiniga choʻp tiqib berkitdi.

– Falloqni ol! – deb domla xalfaga buyurdi. Xalfa domla yoniga oʻtdi va uning orqasida devorga osib qoʻyilgan bir yogʻochni oldi. Bu yogʻoch bir yarim gaz Uzunlikda boʻlib, bir oz egri va ikki boshida bir tizimchaning ikki uchi tugilgan edi.

– Ahmad, yana shoʻxlik qilasanmi? – dedi domla bir bolaga qarab baqirib.

– Domlajon, tavba qildim, men shoʻxlik qilgan emasman! – deb u bola yalinishni boshladi.

Biroq domla, bu bolaning dod-voyiga, yolvorishiga quloq solmadi va uning yonidagi boshqa bolalarga:

– Bosinglar buni! – deb buyruq berdi. Ahmadning yonida turgan bolalar uni bosdilar, domlanning yana qayta ikkinchi buyrugʻini kutmasdan, uning oyoqlarini falloqning tizimchasidan oʻtkazdilar va ikki bola falloq yogʻochining ikki uchidan tutib, uni buray berdilar. Tizimcha falloq yogʻochiga oʻrala boshladi u bolaning oyogʻini qisdi, bolaning oyogʻi borgan sari mahkam qisilar edi, bu qisish shu darajaga yetdiki, bola chiday olmay, dod soldi:

– Voy oʻldim, voy oyoqqinam! – deb qichqirdi. Oʻqishdan toʻxtagan boshqa bolalar esa, qoʻrqqan va titragan bir vaziyatda uning dod-faryodini tinglar edilar. Lekin domla bu holga yoʻl qoʻymadi, u uzun tayogʻini qoʻliga oldi-da, boshqa bolalarni boshlariga urib, ularni oʻqishga buyurdi. Ular ham yigʻlab-siqtab baland ovoz bilan oʻqishga kirishdilar.

Domla oʻz orqasida devorga tirab qoʻyilgan tayoqlardan bitta ikki gazligini olib xalfaning qoʻliga berdi va:

– Ur! – deb buyurdi.

Xalfa falloqqa bogʻlangan Ahmadning tovonlariga ura boshladi.

Endi Ahmadning dod-faryodiga hech chidab turib boʻlmas edi. Biroq uning faryodi boshqa bolalarning kitob

o'qishlari, baqirishlariga qo'shilar va uning tovushi baqirishlar ichida singib yo'qolar edi. Shuning uchun o'tkinchilar «bolalar o'qiyaptilar», deb o'ylar va bu vahshiylikdan xabar-
siz qolar edilar.

Xalfaning kaltaklari zarbidan avvalo Ahmadning tovon-
lari ko'karib, qorayib ketdi, so'ngra tirqirab qizil qon chiqdi
va tayoqni bo'yab yubordi,

Domla tayoqdagi qonni ko'rib qolgan bo'lsa kerak:

Endi bas, – dedi.

Xalfa urmoqdan to'xtadi, Ahmadning oyog'ini falloqdan
bo'ldirdilar.

Oyoq uchlarini yerga bosib o'rnidan zo'rg'a turgan Ah-
mad qo'li bilan o'z iyagini tutib g'azab bilan: «Haf, sanimi?»
degandek qilib xalfaga bir qaradi.

Muhammadni bosinglar! – deya domla yangidan buy-
ruq berdi.

Muhammad ham bolalar tomonidan yerga ag'darilib, Ah-
mad yo'sinida oyog'iga falloq solindi, buni ham domlanning
buyrug'i bilan xalfa tayog'i qonga bo'yalguncha urdi.

Shu tartibda domla oldiga to'plangan o'n-o'n ikki bola
bu boshdan bosilib urilib chiqildi.

Mening ularga rahmim kelar edi, chunki ularning hech
bittasi bu o'yinga rahbarlik qilmagan, hammasini xalfaning
o'zi boshlagan bo'lib, yana uning o'zi domlaga chaqqan va
bolalarni yana o'z qo'llari bilan tayoqlagan ham xalfaning
o'zi edi. Men bu holni domlaga ochib tashlamoqchi bo'lsam-
da, xalfadan qo'rqqanimdan nafasimni chiqarolmadim.

Lekin mening kaltaklangan bolalarga rahmim va xalfa-
ga qarshi g'azabim uzoqqa cho'zilmadi. Domla xalfa tomo-
nidan «aybdor» sanalgan bolalarning hammalarini urdirib
bo'lgandan keyin xalfaga qarab:

– Men bilamanki, har bir shumlikni sen o'zing boshlay-
san! – dedi va tayoq yegan bolalarga qarab:

– Bosinglar bu shunning o‘zini! – dedi.

Oyoqlarini dam-badam yerga bosib javrashib, hanuz tikka turgan boyagi tayoq yegan bolalar, shu buyruqni kutayotgan kabi birdan xalfani bosib yiqitdilar va oyog‘ini falloq tizimchasidan o‘tkazdilar. Bir nechalari kuchlarining boricha falloq yog‘ochini buray boshladilar.

– Voy, oyoqlarim sindi, astaroq, men bu qadar qattiq buramagan edim, insof qilinglar! – deb xalfaning baqirishiga ular hech quloq solmas edilar.

Domla o‘z oldidagi tayoqlardan eng zo‘rini tanlab haligi tayoq yegan bolalardan birining qo‘liga berdi va:

– Ur! – dedi.

Bola tayoqni oldi-da, xalfaning oyoqlariga ura boshladi. Falloq yog‘ochni tutgan bolalar uni yana ham qattiqroq burar edilar, Xalfa bo‘lsa:

– Ko‘nglingiz tilaganicha uring, lekin falloqni muncha qattiq buramang! – deb yalinar edi. Ammo bolalar yana ham qattiqroq burar edilar.

Birinchi bola xalfaning oyog‘iga bir necha marta urgandan so‘ng, domla tayoq yegan ikkinchi bolaga qarab:

– Endi sen ur, qarzingni undir, – dedi.

Bu bola yana ham qattiqroq urishga tutindi... Shu yo‘sinda xalfadan tayoq yegan bolalar, o‘z navbatlarida o‘z «qarzlari» bilan undirdilar.

– Endi bas! – deya domla, urayotgan bolani urishdan to‘xtatdi, lekin falloqni burayotgan bolalar hali bo‘shatmas edilar.

– Tag‘in nima deysanlar, hali ham alamlaring chiqmadimi? – deb domla, falloqni tutib turgan bolalardan so‘radi.

– Tuz, – dedi ularning bittasi.

– Ha, ha, darvoqe, tuz! – deb takrorladi domla va ko‘rpachasining ostini titkilay boshladi.

– Menda tuz yo‘q ekan, qani kimda bor?

Tayoqlangan bolalar o'z kissalarini qidira boshladilar, ularning bir-ikkitasining kissasidan lattaga tugilgan mayda tuz chiqdi.

Seping! – dedi domla.

Bolalar, unday mayda tuzni xalfaning yorilgan oyoqlariga sepdilar va qo'llari bilan bosib bu tuzni yorilgan oyoqning po'shtlari orasigacha yubordilar.

Xalfa esa, bu holga chiday olmay bo'g'izlanayotgan ho'kiz singari baqirar edi.

Bo'shatinglar! – dedi domla.

Bolalar falloq yog'ochini teskarisiga burab xalfaning ovog'ini bo'shatdilar. Xalfa, ko'z yoshini yengi bilan artatib oqsab, o'z joyiga borib o'tirdi. Bolalar hali ham baland ovoz bilan qichqirib o'qimoqda edilar.

Domla uzun tayog'ini ko'tarib bir boshdan bolalarning oyoqlariga urib chiqdi, shundan so'ng:

Jim! – deb buyruq berdi.

Bolalar o'qishlarini to'xtatib, domlaga qaradilar.

Bugun bo'yralarning barisini titibsizlar, erta har birlaringiz sakkiz pul bo'yra puli keltiringlar! – dedi.

Keltiramiz, keltiramiz! – deb bolalar ovoz berdilar.

Ozod! – deb yubordi domla.

Bolalar kalxatdan qochgan chumchuqlar to'dasiday tapirlashib, birdan o'rinlaridan turdilar, eshikka tomon yugurdilar. Eshik hali ham zanjir edi. Xalfa avaylab o'rnidan turdi va oqsay-oqsay eshikning oldiga keldi-da, eshikni ochdi va hammadan oldin o'zi chiqdi. Uning orqasidan boshqa bolalar bir-birovlarini turtib, bosib hovliqa-hovliqa eshikka otildilar. Hammadan keyin men chiqdim.

Bolalarning barisi maktabxonaning eshigi oldida to'planib turdilar, xalfa ularga qarab:

Salom! – dedi.

– Assalomu alaykum! – deb bolalar bir ovozdan baqirdilar va so‘ngra butun bolalar har tomonga qarab qochib tarqalishdilar.

Ammo xalfa bilan tayoq yegan boshqa bolalar maktabxona orqasidagi tor ko‘chaga to‘plandilar. Bu mening ketish yo‘lim edi. Xalfa ularga:

– Ertaga chillakbozlik va bedanavozlik qilamiz, tayyorlanib kelinglar, – dedi.

– Durust, durust! – degan holda bular ham o‘z uylari tomon tarqalishdilar.

IV

Men uyga bordim va onamni ko‘rishim bilan yig‘lab yubordim, onam:

– Senga nima bo‘ldi, nega yig‘laysan? – deb so‘rasa ham, men javob berolmas edim. Qaerdandir otam kelib qoldi, u onam kabi yumshoq til bilan emas, balki shiddat bilan yig‘imning sababini so‘radi:

– Senga nima bo‘ldi, tez ayt! Bo‘lmasa qulog‘ingni kesaman! – dedi.

Men yig‘i aralash hiqillab:

– Bolalar bir-birovlari bilan urishdilar, – dedim.

– Bolalar bir-birovlari bilan urishsalar, senga nima? – deb otam qo‘shimcha qilib so‘radi:

– Sen-ku, urishmagansan, seni birov hamurgan emas, nega yig‘laysan?

– Domla ularni urdi.

– Yaxshi qilibdi, urishqoq bolalarni uradilar.

– Men maktabga bormayman.

– Noma‘qul qilibsan, – dedi otam va bir oz jim turganidan so‘ng, yumshoqlik bilan so‘radi:

– Nega maktabga bormaysan?

– Domla uradi.

Urishga haddi yo'q, urolmaydi. Agar domla seni ursa, men uning qulog'ini kesib olaman, – dedi otam va kissasidan pichoqchasini chiqarib menga ko'rsatib takrorladi: – Agar domlang seni ursa, shu pichoqcha bilan uning qulog'ini kesib olaman.

Men otamning bu so'zidan juda quvondim.

«Mayli, domla meni bir marta urib ko'rsin, men uni otamga aytay-da, otam domlanning qulog'ini kessin men borib uning kesilgan qulog'ini tomosha qilay», – deb ko'nglimdan o'tkazdim.

Lekin bu tilakdan o'zim qo'rqa boshladim. Chunki shu yoshga kirgunimcha men hech qattiq kaltak yemagan edim. Domlanning tayog'i oyog'imga tegayotganini xayolimdan o'tkazganimda, tovonlarim achir, lovillab og'rir va nafasim qisilib, o'pkam orqamga yopishar edi, shuning uchun domlanning qulog'ini kesilgan holda ko'rish tomoshasi bahridan o'tmoqchi bo'ldim.

Lekin ko'nglim bunga ham rizolik bermas edi. Chunki qo'shnimizning qulog'i kesilgan bir eshagi bor bo'lib, egasi uni minib chiqqanda, bolalar har qachon:

Qulog'i yo'q eshak, quloqsiz eshak! – deya qiyqirib chapak chalib kulishar edi. Men bo'lsam, bolalarga qo'shilib quvongan holda yugura berar edim.

Men o'ylar edim: «Agar bolalar domlanning qulog'i kesilganini ko'rsalar, bu kungiday o'ynaymiz deb bir-birovlarini urib yurmasalar, balki quloqsiz domlani ko'rish ular uchun rosa maroqli tomosha bo'lar edi-da».

Mening xayolimga bir tadbir keldi, agar u tadbir amalga oshsa edi, o'zim tayoq yemasdan, domlani quloqsiz holda ko'rar edim. Shu mulohaza bilan otamga aytdim:

– Agar avval borib domlanning qulog'ini kesmasangiz, men maktabga bormayman.

– Unday bo'lsa men senga kurra olib bermayman,– dedi otam.

«Oh kurra!!! U qanday yaxshi narsa-ya! Agar uning bo‘yniga qo‘ng‘iroq va po‘pakli qizil bo‘yinbog‘ bog‘lasang... Ehhye... qanday yaxshi bo‘ladi-ya!.. Mingan vaqtda u dingillab quloqlarini dikkaytirib va oyoqlarini tipirlatib chopsa, o‘zingni eshakka mingan emas, balki bulutga minib havoda kezgan sezasan».

Kurraning shirin xayoli maktabning har bir qiyinchiliklarini menga osonlashtirdi, maktabga bormoqchi bo‘ldim, lekin otamdan yana bir narsani undirmoqchi bo‘lib:

– Agarda kurrachamga po‘pakli qizil bo‘yinbog‘ va qo‘ng‘iroq olib bersangiz, mayli, maktabga boraman, – dedim.

– Balli, – dedi otam quvonch ohangi bilan, – sen maktabga yig‘lamay borib kelaver, men senga xohlagan narsangni olib beraman.

Men ko‘z yoshimni yengim bilan artdim va onamdan bir parcha non oldim-da, bog‘chaga chiqdim, u yerda tol novdasidan bir xipchin sindirib oldim va uni xalacho‘p o‘rnida ishlatib bog‘chaning devoriga minib, uni eshak deb faraz qildim. Nondan ba‘zan bir tishlam yeganim holda devorni «xix-xix» lab, xalacho‘p bilan urib, haydagan bo‘lar edim. Shubhasiz, devor qimirlamas, boyagiday turaverar edi. Shunday bo‘lsa ham, xayolimni o‘ziga tortgan kurrani orzu qilib, ko‘nglimni xushvaqt qilar edim.

V

Ikkinchi kun erta bilan maktabga bordim, hujrada domladan boshqa kishi yo‘q edi. Men unga salom berib, o‘zim uchun muayyan bo‘lgan joyimga borib o‘tirmoqchi bo‘ldim.

– Bo‘yra pulini keltirdingmi? – so‘radi domla mendan.

– Yo‘q, esimdan chiqibdi! – dedim.

– Bo‘yra pulini unutibsan, qanday mulla bo‘lasan? Tez bor, otangdan sakkiz pul bo‘yra puli olib kel!

Men taxtachamni o'z o'rnim oldidagi tag sinchning us-
si qo'ydim-da, maktab hujrasidan qaytib chiqdim. Hali
maktabdan uncha uzoqlashmagan edim:

Sadriiddin! – degan tovush eshitildi. Qayrilib qara-
dim. Meni domla chaqirar edi. Yo'limdan qaytib domlanning
m'parasida, unga ko'zimni tikkan holda to'xtadim.

Qo'lingni qovushtir! – dedi domla, bir daraja rizosizlik
bilan.

Uning buyurishiga ko'ra qo'limni qovushtirdim, shu bi-
lan shubhalangansimon domladan ko'zimni uzdim-da, uning
onqasida devorga qator tirab qo'yilgan katta-katta tayoqlarga
tikildim. Domla qo'lini haligi tayoqlarga tomon uzatdi, men
otam, endi domla uradi deb, Qo'rqdim va ixtiyorsiz ravishda:

Agar siz meni urar ekansiz, otam sizning qulog'ingizni
kesadi! – deb baqirdim.

U kuldi va:

Yo'q, seni urmayman, sho'xlik qilmasang, hech ham
urmayman, – dedi.

Men uning bu kulgisidan tinchlandim-da, ikkinchi buy-
urishini kutib turdim. Qisqa tayoqlarni to'plab oldi va menga
uzatib:

Bularni machitning hovuziga eltib tashla, so'ngra borib
otangdan bo'yra pulini olib kel! – dedi.

Men bir tomondan, tayoqlarning maktab hujrasidan
yo'qolishi, ikkinchi tomondan, domlanning kulganidan qu-
vongan holda oyoqlarim yerga tegmas darajada yugurdim.

Avval tayoqlarni hovuzga eltib tashladim, so'ngra uyga
borib tegirmon charxi yo'nayotgan otamdan bo'yra pulini
so'radim.

– Necha pul kerak ekan? – deb so'radi otam.

– Sakkiz pul.

Otam kissasini kovlab mening qo'limga sakkiz pul chiqa-
rib berdi. Men otamning do'konxonasidan chiqar ekanman,
otamga qarab:

– Ota, domla menga kulib qaradi, «seni urmayman» dedi, buning ustiga tayoqlarni ham menga berdi, men ularni hovuzga tashladim, – dedim.

– Yaxshi bo‘pti. Tez bor, sabog‘ingni takrorla, – dedi otam.

Shoshib-pishib maktabga bordim. Bu vaqtda bolalarning bir qismi maktabga kelgan ekan. Domla bo‘yra pulini yig‘ib olish bilan ovora edi. Men ham otam bergan sakkiz pulni unga bermoqchi bo‘lib, qo‘llarimni qovushtirdim va kaftimdagi pullarni barmoqlarim orasidan unga ko‘rsatdim.

Maktabdor tag‘in kulib:

– Balli, endi odobli bo‘libsan, – dedi va yana qo‘shimcha qilib: – Pul berganda qo‘lingni qovushtirmasang ham bo‘ladi, – dedi.

Men domlaning bu so‘zidan botirlanib, chap qo‘limni ko‘kragimga qo‘yganim holda, o‘ng qo‘lim bilan pulni uzatdim.

Domla mening qo‘limdan pulni olib:

– Ilohi, katta bo‘l, mulla bo‘l! – deya duo qildi.

«Domla uncha yomon odam emas ekan, tayoqlarni maktabdan yo‘qotdi va maktabning bo‘yrasi uchun olingan pul badaliga mening haqqimga duo ham qildi» deb xayolimdan o‘tkazdim.

Domla, yana o‘zining pul to‘plash ishiga kirishdi, u, pul keltirmagan bollarni uylariga qaytarib yuborar edi. Ba‘zi bolalar esa ikkinchi marta ham pul keltirmas va:

– Otam «bozor kuni beraman», dedilar, degan xabar keltirar edi.

Men ham to hammalaringiz pul keltirmaguncha yangi bo‘yra olmayman, bu eskirgan bo‘yralarni yoqish uchun yig‘ishtirib, tahoratxonaga topshiraman. Sizlar, tuproq ustiga o‘tirishga majbur bo‘lasiz va o‘yin uchun cho‘p ham topolmaysiz, – dedi.

Domlaning bu do'qini eshitgandan keyin, pul keltirgan bolalar pul keltirmagan bolalarni turtib:

Sakkiz pul bersa, otang o'ladimi, keltirgin-da, – deyar edilar.

Bozor kuni dedim-ku, – deb yig'lab yubordi bola.

Men ham o'z ichimda bu bolalarning otalarini xasis va qattiqqo'l deb o'ylar edim. Men ikki tiyinga baravar bo'lgan o'sha vaqtdagi sakkiz pulning qancha qurbi va qimmatini bilmay edim. Pul to'plash janjali bilan kun tushga yaqinlashdi va domla:

Turinglar, nonxo'rak! – deb yubordi.

Bolalar gurillashib turdilar va tunov kungi singari maktabning eshigidan chiqib salom berib, uyma-uy tarqalishdilar...

Men ham o'z uyimga keldim, ovqatlan dim va mushugim bilan bir oz o'ynagandan so'ng, qaytib maktabga bordim.

VI

Domla hali ham maktabda o'tirar, bolalar ham birin-sirin qaytishib kelmoqda edi. Bir ozdan so'ng bolalar yig'ilishdilar.

Domla:

– O'qinglar! – degan holda uzun tayog'ini ko'tarib, bolalarning orqalariga ura boshladi. Bolalar qichqirib o'qishga kirishdilar. Men ham «alif, be, te, se» deb qichqirar edim. Domla xalfaga qarab: – Bolalarga saboq ber! – dedi.

Xalfa, kechagi yegan tayoqlarining zarbi ketmaganlikdan oqsay-oqsay, har bir bolaning oldiga navbatma-navbat borib, saboq bera boshladi.

Bugun menga domlaning o'zi saboq bermoqchi bo'ldi, meni o'zining ro'baro'siga o'tqazdi, oldimga taxtachamni qo'ydi va:

– Sabog'ingni o'qi! – dedi.

Men taxtachaga qaramasdan:

– Alif, be, te, se, – dedim.

– Durust, balli, – dedi domla va o‘zi xat yozish bilan ovo-
ra bo‘lgani holda: – Pastdagisini o‘qi, «jim, hye xe» deb, –
dedi.

Men domlanning og‘zidan chiqqan bu uch harflarning no-
mini takrorlay berdim. Men, hech taxtachaga qaramasdan
ikki ko‘zimni domlanning chirkin va so‘lg‘in yuziga nursiz
ko‘zi va gapirgan chog‘ida iyagi bilan baravar yuqori, quyi
chiqib tushadigan echki soqoliga tikkan edim.

Domla, bir necha bor o‘zi o‘qib, meni ham ergashtirib
o‘qitganidan keyin: -

– Endi o‘zing o‘qi, – dedi.

– Alif, be, te, se, – deb o‘qidim men.

– Yo‘q, – dedi u, – pastdagisini o‘qi!

Ammo men bularning qaysi biri yuqori, qaysi birisi past-
da ekanligini bilmas edim. Shuning uchun ham domlanning
basharasini tomosha qilganim holda, qo‘l qovushtirib jim tu-
raverdim.

– Pastini o‘qi deyman! – dedi domla g‘azab bilan.

Uning o‘zi hamon xat yozish bilan ovora edi. U qo‘lidagi
yozilgan qog‘ozni yerga qo‘ygandan keyin, menga qarab bir
oz jim turdi va:

– Sen zehni past bola ekansan-ku, shuncha o‘rgatganim
bilan hali ham o‘rganmagansan, – dedi.

– Nimani o‘rgatdingiz? – deb so‘radim men.

– «Jim, hye, xe» ni, – dedi u.

– Bularni bilaman, – dedim. – Jim, hye, xe, – deb takror-
ladim va yana ilova qildim: – Bularni bilamanku-ya, ammo
pastdagisini bilmayman.

– Pasti shu, bor joyingga, o‘qiy ber!

Men o‘z joyimga borib o‘tirib «jim, hye, xe» ni takror-
lashga kirishdim, lekin hali ham ko‘zimni domlanning yuzi-
dan, ayniqsa uning echki soqolidan uzmas edim, ko‘zini ya-

rim yumib jim turib xat yozayotgan paytidagi soqoli mening ko'zimga qiziq ko'rinar edi, bu hol echkimizning soqolini esimga tushirar edi.

Bir vaqtlarda bir echkimiz bo'lib, uni men boqib yaxshigina semirtirgan edim. Qish qattiq keldi, ariqlar tamom muzladi, tegirmonlar yotdi, otamning yo'nib qo'ygan tegirmon charxlarini hech kim sotib olmadi, otam ikki oy badalida go'sht olishga pul topmadi, oxirda u echkini so'ymoqchi bo'ldi. Men unamay dodu faryod qildim, ammo otam mening dodu faryodimga qaramasdan, pichoq qayradi, echkini yotqizib oyoqlarini bog'ladi, onam uning bog'langan oyoqlarini bosib turdi va otam uni so'ydi.

Men yig'lay-yig'lay echkiga termilar edim. Echki jag'ini qimirlatib jon uzayotganida soqolining yuqori, kuyi qimirlashi, domlaning gapirganidagi silkingan soqoliga o'xshar edi. Echki so'yilib boshi gavdasidan ajratildi. Shunda men echkinining boshini ko'tarib uni erkalab, tomosha qildim, echkinining ko'zi yarim yumuq edi, soqoli esa, tikkayib ko'tarilib turar edi. Jim turib xat yozayotgan domlaning soqoli ham xuddi shu so'yilgan echkinining soqoli singari edi. Men domlaning haligi holini ko'rganimdan keyin, darhol echkimni xayolimga keltirdim va uni eslab qayg'ulandim, biroq shunday bo'lsa ham «jim, hye, xe» deb takror qilar edim.

Qandaydir bir kishi tashqaridan domla o'tirgan joydagi darchani taqillatdi. Domla:

– Kim u? – degan holda darpardani ko'tardi. Keluvchi, paranji va chachvon yopingan bir xotin edi.

U domlaga yengiga o'ralgan qo'li bilan bir tanga pul uzatib:

– Bu nazrni oling, bosh og'riq, tish og'riq, ko'z og'riq duolari ham tug'ish vaqtida qiyinchilik chekayotgan xotin uchun kushoyish duosini yozib bering! – dedi va qo'shimcha qilib: – Bolalarni ham bugun ozod qiling! – dedi.

– Bir tanga uchun to‘rtta duo, buning ustiga bolalarni ham ozod qilay? Bu bo‘lmaydi. Hech bo‘lmasa yana bir tanga bering! – dedi domla.

– Men uzoq yo‘ldan – Obkina qishlog‘idan keldim, – dedi xotin, – meni xotini tug‘olmay qattiq dard chekayotgan Sharafboy bir tanga berib kushoyish duosi olib kelish uchun yuborayotganda, kasal bo‘lib qolgan boshqa qo‘shni xotinalar ham o‘z dardlari uchun duo buyurdilar va «har vaqt pul topsak, domlaning nazrini beramiz, o‘shanda eltib berasan», dedilar. Siz duolarni bering. Ular pul berishlari bilan keltirib beraman. Hozircha xudoning rizosi uchun bolalarni ham ozod qiling.

Domla tangani olib kissasiga soldi, ertadan beri yozib, o‘z oldini to‘ldirib yuborgan xatlaridan to‘rt donasini oldi va uchburchak shaklida bukib, xotinga uzatdi.

Xotin duolarni olayotib:

– Bu duolarning qaysi-qaysisi qanday dard uchun? – deb so‘radi.

– Bular hammabop duolardir, – dedi domla, – qaysisini qanday kasalga bersangiz, agar u ixlos qilar ekan, hech shak-siz tuzaladi.

Xotin «hammabop» duolarni olib ketdi. Domla bu kun «xudoning rizosi uchun» bolalarni ham ozod qildi.

Shunday qilib, biz ham maktabxona zindonidan ozod bo‘ldik.

VII

Biz maktabga bordik, hali nonxo‘rak vaqti bo‘lgancha yo‘q edi, maktab oldiga bir otliq keldi:

– Domla, domla! – deb domlamizni chaqirdi. Domla darchaning darpardasini ochib:

– Ha, nima gap? – deb so‘radi.

– Obkinada janoza, Sharafboyning xotini o‘ldi, – dedi-da, otini bir tomonga qarab surib ketdi.

Domla shoshilib, sallasini boshidan olib qo'ydi va tahorat qilish uchun bo'lsa kerak, maktabxonadan tashqariga tomon yo'naldi.

Duoingiz foyda bermabdi-da, domla, Sharafoyning xotini o'libdi-ku, – dedi xalfa, domlani masxaralagan bo'lib.

Shakkoklik qilma! – dedi domla va yana qo'shimcha qildi. Duo, albatta, foyda berar edi, u o'zining ixlossizligidan o'lgan, agar ixlosi bo'lsa, qutular edi. «Ixlos – xalos», deganlar.

Domla tashqariga chiqarkan:

Sizlarga choyxo'rak! – dedi.

Bolalar choyxo'rak uchun tarqalishdilar, men ham uyimga keldim.

Biror soatdan keyin maktabga qaytdim, bolalar endigina yig'ilisha boshlagan edilar. Butun bolalar yig'ilib bitganlaridan so'ng, xalfa ularga murojaat qilib:

Bolalar, bir maslahat! – dedi.

Qanday maslahat? – degan tovush o'nlarcha og'izdan burdan chiqdi.

Biz qanday o'yin o'ynasak ham hech kim domlaga sabar bermasin va hech bir bola ikkinchi bolaning ustidan chaqimchilik qilmasin! – dedi xalfa.

– Avval o'z og'zingni tiy, – dedi xalfaning chaqishi bilan domladan tayoq yegan bir bola.

– Bundan so'ng men hech ham chaqmayman, sizlar ham shunday qilinglar «tuya ko'rdingmi, yo'q», – dedi xalfa katta bolalarga va menga qarab so'zini davom ettirdi:

– Sen ham otangga xabar berib yurma tag'in! – dedi – Sening otang ig'vogar, bir kuni o'riklaringizdan o'g'irlagan edim, otang ko'rib qolib, buni ham otamga va domlaga chaqibdi. Ham otamdan, ham domladan kaltaklanib o'layozdim, – dedi.

– Xo'p, aytmayman! – dedim.

– Agar ayta ko'rsang, – dedi u, – seni bolalarga buyurib «xar murd»² qildiraman.

– Aytmayman, xabar bermayman, – deb ta'kidladim men.

Men birinchi marta «xabar bermayman», deb yuzaki aytgan bo'lsam ham, ikkinchi daf'ada astoydil va qat'iy ishonch bilan va'da bergan edim, negaki, men «xar murd»dan benihoya qo'r qar edim.

Bir kuni maddoh bizning qishloqqa kelib ma'raka qildi. Qishloq kattalari qo'shni qishloqqa to'yga ketgan edilar. Maddohning bu ma'rakasida yoshlardan boshqa kishi yo'q edi.

Maddoh hikoya boshladi, hikoyasi qiziq bir joyga kelganda u yig'ilganlardan talab qildi:

– Har kim nimaga qudrati yetsa, ya'ni nonmi, pulmi, meva-chevami, o'rik-mag'izmi keltirib bersin, hikoyaning qolganini so'ngra aytaman, – dedi.

Bolalar va yosh o'smirlar o'z uylariga qarab yugurdilar, har kim maddohga bir narsa keltirib berdi. Men ham uyga borib, onamdan bir hovuch o'rik olib keltirib maddohga berdim.

Maddoh yig'ilgan pullarni kissasiga soldi va narsalarni xurjunga tiqib:

– Hikoyaning davomini kelajak haftada kelib aytib bera-man, – dedi va eshagiga minmoqchi bo'ldi.

– Davomini hozir aytib bering! Agar narsa oz yig'ilgan bo'lsa, yana ozmi-ko'pmi yig'ib berib, sizni xursand qilamiz, – deya yoshlar qancha yalinsalar ham maddoh unamadi va eshagiga minib jo'namoqchi bo'ldi.

Shu vaqtda yoshlardan biri:

– «Xar murd!» – deb tovush chiqardi.

Hamma birdan:

² «Eshak o'ldi».

«Xar murd, har murd»...— deb maddohga yopishdilar va uni eshakdan agʻdarib bosib ura boshladilar

Voy oʻldim, qoʻyib yuboring, hikoyaning davomini hozir qiziqroq aytib beraman! — deb baqirar edi maddoh,

Sizining hikoyangizdan ham «xar murd» qiziqroq, — deb yoshlar uni yana urar edilar.

Oxirida maddoh holdan ketdi, endi dodlashga ham kuchi yetmas edi.

Endi buni suvga bosamiz, koʻtaringlar! — deb birov ovoz berdi.

Hamma birdan yopishib, joni chiqayozgan maddohni koʻtardilar va uni bizning qishloqning oʻrtasidan oqadigan «Mazrangan» arigʻiga tashladilar.

Maddoh suvga tashlanishi bilan, ogʻirligi sababidan shoʻngʻib ketgan boʻlsa ham jon talvasasi bilan suzib suvning yuziga chiqdi-da, suza boshladi. Ammo yoshlar uni kurk tovuqni suvga pishganday pishar, shoʻngʻitar edilar.

Oxirida maddoh yuvmoq uchun taxtaga olingan oʻlikday boʻldi, shundan soʻng uni suvdan tortib chiqardilar, maddohning oqib ketganallasini bolalar tutib keldilar. Sallani maddohning xurjuniga hoʻlligincha tiqdilar, maddohning oʻzini ham hoʻl boʻlgan kiyimlari bilan koʻtarib, eshagiga mingizdilar va eshagining sagʻrisiga urib:

Bor, daf boʻl, yoʻqol! Oʻzing oldinda va hikoyang orqangdan joʻnasin,— deyishdi.

Men mana shu voqeadan soʻng «xar murd»dan benihoya qoʻrqar edim, shuning uchun xalfaning meni «xar murd» bilan qoʻrqitishidan soʻng, bularning oʻyinlarini otamga aytmaslikka chin koʻngildan vaʼda berdim.

VIII

Xalfa otamga aytmaslikka mendan qatʼiy vaʼda olgandan keyin:

– Bolalar, endi danakbozlik qilamiz! – dedi. Bolalar bundan burun ham maktabda bu o'yinni bir necha martalab o'ynagan bo'lsalar kerak, darrov o'rinlaridan turib, titilgan bo'yralarni yig'ishtirdilar va danak o'yini uchun chuqurchalar qazidilar.

O'ynadilar, orada ancha danak yutildi va yutqazildi, «hunarli» bolalar sodda bolalarni aldadilar, kuchli bolalar kuchsiz va bechoraroq bolalarni urib, danaklarini tortib oldilar. Natijada yana urishish, ko'ylak yirtish va yuz tirnashlar boshlandi.

Bolalardan biri menga kelib yopishib:

– Sen ham biz bilan danak o'yna, bo'lmasa o'rta olib, seni «kallakobak» qilamiz, – dedi.

Mening danagim ham yo'q edi, danakbozlikni ham bilmas edim.

Lekin men «kallakobak»dan juda qo'rqqan edim; chunki bu juda yomon o'yin edi, bir necha bolalar bir bolani o'rta olib uning boshini yalang'ochlaydilar-da, tirnoqlarining uchi bilan, qizilishtonning daraxtni cho'qigani singari bolaning yalang'och boshiga uradilar.

Men qanday qilib «kallakobak» balosidan qutulish yo'lini topolmasdan tang qotdim.

Xayriyat xalfa meni quvvatlab:

– Uni o'z holiga qo'ya beringlar, – dedi, – uning otasi juda yomon odam.

Xalfaning otamni «yomon odam» degani mening ko'nglimga naqadar qattiq tekkan bo'lsa ham, uning bu so'zi bilan «kallakobak» azobidan qutulganim uchun undan minnatdor bo'ldim. Endi men uchun bu kabi balolardan qutulishga yaxshi bir yo'l topilgan edi, qachon bo'lmasin, bolalar menga tega ko'rsalar, men xalfaga qarab, dod solib:

– Yo bolalaringni yig'ishtirib ol, yo bo'lmasa, o'yinlaringzni otamga aytaman, – der edim.

Xalfa ham meni darhol bolalar changalidan qutqarib qo-
lay edi. Xalfa domlaning uzun tayog'ini olib, bolalarni bir
boshidan urib o'rinlariga o'tqazdi va danakbozlik janjalini
bartaraf qilgandan keyin:

Bolalar, endi navbat bedanabozlikka! – dedi... Ammo
bu o'yni bolalarning ko'pchiligi rag'bat ko'rsatishmadi,
chunki xalfa va Ahmaddan boshqa bolalarning bedanalari
yo'q edi.

Bizda bedana bo'lmasa, nima bilan o'ynaymiz? – de-
yishdi bolalar.

Xalfa bo'lsa buning ham ilojini topdi:

Bizning ikkalamiz bedanalarimizni urishtiramiz, sizlar
«bolagarov» bog'langlar! – dedi.

Durust, unday bo'lsa, biz uylarimizga borib pul yo da-
nak keltiraylik, – deyishdi bolalar.

Ma'qul! – dedi xalfa.

Bolalarning ko'pi ketdi, xalfa qolgan bolalar bilan titil-
gan bo'yralarni qaytadan joy-joyiga yoydilar, faqat hujra-
ning o'rtasidagi katta oxurning o'rta belidan bir narcha yerni
to'g'arak shaklida ochiq qoldirganlar...

Uylariga ketgan bolalar qaytib keldilar, bedanabozlik
boshlandi.

Xalfa Ahmad bilan orasi ochiq qoldirilgan davra teva-
lapida bir-birovlariga qarama-qarshi o'tirdilar, ularning
yonlarida boshqa bolalar ham davra qurib o'tirdilar. Davra
to'lgandan keyin qolgan bolalar ularning orqalarida tikka
turdilar.

Xalfa bilan uning qarshisida o'tirgan Ahmad qo'ynilaridan
bedanalarini chiqardilar, bedanalarining tumshuqlarini yala-
dilar, ularning oyoqlarini cho'zib qanotlariga tupuklarini suv
o'rnida surkadilar, qanotlarining taglarigacha ho'lladilar.
So'ngra xalfa Ahmadga qarab:

Mening necham bilan sening nechang? – dedi.

– Mening yigirmam bilan sening yigirmang! – deya Ahmad javob berdi.

– Mening o‘ttizim bilan sening o‘ttizing! – deb xalfa ortirdi.

Oxirda o‘yin «mening yuzim bilan sening yuzing»ga bo‘rib taqaldi. Bu shunday bo‘ladiki, kimning bedanasi qochsa, qochirgan bedananing egasiga yuz dona danak to‘laydi.

– Sizlar ham «bolagarov» bog‘langlar! – dedi xalfa boshqa bolalarga qarab.

Boshqa bolalar ba‘zilari xalfaning bedanasi ustidan «uning bedanasi zo‘r chiqishini bahslashib», ba‘zilari, «Ahmadning bedanasi zo‘rligiga» bahslashib, bir-birovlari bilan garov bog‘ladilar. Ularning ham har qaysilari o‘z hollaricha sening o‘ningga mening o‘nim, yo ortiqroq qilishib «bolagarov» qo‘yishdilar.

Garovlar bog‘lanib bo‘lgandan so‘ng, ikki bedana to‘garak ichida (ma‘rakada) bir-birovlari bilan urishtirildilar.

Ikkala bedana ham panjalarini yozib, patlarini hurpaytirib, bo‘yinlarini cho‘zib urishishga kirishdilar.

Birinchi bedana ikkinchisining bo‘ynidan tishlab tortar, ikkinchisi birinchisining qulog‘idan tishlab tepar, pixi bilan o‘z dushmanining ko‘zini tirnar, ikkinchisi unisining bo‘ynidan tutib yerga bosmoqchi bo‘lar edi...

Oz vaqtda bedanalarining boshlari va yuzlari o‘z qonlari bilan bo‘yaldp, ammo hech biri ham qochmadi.

Bedana egalari ularni ajratib oldilar va u yoq-bu yoqlarini qashidilar, bosh-oyoqlarini siladilar, qanot va tirnoqlarini ho‘lladilar, bedanalar bir oz dam olgandan keyin tag‘in urishga qo‘ydilar. Ular yana urisha ketdilar...

Shu singari bir necha bor urishgandan keyin Ahmadning bedanasi «churq» dedi-da, urishni tashlab davradan qochdi va xalfaning bedanasi uni davrani aylantirib quvlab ketdi.

Bolalar qiyg‘os chiqardilar: chapak, hushtak, jirtak chalishlar boshlandi...

IX

Hedana urishtirish orqasida qo'zg'algan shovqin-suron hali butgancha yo'q edi, kutilmaganda domla kirib keldi, domla uchun uylariga borgan bolalar hujraga kirganlarida, ehtiyotsizlik qilib hujra eshigini ichkarisidan zanjirlamagan bo'lsalar kerak, domla eshikni taqillatishga ehtiyoj sezmay, to'g'ri hujraga kira oldi.

Bolalar shu daraja o'yin-kulgi va shovqin-suron bilan o'ynaladilarki, domlaning o'z joyiga o'tib uzun tayoqni olib, boshlariga kaltaklaguncha uning kelishidan hech bir bola xabardor bo'lmagan edi.

Yolg'iz mengina o'yin to'polonidan chetroqda turib, bu ko'zimni o'yinning borishiga tikkanim holda, ikkinchi ko'zimni maktabxona eshigidan uzmagani edim, shuning uchun domlaning echki soqoli ko'rinishi bilan tez, lekin sekin-gina o'z joyimga o'tib o'tirdim...

Domla hamma bolalarni birday savagandan so'ng, menga qarab:

Sen aqlli bolasan! – dedi.

Bolalarning hammasi ham o'z o'rniga o'tirgan va tinchlanishgan edi. Xalfa domlaning qarshisiga keldi. U bu kun ham domla undan «gunohkorlarning» nomlarini so'rar, deb o'ylagan bo'lsa kerak, biroq uning o'yi yanglish chiqdi, domla undan hech narsa so'ramagani holda:

Darrov bor-da, hovuzdan tunovi kungi suvga tashlanib qo'yilgan tayoqlarni olib kel! Ular yaxshi namlanib, sizlarga odob berish uchun sozlangan bo'lsa kerak, – dedi.

Xalfa boshini qashiy-qashiy hujradan chiqdi, bolalarning rangi-qutlari o'chdi, a'zoyi badanlari tol bargiday titradi. Yolg'iz mengina domlaning «sen aqlli bolasan» degan so'zi bilan tinchlangan edim.

Xalfa tayoqlarni keltirdi-da, domlaning oldiga tashlatib. Domla ham hech bir so'roq va boshqasiz katta bolalarga qarab:

– Avval buning o'zini bosinglar! – deb xalfani ko'rsatib.

Bir necha katta bolalar o'rinlaridan iringib turib xalfaning yerga bosdilar va domlaning ikkinchi «buyrug'ini» kutib. Uning oyoqlariga o'radilar ham kaltaklarga boplab tutib turdilar. Uning oyog'ida esa, tunovi kuni kaltakning yaralari qatqoqlanib ko'rinib turar edi.

– Ur! – deb buyurdi domla.

Bolalarning biri hovuzdan keltirilgan tayoqlarning birini olib, u bilan xalfaning oyog'iga urdi, lekin tayoq bir urishda yo'q bo'lib ketib, uch bo'lak bo'lib tushdi. Bola ikkinchi tayoqni oldi, u ham birinchi urishda sindi; shu tariqada xalfaning oyog'iga ozor bermasdan tayoqlarning barisi sinib bitdilar.

Domla g'azablandi va singan tayoqlarning birini olib ko'zdan o'tkazdi:

– Men hovuzga tashlatgan tayoqlarning barisi tut, bir kecha-kunduz suvda yotgandan keyin qayishlanib, hech sinmaydigan bo'lar edi. Bu firibgar u tayoqlarni keltirmasdan, tolning quruq xipchinlarini sindirib olib, hovuzda ho'llab keltirgan, xolos, – dedi va bolalarning birisiga qarab:

– Bor, hovuzdan o'z tayoqlarimni olib kel! – dedi.

Bola ketdi, xalfa tinchsizlanmadi va ko'zlarini hujraning shipiga tikkan holda kulimsirab yotaverdi...

– Hovuzda tayoq yo'q! – dedi qaytib kelib bola.

– Ma'lum bo'ladi, – dedi domla, – bu tayoqlarni yashirgan. Xayr, mayli, bundan keyin tut yog'ochi o'rniga anor yog'ochi ishlatarman, anor tut yog'ochidan ham zaharliroqdir, lekin hozir uning bu qiligi uchun qanday o'ch olish yo'lini bilaman.

Domla devorga tirab qo'yilgan uzun tayoqni qo'lga olib:

– Yuzini yerga qilib chopon, ko'ylagini bo'yniga tortib bosinglar buni! – dedi bolalarga. Bolalar xalfaning oyog'i-

...biloqini chiqarib oldilar-da, uning yuzini yerga qilib, yalang'ochlab bosdilar va domla uzun tayog bilan yalang'och orqasiga ura boshladi...

Ammo musak va tizzalarini yerga tirab, belini ko'tarib turib xalfa, domla urgan chog'ida o'zini tervatar, qimirlatar va kuchsizlatar, pasaytar edi.

Qo'l ovoqlaridan tortib qorni bilan bosinglar! – dedi. Ammo ucha kaltaklayolmagan domla.

Ikki bola xalfaning ikki qo'lini, ikki bola uning ikki qo'lini cho'zib tortganlari holda, boshqa bir bola uning yelkasiga munib yerga bosdi va xalfa ixtiyorsiz:

Astaroq bosinglar! Bedana o'lmasin, – deb yubordi.

A! Buning bedanasi ham bormi? – dedi domla va qo'lini ucha qildi: – Bedanani olib menga beringlar! – dedi.

Bolalar xalfaning qo'yniga qo'l solib uning bedanasini oldilar-da, domlaga berdilar.

Domla o'ylamay-netmay jonivor bedananing boshini ucha uzib tashladi.

Xalfa:

Ahmadning ham bedanasi bor, uni nega o'ldirmaysiz?! – deb baqirdi yotgan joyidan.

Uning bedanasini ham topib bering! – dedi domla bolalarga.

Bolalar xalfani qo'yib, Ahmadga yopisha ketdilar. Xalfa ham o'rnidan irg'ib borib Ahmadga yopishib, uning, qo'yniga qo'l soldi-da, bedanasini olib domlaga berdi.

Domla Ahmadning bedanasini ham boshini uzib tashlagandan keyin:

Bu kun yo'qoling, ozod! Erta yana uramiz, – dedi va:

Ha, aytganday, erta payshanbalik nonini unutmagaysizlar tag'in! – dedi. Bolalar bir-birovlarini bosib, qisib, turtisha-turtisha maktabdan chiqdilar.

Ammo bu kun umum salomdan keyin darrov tarqalib ketmadilar va ko'chada turib bedana o'yinida bo'lgan yutuq, yutqazishlarning hisobiga kirishdilar. Yutganlar yutqazganlardan haq talab qildilar. Ammo yutqazganlar:

– Bedanalar o'ldirildilar, ularni urishlari, garovlari va bolagarovlari ham oradan yo'qoldi, – deb haq berishga g'irromlik qilar edilar.

Bolalarning hammalari bir-birovlari bilan yoqalasha boshladilar. Xalfa bilan Ahmad bo'lsa, o'z choponlarini yechib bir tomonga qo'ydilar-da, jiddiy urishishga kirishdilar. Men hovlimizga qochib jo'nadim.

X

Men maktabga qatnab yurar edim, maktabning shov qin-suroni, g'avg'osi davom etar edi. Men bir necha hafta orasida, o'shancha shovqin-suron, urish-talash ichida bo'lsam ham arab alifbesining nomlarini yodlab oldim. Menga ba'zandomlarning o'zi va ba'zida xalfa saboq berar edi.

Arab alifbesining nomlarini yodlaganimdan keyin «zer-zabar» (ost-ust) darslari boshlandi. Men uchun «zer-zabar» darslari, harflarning nomlarini o'qiganimga ko'ra yoqimliroq tuyular edi. Bu darsda avvalo menga: «Alif zabar a, zer ye, pesh, u», deb o'rgatdilar. Men ham bor tovush bilan cho'zib:

– «Alif zabar a, zer ye, pesh u», – deya takror qilar edim. Bu so'zlarni aytish mening tilim uchun o'ng'ay, qulog'imga muzikali bo'lib kirar va yoqimli edi.

Bu darsni ham arab alifbesining oxirigacha yodladim, bundan keyin ikki zabar, ikki zer, ikki pesh darsining navbati keldi.

Bu darsda menga «alif du zabar, andu du zer indu du peshun»larni o'rgatar edilar.

Bu dars ham ohang jihatdan yomon emas edi, hatto bu «alif zabar a...» darsiga ko'ra ohangdorroq edi. Agar «bir za-

Im, bu zer, bir pesh» darsida «alif zabar a, zer ye, pesh u» deyish biron musiqa havasini boshlang'ichi sanalsa, bu darsdagi «alif du zabar andu, du zer indu, du pesh un», deyish u havoning «tushirma» taronasi hisoblansa bo'lar edi.

Lekin men bu saboqlarni ashula aytganday cho'zib, zavq va shavq bilan takrorlaganim holda, bulardan hech bir narsa tushunmas, savod chiqarish uchun bularning qanday aloqasi va kerakligi borligini bilmas edim. Endi o'ylaymanki, menga «mullimlik qilgan va saboq bergan» domlanning o'zi ham bu darslarning savod chiqarish uchun qanday aloqalari borligini bilmas va tushunmas ekan. Aks holda, u menga «alif du, zabar andu, du zer indu...» deb, bu yerda hech daxli bo'lmagan «do» harfining sadosini qo'shib o'rgatmas edi.

Shunday qilib, qancha azob bilan bo'lsa ham men bu saboqni arab alifbesining oxirigacha yodladim.

Bu darslarning har birida mening «ta'lim taxtacham» o'zgarar edi, lekin domla ularni boshqa bolalarga qilgani kabi menga o'zi yozib bermas va buni:

Otang ta'nachi, injiq odam, u men yozgan narsalarni xushlamaydi, ayt, o'zi yozib bersin, – deb, otamga havola qilur edi...

Men yil oxirida «Abjad» darsiga kirdim. Bu dars esa menga hech yoqmasdi. Menga:

«Alif bo, bi zabar ab, jim bo dol zabar jad, abjad de-pin», – deb o'rgatar edilar.

Bir tomondan, bu so'zlarni aytish qiyin bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu dars ohangsiz va ko'ngilga yoqmas edi.

Bir kun otam menga:

– Endi sen abjadxon bo'libsan, men senga abjad hisobini o'rgataman, – dedi. Abjad yozilgan taxtachani oldimga qo'ydi va taxtachadagi naqshlarni bitta-bitta menga ko'rsatib:

– Bu nima, bu nima?.. – deb so'ray boshladi.

Men otamning so'raganlariga javob berolmasdim, negaki, men bu naqshlarning nima ekanliklarini bilmas edim va

shu kungacha biron kishi ularning nima ekanliklarini menga ko'rsatib o'rgatmagan edi.

– Sen shu kunlar maktabda nima o'qib yotibsan axir? – deb otam menga jahllandi.

– Alif bo, be zabar b, jim bo dol, zabar jad, abjad... – dedim va abjad darsdan olgan saboqlarimni yoddan aytib berdim.

– Ha... sen to'tiqushsan, – dedi otam, – sen bir narsani aytasan, lekin nima deganingni o'zing bilmaysan.

Otam mening jildimning ichini axtarib, undan «alif be, zer zabar...» yozilgan ikki taxtachani topib oldi va ularning har biridagi yozuvni menga birma-bir ko'rsatib:

– Bu nima, bu nima? – deb so'radi.

«Buni o'qi» deganida, taxtaga qaramasdan, unga yozilgan narsalarni yodaki aytib berar edim.

– Sen to'tiqushsan, – dedi otam takroran, – ayb senda emas, ayb sening domlang va xalfangda, ular senga saboqni to'tiqushga o'rgatganday yodlatganlar xolos, ammo hech bir narsani o'rgatmaganlar yoki o'rgata olmaganlar.

Otam manglayini qashib, bir oz jim turdi.

– U-ku savodsiz, ko'r bir odam edi, men ko'rdan ko'rar ko'z talab qilibman. To'g'ridan ham o'zim ahmoq ekanman.

Otam yana o'ylanib bir oz jim turgandan keyin, menga qarab:

– Sen ertaga maktabga bormagin! – dedi.

Men bo'lsam behad quvondim, chunki abjad darsi ko'nglimga urgan, bundan yuragim bezgan edi.

XI

Otam bir kun xatibni ko'rib:

– «Mening o'g'limni xotiningizda o'qiydigan qiz bolalar oldiga qabul qilishingizni so'rayman», – dedi. Xatib:

– Halvoyini ko'proq bersangiz mayli, – dedi.

Men bu gapni eshitib, xalfaning «xar murd» qildiruvi qoʻrqusidan butunlay qutulganim uchun terimga sigʻmas darajada sevindim.

Ertasi kuni, onam meni otinbibi maktabiga olib bordi.

Dasturxon uchun bir laʼli barkash mayiz va kulcha, uning ustiga, menga niyat bilan tikib qoʻyilgan bir roʻmol va doʻppi ham qoʻyildi.

Otinbibi oq yuzli, qorni katta, semiz, oʻrta yoshli bir xotin edi, uning semizligi shu qadar ediki, chordana qurib oʻtirganida uning tizzalari otam tomonidan yoʻniladigan tegimon charxining gupchagiday boʻlib koʻrinar edi.

Biz otinbibi oldiga kirganimizda, u uyning toʻrida bir necha qavat koʻrpacha ustida chordana qurib oʻtirar edi, uning tevaragida esa katta-kichik qiz bolalar kigiz ustida choʻkkalab oʻtirar edilar. Ularning oldilariga oʻgʻil bolalar oʻqiydigan maktabdagi tagsinch oʻrnida yostiqlar ikki qavat bukib qoʻyilgan edi. Ular oʻz kitoblarini shu yostiqlar ustiga qoʻyib oʻqir edilar.

Otinbibi onamni ochiq yuz bilan qabul qildi:

Oʻgʻlingizni (xatib domlaga eringiz tomonidan vaʼda qilingan katta halvoyi uchun) qabul qilishga majbur boʻldik, — dedi va qoʻshimcha qildi: — Har qachon oʻgʻlingiz «tabbat»³ga oʻtsa, bir tovoq shirguruch pishirib keltirishni unutmaysiz, chunki «tabbatga tovoq» degan.

Xudo oʻsha kunga yetkazsa, siz uchun bir tovoq palov keltiraman, — dedi onam unga javoban.

Otin bibi dasturxonni ochib non ushatdi va qizlarga ham mening «halvoyim»dan non berdi. Ammo domla singari nonni ushatib ularning oldilariga otmay, oʻz xalfasi boʻlgan kattaroq bir qiz bolaga nonni berdi va uni oʻquvchi bolalarga boʻlib berishni buyurdi, bu qiz esa har bir talabaning qoʻliga bir burdadan non berdi-da, kattaroq parchani oʻziga qoldirdi.

³Tabbat — qurʼon suralaridan biri. Sura — boʻlakcha.

Dasturxonga fotiha o'qigach, otin bibi menga bismill
auzibillo aytirib saboq boshlatdi. Shu bilan mening ikkinch
dars boshlash marosimim bitdi. Onam ketdi, men bo'lsam
qizlar maktabida qiz bolalar orasida qoldim.

Otin bibi menga abjadning o'rtasidan saboq berdi, u ber
gan saboqni men machitdagi maktabda o'qigan edim.

Otin bibining dars berish usuli domlanikiga qaraganda bi
oz boshqacharoq edi, u qarandash-qalamday bir cho'pchan
qo'liga olib, uning uchi bilan har bir harfni ko'rsatar, buning
nomini ayttirar edi. Lekin otin bibi ham mening u harfni ta
nish-tanimasligim bilan ishi yo'q edi.

Otin bibi o'zining butun vaqtini saboq beruvga sarf etar,
har bir bolani navbat bilan o'z oldiga chaqirib dars berar va
bu bilan bir kunlik o'qish o'tar edi.

Otin bibining bir kunlik dars vaqti ertangi nonushtadan
boshlab, to soat o'n ikkigacha edi, u, bolalarni machitdagi
domladay ertadan kechgacha qamab qo'yib zeriktirmas edi.
Uning shogirdlari erta bilan nonushtani o'z uylarida yegan
laridan keyin maktabga kelardilar, saboq olish va olingan sa
boqni o'qish bilan shug'ullanar edilar.

Soat o'n ikki bo'lganda otin bibi bolalarni nonxo'rakka
chiqarar edi. Ammo bolalar non yeyish uchun uylariga bor
mas edilar, balki o'zlari olib keltirgan nonlarini shu yerda yer
edilar. Nonxo'rak boshlaganda har bir bola otin bibiga o'z
nonining yarmini berar edi.

Bu qoidadan xabarsiz bo'lganim uchun men, birinchi kun
maktabga non olib bormagandim. Bir qiz tomonidan beril
gan nonni otin bibi menga berib:

-- Bu kun seni men ziyofat qilay, erta esa, sen nonni
ko'proq keltirib meni ko'proq non bilan ziyofat qilarsan, --
dedi.

Nonxo'rakdan keyin shogirdlar, otin bibining uyi va hov
li yuzlarini toza qilib supurib berar edilar.

Ba'zi kunlarda otin bibi qizlarga kir ham yuvdirar edi. Hatto men ham kir yuvishga undab:

Kir yuvishni o'rganib ol, katta bo'lib o'qish uchun Buxoro madrasalariga borganingda, senga kerak bo'lajak, — der edi.

Otin bibi ham avvalgi domla singari bir necha uzun, qisqa tayoqlarni o'z orqasiga, devorga tirab qo'ygan edi. Lekin bu tayoqlar bilan otinbibining birorta o'quvchini urganini ko'rmadim. Agar biror qiz maktab «odobi»ga qarshi biror sho'xlik qilsa yoki saboqni o'rganishga harakat qilmasa, otinbibi uning betiga o'zining yengi bilan bir marta urar edi. Otinbibi kiyadigan ko'ylagining yengi, o'sha zamon-dagi Buxoro xotinlarining yengi kabi keng va uzun bo'lsa ham, oq surp yoki nozik chitdan tikilgan bo'lganidan, uning zarbasi zaif bir shamolning zarbasidan ortiq ta'sir qilmas edi.

Mendan boshqa butun o'quvchilarning hammasi qizlar bo'lganidan ular sho'xlik qilmas, yomon o'yinlar o'ynamas va bir-birlarini urmas edilar. Agar nonxo'rakdan keyin uy su-purish yoki kir yuvish oralarida fursat topsalar, qo'g'irchoq o'ynardilar. Ularning o'yinchoqlarni o'z mahsulotlari bo'lgan qo'g'irchoqlar bo'lib, mening uchun ham «o'g'ilcha» qo'g'irchoq yasab berishdi.

Ular, singan sopollardan «qozon», «tovoq» yasab to'y qilishar, mening qo'g'irchog'imni o'z qo'g'irchoqlariga kuyov qilar edilar. Mening qo'g'irchog'imdan bo'lak «er qo'g'irchoq» bo'lmagani uchun uning yolg'iz o'ziga o'n-o'n ikki nafar «qiz» qo'g'irchoq kuyovga chiqar edi. To'g'risi, o'sha vaqtlarda shu o'yin menga juda yoqar edi.

Ba'zi qizlar besh-o'ntalari bir erga chiqayotgan o'z qo'g'irchoqlarini bir-birovlari bilan urishtirar edilar. «Kundoshlar» urishidan zerikkan mening qo'g'irchog'imni, ularning ba'zilarini qo'yishga (taloq qilishga) majbur qilar edi-

lar. Bu hollardan mening ko'nglim bir oz qoralanar, xafa bo'lar edim.

Keyinroq bizning maktabga yana bir o'g'il bola kelib kirdi, biroq u «kuyovlik sharafiga» yetisha olmadi. U bir qadar dag'alroq bo'lganidan bo'lsa kerak, qizlar unga qo'g'irchoq yasab bermadilar (ajoyib sarguzashtlarni boshidan kechirgan bu bola hikoyasini boshqa bir vaqtda yozarman).

XII

Men otin bibi maktabiga davom qilar edim, «Haftiyak»ni⁴ tamom qildim, uning bir necha qisqa suralarini yodladim, qur'onni ham boshdan oxirigacha o'qib chiqdim. Xo'ja Hofiz devonidan ham birmuncha o'qidim. Ammo hali ham otin bibi tomonidan o'qilgan narsalardan bo'lak joylarini hech o'qiyolmas edim. Masalan, Hofiz devonidan maktabda o'qib o'tganim bir g'azalni qaerda va kimning qo'lyozmasi bo'lsa bo'lsin o'qiy olar edim, ammo maktabda o'qimaganim biron baytni hatto kitobimda bo'lsa ham, o'qiy olmas edim, ya'ni hali ham savodim chiqmagan edi. Xat yozish bo'lsa, hech qo'limdan kelmas, biror harfni ham yozolmas edim.

Lekin abjadni yaxshigina o'rgandim, abjad rasmiy xat bilan yozilgan bo'lgani uchun qur'onni ham sekin-sekin, shuningdek abjad rasmiy xati bilan, ya'ni nasx xati bilan yozilgan har bir narsani ham turtilib bo'lsa-da, o'qiy olar edim.

Endi o'ylaymanki, buning sababi quyidagicha ekan:

Otam meni otin bibi maktabiga qo'ygan bo'lsa-da, uning o'zi menga abjad hisobini o'rgatishdan to'xtagani yo'q edi. U deyarli har kecha shomdan xuftonga qadar, ya'ni taxminan bir soat men bilan shug'ullanar edi.

Dastlab menga «abjad» so'zidan «A», «B», «J», «D» harflarini tanitdi, so'ngra bu harflarni bir-birlariga urishtirib

⁴ Haftiyak – qur'onning qisqaroq suralardan to'plangan yettidan bir bo'lagi.

va qanday o'qish yo'lini o'rgatdi, undan keyin «A» – bir, «B» – ikki, «J» – uch, «D» – to'rt deb bularning hisobini tushuntirdi... Shu yo'l bilan otam abjadni oxirigacha uning hisobi bilan birga o'rgatib chiqdi.

Shunday qilib, bir oyda men abjad harflarini o'rgandim va o'qiydirgan bo'ldim, avval bir-bir orttirib o'ngacha, so'ngra o'n-o'n orttirib yuzgacha, undan keyin yuz-yuz orttirib minggacha chiqadigan abjad hisobini ham o'rgandim.

Bularni o'rganib bo'lganimdan keyin otam menga:

Endi senga qiziq bir narsani o'rgataman, bu to'qqiz raqam va sifr (nol) dirki, uni hind hakimlari topib chiqarganlar. Bu to'qqiz raqam va sifr, ya'ni o'n shakl bilan butun dunyoni hisoblash, bu raqamlarga jamlash mumkin, – dedi.

Men «bu qanday sehrli bir ish ekan», deb unga havas qildim.

«O'n shakl bilan butun dunyoning narsalarini hisoblash, haqiqatan ham, o'rganarli bir ilm. Mening-ku, o'n barmog'im bor, men, axir, bular bilan hatto haftaning kunlarini yanglicha yanglicha zo'rg'a sanab chiqaman...»

Men otamdan bu jodugarlarcha bo'lgan o'n shaklni tezroq o'rgatishini qat'iy ravishda talab qildim.

Otam o'rgatishni boshladi, avval menga to'qqiz raqammi bir-bir yozib ko'rsatdi. Har kun bir raqamni tanitar, uning nechaligini o'rgatar edi. So'ngra sifr (nol)ni o'rgatdi. Undan keyin bir nol bilan «bir»ning «o'n» bo'lishini o'rgatdi va shu yo'l bilan to'qqiz raqamni nol bilan qo'shib anglatdi.

Bu dars menga u qadar qiyin bo'lmadi, negaki, men abjad hisobida sanoqlarning qanday qilib bir-bir, o'n-o'n, yuz-yuz ortganlarini ko'rib o'tgan edim.

Bularni o'rganib bo'lganimdan keyin otam menga:

– Sen bizning qishloqdagi kishilarning bilmagan narsalarini bilding, abjad hisobini bo'lsa, hatto sening ilgarigi domlang bo'lgan qishloq domlasi ham bilmaydi, – dedi.

Men, bu kabi nodir ilmlarni o'rganish bilan faxrlan-
edim.

Bu orada bir voqea yuz berdiki, abjad hisobi haqiqat-
ham mening faxrlanishimga sabab bo'ldi. Voqeya shu
vishda yuz berdi:

Bizning mozorda yangi yil (navro'z) sayili bo'ldi. U
sayilga qo'shni qishloqning aholisi ham yig'ildi. Sayil-
kurash boshlandi, to'plangan xalq ikkiga bo'linib, tarafdin
taraf bo'ldilar. Mening otam ma'rakaning ichidagi o'z ta-
raflarimizning eng oldida o'tirgan va meni ham o'z yoniga
o'tqazgan edi.

Har ikki tomondan polvonlar chiqib bir-birovlari bilan
kurashar, kuchsizlarini yiqitar edilar. Shunday qilib, birin-
chi vaqtlar bizning qishloqliklar g'olib chiqdi, biznikilardan
hech kim yiqilmas edi.

Bu orada bizning qishloqqa qarshi bo'lgan tarafdin, Bu-
xoroda ilm tahsil qiladigan bir mullavachcha, o'zlari taraf-
dan birovni yiqitgan bizning bir yigitga talabgor bo'lib chiq-
di. Bizning yigitimiz ham u bilan kurashmoqchi bo'lib, yana
davraga chiqdi. Kurash boshlandi.

Bir oz tortishuv va yoqalashuvdan keyin bizning yigiti-
miz yiqildi.

Bu yiqilishdan so'ng bizning tomondan yana bir yigit shu
yiqitgan mullavachchaga talabgor bo'lib o'rtaga chiqdi.

Bu yigit mullaga o'zidan ko'ra kuchliroq ko'ringan bo'lsa
kerakki, u:

– Men bu yigit bilan kurashmayman, – dedi.

– Nega bu bilan kurashmaysiz? – deb qichqirishdi biz-
ning tomonliklar.

– Shuning uchunki u, chapani, men mulla, chapani mulla
bilan kurashganda ulamoni tahqir qilgan bo'ladi, – deb javob
berdi mullavachcha.

Otam mullavachchadan bu javobni eshitgandan keyin,
meni yonboshiga olgani holda o'rnidan irg'ib turdi va ku-

...maydonning o'rtasiga borib mullavachchani o'z oldiga
...di.

Mullavachcha o'rnidan turdi-da, otamning oldiga kelib:

Nima deysiz? – dedi.

Siz mullami, polvonmi? – deb so'radi mullavachcha-

dan.

Men polvon-mulla! – dedi u.

Agar mulla bo'lsangiz, – dedi otam, – mening sakkiz
yashar shu o'g'lim bilan, uning yoshi va gavdasiga qaramas-
dan, munozara qiling. Xalq sizning mullaligingizni ko'rsin,
agar polvon bo'lsangiz o'zingizning tengdoshingiz bo'lgan,
gavdan ham sizning gavdangizdan katta bo'lmagan anovi
yigit bilan kurashing, xalq qaysi birovigizning zo'r ekanli-
gigizni bilsin.

Otam u mullavachchadan hech bir javob eshitmagandan
keyin

Keling, avval boshlab sizning mullaligingizni sinab
ko'raylik, dedi va menga qarab: – Bu mulladan abjad hiso-
buldan biror narsa so'ra, o'g'lim! – deb buyurdi.

Men ham hech bir o'ylamasdan:

«I» nechadir? – deb mulladan so'radim.

Hunga mullavachcha javob berolmagandan so'ng, otam
mendani so'radi:

O'zing ayt «T» nechadir?

To'rt yuz, – dedim men.

Shunday qilib, otam bir necha harflarni bir-bir atab, haligi
mullavachchadan «bu nechadir, bu nechadir?» deb so'radi, u
javob berolmagandan so'ng, uning javobini mendan so'rar...
va men javob qaytarar edim.

Bizning tomonliklar, mullavachchani «uyat, uyat...» deya
maxaraladilar. U uyaldi, qizardi, bo'zardi. Undan so'ng
otam unga:

Endi sizning mullaligingiz bitdi, sob bo'ldi, siz ham bir
chapani kabi shu yigit bilan kurash tusha bering! – dedi.

Mullavachchaning haligi bizning tomonning yigiti bilan kurashuvdan boshqa chorasi qolmagan edi. Mullavachcha bilan bizning yigit kurashga tushdilar, biroq kurash tushishgan hamon mullavachcha gumburlab yiqildi.

Tomoshabinlar o'rtasida guvillagan shovqin ko'tarildi, xalq hayqirib o'rnidan qo'zg'aldi. Xalq botirlarcha qadam tashlab ma'rakani aylanib yurgan g'olib yigitni qo'llariga ko'tarishib, havoga otar va ilib olishar edi.

Shu bilan kurash tugadi. Bizning tomonning yigitlari otamga:

– U mullani haqiqatda sizning o'g'lingiz yiqitdi, negaki, u munozarada mulzam bo'lib, uyalgani orqasida o'z kuchini to'plab kurashga berolmadi, – deyishdi.

Ularning bu so'zidan g'ururim tobora ortar, xayolimdan «haqiqatan ham men nodir ilmlarni o'rgangan ekanman», deb faxrlanar edim. Ammo haqiqatda esa, hali ham xat-savodim chiqmagan edi.

YETIM

BIRINCHI QISM

I

1921 yilning fevral oylari edi. Amudaryo qirg'oqlaridagi doydinaxtsiz taqir dashtu sahrolar o'lik biyobon manzarasini namoyon etardi. Janubdan uvillab esayotgan afg'on shamoligina bu jonsiz biyobonni talvasali harakatga keltirgandi. Ushbu shamol natijasida ko'tarilgan chang-to'zon to'foni qo'yosh yuzini qora bulutdek qoplab olar, kunduzi bo'lsa-da, muddi qorong'i kechadek bu keng biyobonda kishi hech narsani ko'ra olmas edi.

Hali o'n ikki yoshga to'lmagan Yetim to'fon boshlanishi bilan oq boyning qo'ylarini hovuzga o'xshash yerto'la qo'ng'a kiritib, kiraverishda qorovullik qilib turardi. Bola ko'zi va og'zini chang-qumdan ehtiyot qilish uchun qo'llari bilan ko'zini bekitib olib, yerga qarab yotardi...

Shamol to'xtaganicha ham yo'q edi, qor aralash yomg'ir yog'a boshladi. Bolaning yupqa va ilma-teshik ust-boshidan yomg'ir tomchilari o'tib, olovda qizitilgan bigiz kabi badaniga sanchilardi. Bola bu azobga bardosh berolmay, boshini ko'tarib o'tirdi, yomg'ir yog'ib, chang to'foni bosilgach, dashtning bir chetidan qo'y-echki podalari, qoramol va ot to'ldan ko'rindi. Hayvonlar shimoldan janubga – Amudaryo soluliga tomon yugurishardi.

Qo'radagi qo'ylar qochib kelayotgan mollarning sharpasini eshitib bezovtalanib, qo'zg'ala boshladilar. Bola qo'rqdi, uning sovuqdan qizigan badanini qo'rquvdan titroq bosdi. «Agar menga topshirilgan qo'ylar bo'ronga uchrab qochib kelayotgan bu qo'ylarga qo'shilib ketsa, xo'jayin meni

o'ldirmay qo'ymaydi» der edi bola o'z-o'ziga. U qo'raning eshigiga har xil shox-shabba va shuvoq bosib, mahkam berkitdi-da, uchi egri govronini qo'lga olib, qo'raning atrofini qo'riqlay boshladi...

Qochib kelayotgan qoramollar qo'raning ikki yonidan o'tib keta berdi. Hurkib qo'radan hatlab chiqib ketmoqchi bo'lgan qo'ylarni bola govron bilan urib, yana qo'raga qaytarardi. Qo'y va mollar galasi o'tib ketgach, orqadan yigirma besh-o'ttiz chamasi otliq ko'rindi. Qo'raga yetib kelgan otliqlardan biri otidan tushdi-da, qo'ra eshigidagi xashak va shuvoqlarni bir chekkaga irg'itib, qo'ylarning chiqib ketishiga yo'l ochdi. Bu holni ko'rgan bola:

– Hoy amaki, nima qilyapsiz, nega qo'ylarimni chiqarib yuboryapsiz? Agar bulardan birontasi yo'qolsa, boy meni o'ldirmay qo'ymaydi, – dedi.

– Janobi oliy, – dedi u, – bolsheviklardan qochib daryodan o'tib ketdilar, boylar ham u kishining ortidan borib uy-laridagi chorvalar va mol-mulklarini olib daryodan o'tib ketishdi, biz bo'lsak yaylovda qolgan mollarni yig'ib yuribmiz, sening qo'ylaringni ham boshqa mollar qatorida daryodan o'tkazamiz. Sen nimaga qo'rqasan?

Qo'ylar qo'radan chiqib boshqa mollarga qo'shilib ketgach, otliq yana otiga minib poda ortidan yo'lga tushdi.

– Onam nima bo'ldi ekan? Voy onajonim! U boyning qo'lida edi. Qaerda qolding, onajonginam! – deb yig'lay boshladi bola.

– Onang ham daryodan o'tib ketdi, – dedi bola oldiga yetib kelgan boshqa bir otliq.

Bola otliq tomon o'girilib, uni tanidi. U xo'jayinining qaynisi Shoqul edi. Bola onasining daryodan o'tib ketganiga shubhalanmadi. U onasiga yetib olish niyatida mollarni daryo sohili tomon haydab borayotgan kishilar izidan yiqilatura yo'lga tushdi.

II

Amudaryo bo'yidagi qishloqlarning birida Eshonqul degan bu boy bo'lar edi. U katta yer-suvga ega bo'lib, dehqonchilikda juda ko'p yetim batraklarni ishlatga ham, boylikning asosini chorvachilik tashkil qilardi.

Boyning yetimlari qatorida Murod nomli bir kishi ham bo'lib, u cho'ponlik qilardi. Yoshi qirqqa yaqinlashgan bo'lsa ham, hali uylanmagan, to'g'rirog'i, uylana olmagan, uylanish uchun sarflanadigan pulni topa olmasdi. Yigirma yildan beri boy dargohida ishlab kelayotgan bo'lsa ham, xizmat haqidan hech narsa orttira olmagan, har yili boy tomonidan beriladigan xizmat haqi esa, buvisi Fotimabibi va otasi o'lgandan keyin kampirning qo'liga qarab qolgan nevarasi Soralarning kundalik ovqatiga goh yetar, goh yetmasdi. Fotimabibi ham nevarasi Murodning bu yaxshiliklarini oqibat-siz qoldirmadi: nevarasi Sorani qalin evaziga sotib olmoqchi bo'lgan boylarga bermay, bir kosa suv bilan Murodga nikohlab berdi, uni ichkuyov qilib oldi...

Uylanganidan keyin Murod gohi-gohida uyiga kelib tumanab qolar, kun chiqmasdanoq erta azonda turib xo'jayinning xizmatiga jo'nab ketardi...

Murod uylangandan keyin bir yil o'tar-o'tmas Fotimabibi qazo qildi. Murod buvisining vafoti xabarini dashtda boyning qo'ylarini boqib yurganida eshitdi. Ammo u darhol ta'ziyaga jo'nay olmasdi. Buvisining o'limi xabarini olib kelgan kishidan bu xabarni xo'jayinga ham yetkazish va undan iltimos qilib, qo'ylarga qarab turish uchun yaylovga biror kishini yuborishni o'tinib so'radi. Ammo kechgacha hech kim kelmasdi. Murod nochor qo'ylarni boyning uyi tomon haydadi va kun botishidan bir oz oldin, ya'ni kundalik vaqtdan bir soat ertaroq qaytib keldi.

– Nega qo'ylarni bunchalik erta olib qaytding? – dedi, machitga – asr namoziga chiqib ketayotgan Eshonqulboy.

– Buvimning olamdan o'tganini sizga xabar qilishmimi? – deb so'radi Murod.

– Xabar qilishdi, xo'sh, nima bo'пти, bir kampir o'libdi-da, sen ertaroq borganing bilan u tirilarmidi? Yoki buving bilan birga qo'ylarimni ham ochdan o'ldirmoqchimisani? – dedi boy darg'azab bo'lib. – Har bir qo'yim seni o'nta buvingdan ham azizroq menga, – ilova qildi boy.

Murod boyning bu gaplariga hech nima demadi. Ammo qo'ylarni hovliga kiritayotib:

– Qo'ylaring u yoqda tursin, senga o'xshagan boyni mahuma buvimning bir tola mo'yiga ham olmayman, – deb g'o'ldirab qo'ydi.

Qo'ylarni hovliga kiritgach, odatda har kuni kechqurun boyning uyidan ichadigan yovg'onini ham ichmay, buvisining qishlog'iga yugurdi...

Fotimabibini dafn etib, uning bozor oqshomini o'tkazib olgach, Murod bu qishloqdan tamoman ko'chmoqchi bo'ldi, chunki yosh xotinini uzoq qishloqda qoldirib, o'zi xo'jayin uyiga ketishga ko'ngli bo'lmadi. Xotinidan ko'ngli to'q bo'lsa ham, sayoq kishilardan qo'rqardi. Buvisidan qolgan paloslarni yig'ishtirib, xotini bilan boyning qishlog'iga keldi va qishloq chekkasida egasiz qolgan bir vayrona kulbaning mayda-chuyda loy suvog'ini qilib tuzatib, ko'ch-ko'roni va xotinini shu yerga joyladi, o'zi oldingidek boyning xizmatini qilib yura berdi.

* * *

Boy yetimning yosh xotinini ko'rish ishtiyoqida bir kun Murodga:

– Xotining mening kelinim hisoblanadi, kelin chaqirdi qilishimiz lozim, ertaga uyga olib kel, mehmon qilaylik, – dedi.

Ertasi kuni Murod xotinini xo'jayinning uyida qoldirib, qo'ylarni dalaga haydab ketdi.

Boyning xotinlari Sorani uyga olib kirib, ziyofat qilish-
ga. Bu uy boyning kichik xotininiki bo'lsa ham, uy egasidan
katta boyning katta xotini mehmonga ko'proq izzat-ikrom
bilan kutilardi: eng yaxshi va eng lazzatli taomlarni meh-
mon olib kelib qo'yib, yeyishga undar, lahm go'sht uzatar,
tutkai non yuziga qoqib, oldiga qo'yar, sovub qolgan choyni
piyolaga to'kib, issiq choy quyib uzatardi.

Lekin Xo'jayinning xotini qilayotgan bu xushomadgo'ylik,
ehtimol, Eshonqulboyning katta xotini yo'qotmas, kattalarga xos vaz-
matilik bilan go'yo boyning yangi tushirgan kelinidek boshi-
ni quyib olib o'tirardi. Lekin shunga qaramay, yangi kelinlar-
ga o'xshash uy egasi oldida o'zini xor tutmas, ularga hadeb
o'rnidan turib salom qilavermasdi. U juda kam ovqat yer-
di. Xo'jayinning xotini uzatgan go'shtni ehtirom bilan olib,
haddi salkitib minnatdorlik bildirar, uni yemay non ustiga
qo'yar, qoqib berilgan ilikka esa aqalli qo'l ham tegizmasdi.
Xo'jayinning xotini sovib qolgan choyni uch marta yangi-
lab uzatgan bo'lsa ham, Sora piyolaga biron marta ham lab
tegizmadi, kosadagi sovuq suvdan bir-ikki qultum ho'pladi,
xolos. Dasturxonga fотиha o'qilganda:

Hamdam, Hamdam! – degan ovoz eshitildi.

Bu Eshonqulboyning ovozi edi. Xotinlari Sorani meh-
mon qilayotganda boy katta xotinining uyida o'g'ilchasi bi-
lan osh yemoqda edi.

Katta xotini boyning ovozi eshitishi bilan:

Labbay, hozir! – deb o'rnidan irg'ib turib, erining oldi-
ga yugurdi.

Ehtimol, kitobxon «boyning katta xotinining ismi Ham-
dam ekan, shuning uchun u bu so'zni eshitishi bilan yugu-
rib ketdi», deb o'ylar. Yo'q, uning ismi Hamdam emas edi.
U vaqtlarda xotinlarni hech kim, shu jumladan, eri ham o'z
nomi bilai chaqirmasdi. Chunki, xotinning yuzini yashir-
ganlaridek, nomini ham pinhon tutish lozim, deb bilardilar.

Nomi bilan chaqirganda ehtimol, biron nomahramning log'iga yetib qolar, deb ehtiyot qilishardi. Devor, hatto ham xotinga nomahram va begona deb bilar, shuning uchun hatto uyda ham xotinni o'z nomi bilan chaqirmasdilar.

Xotin kishining nomi umr bo'yi ikki marta tilga olinardi. U ham bo'lsa domla-imomlar tomonidan: birinchi marta erga berilayotgan vaqtda – nikoh kechasida; ikkinchi marta o'lganida uning gunohlarini sadaqa badaliga sotish paytida tilga olinardi.

Boyning katta xotinidan tug'ilgan o'g'lining nomi Hamdam bo'lib, u go'dakligida o'lib ketgan bo'lsa ham, katta xotinini shu nom bilan chaqirardi. Kichik xotiniga uylangandan keyin uni katta xotinidan farqlash uchun «Hamdamcha» deb ataydigan bo'ldi. Kichik xotinidan bir o'g'il ko'rib, unga Istam deb nom bergandan keyin, endi kichik xotinini «Istam» deb chaqiradigan bo'ldi.

Qo'lida bir g'o'rasha novvot bilan boy oldidan chiqib kelga «Hamdam» – katta xotini, novvotni choynakka solatib Soraga:

– Amakingiz shu kungacha hech birimizga novvotlaridan bermagandilar, bu bir g'o'rashani berib: «Kelinga novvot choy qilib ber, undan so'ng yuz ko'rish uchun olib kel», dedilar, – dedi.

Sora bu g'oyibona «marhamat»ga javoban hech nima demadi, yuzi va avzoyida o'zgarish sezilmadi: na hursandlik va na xafalik alomati ko'rinmadi. Lekin boyning kichik xotinining turqi o'zgarib ketdi, u o'z kundoshiga yer ostidan o'qrayib qarardi. Katta xotin bo'lsa o'zini nodonlikka solib, novvot choyni qaytarib-qaytarib ikki piyolaga quydi-da, birini Soraga uzatdi, ikkinchisini kundoshining oldiga qo'ydi.

– Men novvot choy ichmayman, – dedi kichik xotin qizishib, – kelinga beravering! Novvotni amakilari u kishiga yuborgan.

... ichmaydigan bo'lsangiz, men icha qolay, – deb katta piyolani kundoshi oldidan oldi-da:

Amakilari kelinga yuborgan bo'lsalar ham, «sholining ostidan kurmak suv ichadi», degan gap bor, – deb qo'ydi.

Lekin men sizga o'xshash kurmak emasman, javdari sholning singari yozilib o'syapman, – dedi kichik xotini yana o'z vaziyatda. U orqasiga o'girilib devorda osig'liq turgan yerdan o'z aksini ko'rdi-da, ko'zini oynadan uzib, yer ostidagi boraga qaradi. Unga Sora o'zidan yoshroq va go'zalroq ko'rindi shekilli, uning otashin vaziyati g'amginlik bilan almashindi, ko'zini yerga tikdi, alam bilan gilamni tirnay tortib oldi.

– Hattiyot bo'ling, yana yozila-yozila lanj bo'lib ket-
turing, dedi katta xotin kundoshining ahvolidan zavqlanib.

Hu ikki kundoshning dahanaki jangi yoqa yirtishgacha borib yetgan bo'lardi-yu, lekin boyning:

Hamdam! Kelinni tezroq olib kel! – degani bu, janjalning oldini oldi.

Mana, hozir! – deb o'rnidan turgan katta xotin Sora oldiga qo'yilgan novvot choyni ham bir ho'pladi-da: – Turing, kelin, amakingizni ko'p muntazir qilmaylik, – deb Soraning qo'lidan ushlab o'rnidan zo'rg'a turg'izib, sudragandek qilib erining oldiga olib chiqib ketdi.

Mendan o'ch olmoqchi, – dedi kichik xotini ular uydan chiqib ketgach o'z-o'ziga va o'rnidan turib oyna oldiga bordi-da, yuz-betini, qosh-ko'zini xotirjamlik bilan nazardan o'tkazib. – Yo'q, uddalay olmaydi, – deb o'z-o'ziga tasalli bergan bo'ldi.

– Aya! Yanga dadam oldiga ketdi, – deb Istamning uyga kirib kelishi uning bu holatini o'zgartirdi. U Istamga qarab:

– U yanga emas, u ham senga ona bo'ladi, – dedi.

– U yomon ekan, meni muchchi qilmadi, – dedi Istam noxush ohangda.

Xotin o'g'lining Sorani «yomon» deganidan bir oz 10
salli topib, novvot choyli choynak oldiga o'tirib, Istamni
quchog'iga olib erkalatib suyarkan: «Men eng suyukli xo-
tini bo'lsam, o'g'lim aziz farzandi, qanchalik novvotxo'i
va hoyu havasli bo'lsa ham, yuzimizdan o'ta olmaydi, bi-
gado qiz uchun bizdan kechmaydi», degan fikr ko'nglidan
o'tdi.

U shu zaylda o'zini-o'zi ovutib, bir oz ochildi-da, qolgan
novvot choyni ikki piyolaga quyib, birini o'zi ichdi, ikkin-
hisini Istamga berdi...

* * *

Katta xotin Sorani boyning oldiga kiritib:

– Amakingizga salom bering! – dedi.

Sora yuzini yengi bilan bekitib, bosh qimirlatish bilan
boyga salom bergan bo'ldi. Boy Soraga tirjayib qarab:

– O'tiring, kelin! – dedi.

Sora esa qimir etmay turaverdi, boyning xotini uning yel-
kasidan bosib, o'tirishga majbur qildi.

Boyning katta xotini Sorani o'tqazganda u o'zini orqa-
ga tortib, mumkin qadar boydan uzoqroqqa – chap tizzasini
o'ng tizzasining ustiga qo'yib, o'ng qo'li bilan peshonasini
to'sib devor tomonga yarim o'girilgan holda o'tirdi.

Boy qanchalik diqqat bilan qarasa ham, Soraning yuzini
yaxshi ko'rolmadi, chunki uning bir yuzi devorga o'girilgan,
ikkinchi yuzini esa keng yenglari yashirib turardi.

Boy yonida o'tirgan uch yashar Istamni o'rnidan
turg'azib:

– Yangangning oldiga bor, seni o'padi! – deb uni Sora
tomon yubordi.

Bola uyalib-tortinib Soraning oldiga bordi, lekin Sora uni
ko'ngilxushlik bilan qarshi olmadi: bolani og'ushiga bosma-
di, hatto unga qayrilib qaramadi ham. Bola esa otasiga qarab

qildi. Bu bilan u go'yo: «Endi nima qilay?» deb so'ragandek bo'ldi.

Onangning oldiga bor, u seni o'padi, – dedi otasi. Bola yurganicha uydan chiqib ketdi.

Hoy yostiqlarning ustidagi to'rt buklangan anor gulli ro'molni olib Soraga uzatdi:

Ma, bu ro'molni ol, qizim, bu mendan senga ko'rmanmi! dedi.

Sora boyning bu gapini guyo eshitmagandek, indamay o'tiraverdi.

Hoy o'tirgan joyida cho'kkalab Sora tomon cho'zildi-da, ro'mol tutgan qo'lini unga yaqinlashtirib, ikkinchi marta taklif qildi:

Ma, azizim, jon qizim, bu ro'molchani ol, ko'rmanmi ol!

Bu gal Sora bir narsadan hurkkan kishidek, devorga qapishib, yengi ostidan ko'zlarini olaytirib boyga tikdi. U xuddi chiyabo'ri ko'rgan tovuqday his-harakatsiz turardi.

Bu vaziyatdan hayratga tushgan boy nima qilarini bilmasdi: agarda u Soraga yanada yaqinlashib, ro'molni qo'lga majburan bersa, yoki qo'lga qo'ysa uning qochib chiqib ketishidan cho'chirdi; avvalgidek o'tirib olib taklifidan qaytay desa, or qilardi, chunki kambag'alning xotini bo'lgan bir gadoy qiz tomonidan «marhamat»ining rad etilishini o'ziga nisbatan haqorat deb bilardi.

Lekin katta xotini boyni bu og'ir vaziyatdan qutqardi, u Sorani holi-joniga qo'yamay o'rnidan turg'azdi-da:

Borib ro'molni o'z qo'ling bilan ol, boy amakingga qulluq qil, uyingga olib borib, bo'lajak farzanding uchun asra: «Mening bolam ham boy amakim singari badavlat bo'lsin», deb niyat qilgin, – dedi.

Sora uyalib-qizarib borib boyning qo'lidan ro'molni oldi, qayta o'tirmay, uydan chiqdi va avval mehmon bo'lib o'tirgan uyiga tomon ketdi.

Boy oldin Sorani ko'ra olmagan bo'lsa ham, ro'molni qo'lidan olgan paytda unga «xaridor»larcha nazar bilan qarab-qarab oldi: uning qop-qora qosh va ko'zlari, uzun, jingala-jingala kipriklari, maydalab o'rilgan qora sochlariyu naqsh olmadek qizil yuzlari boyni hayratda qoldirdi. Sora ko'hna liboslar ichida uning nazarida tuproq-qum orasida qolgan yaxlit oltin singari tovlanib ko'rindi, uning nur to'la yuzi boshidagi ro'moli tagidan bamisoli bulut ostidan yarim ko'rinib turgan o'n to'rt kunlik oy kabi jilvalanar, qora qoshlari ostidagi chaqnab turgan ko'zlari tong yulduzlari kabi ko'zni qamashtirardi...

* * *

Ziyofat bo'lgan kundan boshlab boy Sorani qo'lga kiritish payiga tushdi. Bunda u xotinlari o'rtasidagi ziddiyatdan foydalanmoqchi bo'ldi. Kichik xotiniga uylangandan so'ng, katta xotini boyning nazaridan qolgan, kichik xotini esa, o'zining yoshligi va husni jamolidan foydalanib, eri orqali kundoshiga azob berdirar, uni xorlardi. O'zaro janjalda katta xotin kundoshidan qolishmasa-da, boy oldida o'z so'zini o'tkaza olmas, har bir janjaldan so'ng boy kichik xotining tarafini olib, katta xotinini koyir, ba'zan urardi ham.

Endi katta xotinga kundoshidan o'ch olish vaqti yetgandi. U o'zi vositachilik qilib, boyni biron yosh xotinga rom qilish, kundoshini azobga giriftor etish va o'zi yonib kelayotgan rashk otashida raqibasini kuydirishni istardi.

Sora va boyning unga bo'lgan havasi katta xotinga juda qo'l keldi. U boyning iflos niyatini amalga oshirishda vositachi bo'lishni boy oldida ro'yirost o'z zimmasiga olib, as-toydil ishga kirishdi: ziyofat kuni Soraning qo'lga ro'molni qo'yishda dastlabki faoliyatini ko'rsatdi. Shundan so'ng eri bilan gapni bir qilib, Sorani tuzoqqa ilintirish payiga tushdi.

U har kuni Sorani chaqirib kelib, uy ishlariga yordam berishini so'rar, ish vaqtida yoki choy ichish paytida fursatni topib, boyni ta'riflar: uning «sofdil»ligi, xotin-qizlarni yaxshi ko'rishi, xususan, Soraga bo'lgan «otalarcha» mehr-muhabbati to'g'risida so'zlardi. Ayniqsa u Sorani boydan uyalmaslik va undan qochmaslikka undab, boyning gapiga tortinmay-uyalmay javob berish haqida nasihat qilardi. Bir kuni ana shunday nasihatlardan keyin:

– Agar boyning senga nisbatan biron o'zga maqsadi bo'lsa, hovlimizga kelishingga yo'l berarmidim, qaysi xotin erining boshqa xotinlar bilan yomon aloqada bo'lishiga yo'l qo'yibdiki, men yo'l bersam, – dedi.

Boy xotini zimdan tayyorlayotgan ana shu zaminga tayanib, Soraga «do'stona» va «mehribonona» muomala qilar: unga gap tashlar ba'zan uni hazil va sho'xlikka yo'yardi.

Sora esa boyga nisbatan bo'lgan muomalasini hech o'zgartirmadi, uning gaplarini hamma vaqt cho'chib nafrat bilan tinglar, so'rovlariga «ha» yoki «yo'q» deb qisqagina javob qaytarar, yuziga hech qaramas va hazilomuz gaplarini eshitmagandek bo'lib yurardi. Sora katta xotinning gaplari bilan boy haqidagi shubhalarni bir qadar unutmoqchi bo'lganida, kichik xotinning muomalalari uning shubhasini yanada kuchaytirardi. U hamma vaqt Soraga piching otar, boyning uyiga uning kelib-ketishini yoqtirmas va ba'zan ro'yirost koyirdi. Qisqasi, boyning kichik xotini Soraga xud-di kundoshdek muomala qilardi.

Boy Soraga bir necha vaqt shubhali gaplar tashlab yurgach, bir kuni unga muddaosini ro'yirost aytmoqchi bo'ldi: Sora boyning hovlisidan chiqib ketayotganida ichki va tashqi hovli o'rtasidagi yo'lakda boy uchrab, bir qo'li bilan Soraning bilagini ushladi-da, ikkinchi qo'li bilan uning barmog'iga kumush uzukni solmoqchi bo'ldi.

Sora qo'lini tortib olib, g'azablanib:

– Sizga bu ish ayb, hayf sizga, uyaling! – dedi.

Bu gaplarni Sora shu darajada baland ovoz bilan aytdiki, boyning katta xotini o'zini eshitmaganlikka solsa ham, uyda o'tirgan kichik xotini eshitib:

– Nima gap, nima gap? – deb yo'lakka yugurib chiqdi. Ammo u yetib kelguncha Sora hovlidan chiqib ketgan edi. Er-xotin urishib qoldilar.

Sora uyiga borib boy «ko'rmana» deb bergan va hali bos-higa ilmagan ro'molni qo'yan joyidan olib kelib boyning darvozasi yo'lagidan hovlisiga irg'itib ketdi. Shundan so'ng u boynikiga qadam bosmadi.

III

Sora boynikidan qat'iy oyoq tortgan bo'lsa ham, boy undan umidini uzmagani edi. Endi u Sorani batamom qo'lga olish yo'lini axtarardi. Hatto bu maqsadga erishish uchun u Murodni oradan ko'tarishni ham ko'nglidan o'tkazgandi. Lekin Murodni oradan yo'qotish uchun uni ranjitmaslik, ko'nglini ko'tarib, shirin muomalalar bilan uni o'ziga yanada tortish kerak edi.

O'sha kuni kech kirib, Murod qo'ylarni yaylovdan olib kelgandan so'ng boy uni mehmonxonaga chaqirib, o'zi bilan Sora o'rtasidagi ro'y bergan voqeani quyidagicha hikoya qildi:

– Men xotiningni o'z qizim va kelinimdek bilardim va unga otalarcha muomala qilardim. Bugun bir kumush uzukni «otalik yodgorligi» deb bermoqchi bo'lsam u qandaydir shubhalarga berilib, menga qattiq gaplar aytdi, yangalaring oldida meni sharmanda qildi...

Bu gap Murodni o'ylantirib qo'ydi. Boy Murodni har xil xayollardan xoli qilish maqsadida yana gapida davom etdi:

– Senga bu voqeani Sora o'zi tushunganicha aytsa mendan behudaga xafa bo'lib yurma, gapning rostini ayt-

dim. Unga aytib qo'y, bundan keyin mening hovlimga kelmasin.

Boyning oxirgi so'zidan Murod «boy meni ishdan haydash kerak» degan fikrga kelib, xayol surib, xomush ko'rindi, boy o'zining ko'nglini olmoqchi bo'lib:

Bu gapimdan meni Soradan yoki mendan ranjibdi, deb o'ylama. Bordi-keldini tugatishdan maqsad xotinlar o'rtasida paydo bo'lgan gap-so'zlarni bosishdir. Men bolalik qildi, deb o'zimga olmadim. Bundan keyin ham sizlarga yaxshiligimni ayamayman. Oldin so'qqabosh eding, «bunga mol va pul nimaga darkor» deb, durustroq yordam bermasdim, endi men uylanib, yana bir kishining yuki bo'yingga tushdi, men ham shunga qarab ish tutaman, — dedi-da, jim bo'ldi.

Murod boy gapini tugatdi deb o'ylab, o'rnidan turmoqchi bo'lgandi, boy yana gapini davom ettirib, uni o'tirishga majburlan qildi.

Eshitishimcha, — dedi boy, — yaqinda farzand ko'rarmehsisizlar, shu gapni eshitganimdan keyin bir sersut echkini bo'lajak farzanding uchun bog'lab qo'ydim, go'dak tug'ilgan kunyoq, ana shu echkini senga topshiraman, uyingga eltib bog'lab qo'lasan, ona-bola sog'ib ichib yuradilar. Yaxshiliklarimni Sora bilmasa, mayli, u bilmasa, xudo bilar, axir... Mayli, — dedi boy bir oz jim turgach, — endi uyingga borib dam ol, Soraga tushuntir...

Murod ming xil xayol va shubhalar bilan uyiga qaytdi. Bu yerda hamma shubhalari bartaraf bo'ldi: Sora boyning o'ziga nisbatan qilgan muomalari haqida hozirgacha hech narsa demagandi. Bugungi voqeadan keyin boy va uning xotini bilan bo'lgan gaplarni to'kib soldi. Eidi Murod boyning miyatiga shak-shubhasiz ishongandi.

Murod oilasiga chang solgan kishining dargohida bundan keyin xizmat qilmaslikka ahd qilgan bo'lsa-da, bu fikrini tezda amalga oshira olmadi va amalga oshira olmas edi

ham. Boy dargohidan ketishdan oldin biron ish topish lozim edi, vaholanki, qishloq boylari Eshonqulboyning ro'yxotir qilib, uning xizmatini tashlab ketgan kimsani ishga olmasdilar; qishloq kambag'allari esa, o'zlari birovlarining xizmatini qilib kun kechirishga majbur edilar. U uzoq qishloqlarga ish axtarib borishga jazm qilmadi, chunki o'zga qishloqqa ish va joy axtarib borish uchun xotinini qoldirib ketish lozim edi. Lekin qishloqning eng katta boyi uning xotiniga ko'z olaytirgan bir paytda boy xizmatini tashlab, xotinini uyda yolg'iz qoldirib ketish ham xavfli edi. Boyning «men sening xotiningga yomon ko'z bilan qaramayman, uni o'z qizim va kelinimdek bilaman» degan gapiga ishongandek, o'zini nodonlikka solib yura berish afzalroq, munosib joy topilsa, bu yerdan qutulish oson.

Shu xil mulohazalar bilan Murod «bolta tushguncha, kunda dam oladi», deb boy dargohida yura berdi...

Uzuk mojarosidan to'rt-besh oy o'tgach, Sora bir o'g'ilchaning onasi bo'ldi. Chaqaloqning olamga kelishi otanaga bir dunyo shodlik bag'ishladi. Shuning uchun unga «Shodi» deb nom qo'ydilar.

G'unchadek bolaning onasi bo'lish, bola ko'rish vaqtida ro'y beradigan azob, ayniqsa, birinchi marta tug'ishdagi xavf-xatar vahimasi Eshonqulboyning nomussizlarcha muomalasini Soraning xotiridan deyarli chiqardi. Ayniqsa, o'sha voqeadan keyin boy Sorani hech tilga olmay, moddiy yordamini kamaytirmay, Murodga nisbatan muomalasini borgan sari yaxshilayotgani o'sha mudhish voqeani Soraning ham, Murodning ham esidan chiqarayozgan edi. Har ikkovlari ham boyning bu harakatini «shayton»ning vasvasasidan bilib, endi u tavba qilgan, deb gumon qilardilar.

Boy Murodning farzand ko'rganini eshitib, yangi tuqqan sersut echkini uning uyiga yubordi. Boyning to'g'ri odam bo'lib qolganligiga Murodning ishonchi yanada osh-

di. Boyning katta xotini odatga ko'ra Soraning uyiga chaqaloq ko'rgani keldi. U yangi tug'ilgan o'g'ilcha uchun surp ko'ylak keltirib, chaqaloqqa uzoq umr va davlat, Soraga sihat salomatlik tilab chiqib ketdi. Lekin bu safar u boydan ham, uning «yaxshiligi», «mehribonligi»dan ham og'iz ochmadi. U o'zini shunday tutdiki, go'yo Soraga boyni ta'riflab gapirgan gaplaridan xijolatda-yu, boy «shayton»ning ig'vosi bilan uni Sora oldida sharmanda qilgan. Bu muomaladan boybibi, «nodonlarcha» qilgan harakati va boyning «shayton» vasvasasiga tushganiga Sorada ishonch hosil qildirib, uni boyni kechirishga undadi. Sora doyasiz tug'ib, darmonsizlanib, og'ir kunlarni boshidan kechirgandan so'ng tezda sog'ayib qoldi: ishtahasi ochildi, yegan ovqati nuqul sut va go'sht bo'layotgandek edi. Jondan shirin o'g'li sutiga to'yar, o'zining go'shtiga go'sht qo'shilib, zaiflashgan badani to'lishar, kuchiga kuch qo'shilib borar edi.

U har kun chaqaloqni ko'rpachaga o'rab, toza va ochiq havoga olib chiqar edi. Chaqaloq daladagi lolalarni ekinlar atrofidagi maysalarni ko'rib xushhol bo'lar ularning yaqinlashganini sezgan chumchuq va kapalaklar o'tlar ichidan uchib ketardilar. Shodi ham ona quchog'ida xuddi ular ketidan uchadigandek talpinardi.

Gullar, lolalar, maysalar va parrandalar yangi tug'ilgan bolaga qanchalar zavq bag'ishlashini bilish qiyin: u lablarini nini ochiq g'unchadek ochib kulardi.

Mehribon ona – Sora jondan aziz o'g'liga mehr bilan termilib, gulob aralash qandni shimgandek uning yuz va peshonalaridan o'par, bosh barmog'i bilan chaqaloq og'zining ikki tomonidan yumshoqqina siqib, uning kulgisini yanada shirin va yanada orombaxsh qilardi.

Hatto Sora ana shunday xursandlik paytlarida o'g'ilchasiga atab qo'shiq ham to'qirdi:

Shodijonginam
Mehribonginam,
Dard ko'rmasdan o's,
Xurram jonginam!
Lola o'sibdir,
Sabza unibdir,
Guldek kulibdir,
Shodijonginam.
Bahor nasimin
Jon degay olam.
- Mening jonimdir
*Shodijonginam!*⁵

Shodi sal katta bo'lib, oyoq-qo'llarini erkin harakat qildiradi oladigan bo'lganda Soraning shodligi yanada oshdi. Ba'zan Sora oyoqlarini maysalar ustiga uzatib o'tirar, nuridiydasini o'ziga qaratib tizzasiga o'tirg'izardi. Ana shunday damlarda u ko'pincha qo'shiq to'qishga kirishardi. Sora bolalarga xos qisqa ohangda, hijolarni dona-dona va ravon qilib:

Shodijonginam,
Mehribonginam,
Dard ko'rmasdan o's,
Xurram jonginam! —

deganida, Shodi boshini sarak-sarak qilib, qo'li va tamom a'zosi bilan go'yo qo'shiqqa jo'r bo'lardi: u xuddi chapak chaladiganday kaftini ochib, qo'llarini yuqori ko'tarar, bar-moqlarini qo'shiq ohangida harakat ettirar, boshini ham qo'l harakatiga va qo'shiq ohangiga muvofiq qimirlatar; shu ohangga muvofiq xuddi o'rnidan turib raqs etmoqchi bo'lgandek dikanglardi.

⁵ Povestda uchraydigan she'r va qo'shiqlarni M. Muinzoda tarjima qilgan.

Shodining bu zayldagi o'yini va xurramligi Soraga olam-
olam zavq-shavq baxsh etar va u ashula to'qiy boshlardi:

*Qora ko'zing qop-qora zog',
Opang sendan ko'rmasin dog',
Yoritasan, chirog'bonim,
Ko'zim sanu sensan chirog'!*

Sora ashula aytganda Shodi ham bir oz orom olib, ashulaga quloq solar, qo'shiq ohangiga qarab o'z harakatini o'zgartirardi.

Ana shunday bolalarcha bazm oxirida Sora doim zo'r mahorat bilan bolalarbop jarangdor shu she'rini «Rezi ufar» kuyida kuylardi.

*Ha dursi, dursi, dursi,
Chiqa qol, mana kursi!
Gulim erur jamoling,
Jamolingda kamoling,
Kam bo'lmasin visoling.*

*Ha dursi, dursi, dursi.
Chiqa qol, mana kursi!
Hiding go'yoki bahor,
Yuzlaring xuddi anor,
Mushkin sochlar senda bor.*

*Ha dursi, dursi, dursi,
Chiqa qol, mana kursi!
Yuzlaring bo'lsin porloq,
G'am sendan bo'lsin uzoq,
Dushmaning o'lsin shu chog'.*

*Ha dursi, dursi, dursi,
Chiqa qol, mana kursi!*

Sora bu ashulani aytgandan so'ng Shodi ham a'zoyi badanini harakatga keltirib, o'z joyida girdibod singari tez harakat qilardi. Bunday paytlarda u qo'l va boshinigina emas, tamom a'zosini bir ohangda qimirlatardi,

Soraning shavq-zavqi benihoya oshar, o'rnidan turib o'g'ilchasini qo'lga olib o'ynatar, havoga otar epchillik bilan ilib olar, qo'l-oyoqlaridan, yuz-bosh, qosh-ko'zlaridan to'yib-to'yib o'pard.

Shodi ham onasining bu mushfiqligidan zavq olgandek qiqirlab kulib, tili chiqmagan bo'lsa ham, o'z maqsadlarini onasiga tushuntirmoqchi bo'lib, «gangur-gungur» qilar va tanglayu tilidan tushunarsiz ovozlari chiqarardi.

Sora ham dilband farzandining og'zini bosh barmog'i uchi bilan sekin-sekin ochib, uning gaplariga javob qaytarardi. Bu ovozlarning ma'nosi bizga tushunarsiz bo'lsa ham, tilsiz Shodiga ma'lum edi. Shuning uchun ham u onasi ana shunday ovoz chiqargan paytda quloq solib turar, u jim bo'lgan hamon qiyqirib kular va yana majhul ovozlari bilan mehribon onasining «aytgan»laridan hursand ekanligini unga tushuntirar edi.

* * *

Echki-uloqlar ham Sora va Shodi uchun katta bir ermak edi: o'g'li uxlagan paytlarda Sora ekinzor va ariq bo'ylaridan barra o'tlarni yulib, echkiga olib kelib berar, echki esa borgan sari semirib, sersut bo'lib borardi.

Sora Shodini ko'tarib echkinining oldiga olib borganida echkini, ayniqsa, uloqni ko'rgan bola benihoya shodlanardi. Uloqcha sakrab-sakrab har tomonga yugurar, sakrab tandir ustiga chiqib, darhol kaptar singari «uchib», o'zini yerga

muallaq tashlar, old oyoqlarini ko'tarib, odamdek tik turar, hatto daraxtga chiqmoqchi bo'lib uning tanasiga yopishardi. Murodning ko'rimsiz past kulbasining devori esa uloqchanning o'ynashi uchun misoli bir dorday edi: u bir sakrab devor ustiga chiqib, chaqqon dorbozdek chopqillar, goh orqasi bilan yugurardi, ingichkaroq yerga kelganda esa orqa va old oyoqlarini mix qilib tirab olardi.

Ko'cha tomondagi tutning devor ustiga yopirilgan shox uloqcha uchun ham ovqat, ham o'yin: u ingichka devor ustida keyingi ikki oyog'i bilan tik turib, old oyoqlari bilan tut shoxlarini bosib, lablari bilan ko'm-ko'k barglarni terar, arrasimon mayda tishlari bilan «kurt-kurt» chaynab yerdi.

Echki sho'x farzandining bu harakatlarini kuzatib, tomondan daraxtga chiqqan farzandining yiqilib ketishi vahmida betoqatlangan ona kabi norozilik bilan ma'rar edi.

Ammo uloqcha onasining gapiga quloq solmaydigan o'zboshimcha bolalar singari ona betoqatligini pisand qilmay, o'z o'yinini zerikkunicha davom ettirardi. O'yin ko'ngliga urgach, cho'milayotgan bola tol ustiday chuqur suvga sakragandek o'zini yerga otar, qush singari chaqqonlik bilan darhol o'nglanib onasi tomon yugurardi. U onasining oldiga yetgach, old oyoqlari bilan cho'kka tushib, tumshuqlarini onasining yeliniga cho'zardi. Ammo uning yeliniga tortilgan xalta emishga imkon bermasdi. Onasining yelinini tumshug'i bilan bir-ikki turtib, emchakni topishdan umidini uzgach, tik turgan onasining yonida uxlab dam olardi.

Uloqcha yotganda Shodi uchun u bilan o'ynashish muvassar bo'lardi. Sora chaqaloqni ko'tarib borib uloq oldiga o'ttar, qunduzdek jingala junlarini barmoqlari bilan tarar, yuz boshlarini, peshonalarini qashlar edi.

Shodi ham onasiga taqlid qilib, tengdosh uloqchasini o'ralashni istar, buni sezgan Sora esa uni uloqchaga yaqinlashtirardi. Shodi marjon shoxchalari singari qizil va nozik barmoqlarini oldinga cho'zib, uloqchanning junidan tortar,

g'uncha yaproqlaridek yumshoq tirnoqlarini uloqchani-
g lab va tishlariga tegizib qitiqlardi.

Yosh bolaning bu ishi uloqchaga yoqib tushgandek, u ham bu xizmat evaziga Shodining barmoqlarini egar, kaftlarini hidlar va goh-goho «balli» degandek mayin ovoz bilan, «ba-a-a» deb qo'yardi.

Shodi ham uning «ba-a-a»sidan zavqlanib, guvranar qo'l va oyoqlarini qimirlatib uloqcha haqida onasiga gapirayotganday bo'lardi.

Sora esa ko'p til biluvchi tarjimon singari Shodining gaplarini uloqchaga va uning so'zlarini Shodiga tarjima qilib berar edi. U uloqcha tilidan Shodiga:

– Men seni sevaman; ikkovimiz bir vaqtda tug'ilganmiz, onam ham seni yaxshi ko'radi, u senga o'z onangday sut beradi. Ikkovimiz birga o'ynaydigan do'stmiz, emakdosh og'aynilarmiz, – der edi.

Shodi tilidan uloqchaga:

Men sevaman o'zingni ham,

Shu yungingni,

hidingni ham,

Yuzingni ham

Juda sevaman.

Men yungingni ham, ko'zingni ham

Oppoq tuyog'ingni ham

Yuvosh yuzingni ham

juda sevaman.

Xulqu atvoringni,

Ishingni, kirdikoringni,

Yurishing, raftoringni,

Qo'zingni, xummoringni

juda sevaman, –

der edi.

Murod chirog'poya yasadi. Chirog'poya juda sodda bo'lib, chorak metrli to'rtta yog'ochning ustiga to'rt tomoni-ga bir qirichli taxta qoqilgandi.

Kunlardan bir kun uloqcha devor boshida o'ynayotganida bora chirog'poyani olib chiqib hovliga qo'ydi-da, ko'k o'tni ko'rib, uloqchani devordan tushirdi. Uch-to'rt og'iz o't yedupach, Sora ulog'ini chirog'poya ustiga qo'ydi. Uloq-chaning to'rt oyog'i chirog'poya taxtasi ustida g'uj bo'lib tinadi. Sora laylakbozlarga o'xshab, ashula aytib, chapak chaladi. Endi o'tiradigan bo'lib qolgan Shodi ham onasiga taqlid qilib chapak chalishga kirishdi:

*Ha dursi, dursi, dursi.
Chiqa qol, mana kursi! –*

Ashula va chapak ovozig-a bir oz quloq solib turgan uloqcha, chirog'poya ustida aylana boshladi. U to'rt oyog'i g'uj holda tor joyda o'z o'qi atrofida aylanayotgan parrakdek aylanardi.

Bu o'yin Soraga ham, Shodiga ham, uloqchanning o'ziga ham juda yoqdi. Dastlabki kunlarda Sora uloqchani chirog'poyaga ko'tarib chiqarib qo'yardi. Ziyrak hayvon bolasi bu mashg'ulotga odatlangach, o'zi sakrab chirog'poyaga chiqadigan bo'ldi.

Sora:

*Ha dursi, dursi, dursi,
Chiqa qol, mana kursi! –*

deb chapak chalishi bilan uloqcha yugurib kelib, mushuk singari sakrab chirog'poyaga chiqar va gir aylanib o'yin tusha boshlardi.

Bora-bora Murodning boy haqidagi fikri batamom o'zgardi. Buning ustiga, boy hamisha Murodga yaxshi mu-

omala qilar, uning o'g'li Shodini ham e'tibordan chetda qoldirmas edi. Ba'zan ovqatdan keyin Murodga bir parcha yog'liq go'sht berib:

– Ma, buni o'g'ilchaga olib bor, – derdi.

Bozor oqshomlari esa Shodi uchun bir kosa palov berishni hech unutmasdi. Uzuk mojarosidan beri ikki yil o'tib ketgan, bu mojaro hammaning xotiridan, hatto Soraning xayolidan ham tamoman chiqib ketgan bo'lsa-da, boy Sorani hargiz tilga olmasdi. Bu esa Murodni borgan sari «boy ishni shaytonning «ig'vosi» bilan qilgan, endi uyalib, pushaymon qilib yuribdi» degan xayolga chindan ishontirardi.

O'ttiz yillik xizmati davomida boy Murodga qattik, va mog'or bosgan arpa non yoki zog'ora berar, issiq ovqat o'rniga sovib qolgan sarqit osh yoki yuvindi uning nasibasi edi. Endi uni yumshoq non va issiq osh bilan to'ydirar, hatto, ba'zan dashtga – yaylovga Murod uchun issiq non yoki osh yubortirar edi.

Bu ovqatlarni yaylovga boyning katta xotinining inisi – Shoqul olib borardi.

Shoqul boyvachcha yigit bo'lib, otasining yagona o'g'li edi. Shoqulning otasi Subhonqulning davlati va yer-suvi Eshonqulboynikicha bo'lmasa ham, qishloqning, katta boylaridan hisoblanardi. U birinchi farzandi – qizi Soniyani qishloqning katta boylaridan biri Eshonqulboyga berib, o'z obro'-e'tiborini yanada yuqori ko'targandi.

Subhonqulboy bir necha yetim va cho'ponlarni ishlatib, xo'jalik ishlarini o'zi boshqarar va yagona o'g'li Shoqulga hech qanday ish buyurmasdi. Shoqul doim otasining otlaridan minib, to'y-tomoshalarda yurardi.

Subhonqul vafotidan so'ng uning hamma molu mulki Shoqulga qoldi. Eshonqulboy undan xotini Soniyaning merosini talab qildi, lekin u hech narsa bermadi. Er-xotin ancha vaqt qozibozlik qilib yursa ham, natija chiqmadi. Bir tomon-

dan, Shoqul yosh va kissasi to'la boyvachcha bo'lganligi uchun qozi va hokim eshigiga ko'p pul sarfladi, ikkinchidan, ota merosining da'vogari Soniya erining o'z ustiga xotin olganligidan ranjigan edi. Shuning uchun u: «Mening merosim uchun qo'lida turaversin», dedi.

Eshonqulboy bilan Shoqul o'rtasida qarindoshlik aloqasi uzildi. Shoqul opasini ko'rish uchun mumkin qadar boy uyida bo'lmagan vaqtda borardi. Agarda uning bu yerga kelishi boyni uydaligiga to'g'ri kelib qolsa, Shoqul unga quruqqina salom berib, opasining xonasiga o'tib ketar va o'sha yerdan chiqib ketardi.

Otasi o'lgandan keyin Shoqulning xo'jaligi xarobalikka yuz tutdi. Otasi tirik bo'lganda odatlanmaganligi uchun Shoqul o'zi xo'jalik ishlariga shaxsan qaramas, kecha-kunduz sayru tomosha bilan band bo'lar, ba'zan shaloq ov miltig'ini olib, ovga ham chiqardi.

Hozir ham u ot minmay ko'chaga chiqmasdi. Bu ot otasining davrida mingan bedov otlardan bo'lmay, jaydari ot edi. U na oyda va na uloqda ish bermasdi. Lekin, shunga qaramay, Shoqul doim sayr va tomoshadan qishloqqa qaytishda otni, miltig'ini va o'zining bilimdonligini maqtardi. Uloqqa borib oti o'nta echki olganini maqtar, ovdan qaytayotgan kunlari esa: «Men bugun uch kiyik otdim, ikki kiyikni otda qolib ushladim», deb og'iz ko'pirtirardi.

Bu lofning yolg'onligini bilgan qishloq odamlaridan biri undan:

Qani u kiyiklar, bittasini bizga bering, kabob qilib yeb, duo qilaylik, toki otingiz bundan ham chopqir, miltig'ingiz bundan ham, nishonga uradigan bo'lsin, – derdi.

Shoqul esa hech o'ylab o'ltirmay, qaytishda falon qishloqdagi bir oshnasinikiga tushgani, kiyiklardan birini kabob qilib yegani va qolganlarini esa o'sha oshnasiga in'om qilib tashlab kelayotganini hikoya qilar va oxirida:

– Qo‘linga biron narsa tushsa, yo‘lda uchragan birinchi kishiga beraman, uyga ko‘tarib keltirmayman – mening odamim shu, – derdi.

Vaholanki, Shoqul bir tovug‘ini o‘ldirib qo‘ygan yetimning tishini urib sindirdi. Voqea bunday yuz bergandi:

Bir kuni Shoqul yetimlaridan biriga ko‘chatzor orasini chopib, yo‘ng‘ichqa sepishni buyurdi va to yo‘ng‘ichqa ko‘karib, o‘zini tutib olguncha uni tovuqdan ehtiyot qilishni uqtirdi.

Yetim yo‘ng‘ichqani Shoqul aytgandek qilib sepdi. Bir vaqt yo‘ng‘ichqadan xabar olgani chiqsa, xo‘jayinning bir to‘da tovuqlari yerni titkilab, yangi ko‘kargan yo‘ng‘ichqani uzib yeb turgan ekan. u tovuqlarni haydamoqchi bo‘lib, yerdan olmadek toshni oldi-da, ularga qarab otdi. Tosh to‘satdan bir tovuqning boshiga tegib, u patirlaganicha jon berdi.

Buni eshitgan Shoqul yetimni ayvon ustuniga bog‘lab qo‘ydi va bir necha qadam nari borib o‘sha toshni unga otdi. Yetim qo‘llari bilan ko‘z-boshlarini muhofaza qilgan bo‘lsa ham tosh tumshug‘iga kelib tegib lablari qonadi va ikki old tishi sindi.

Bu yetimning oti Ergash edi, lekin ana shu voqeadan boshlab uni Ergash bedandon⁶ deydigan bo‘ldilar.

* * *

Keyingi vaqtlarda Eshonqulboy bilan Shoqul inoqlashib qoldi. Bu inoqlik Eshonqulboyning tashabbusi, intilishi bilan bo‘lgan edi.

Kunlardan bir kun Eshonqulboy xotini Soniyaga:

– Ukangga ayt, mendan o‘pkalanib yurmasin, u menga qanchalik yomonlik qilgan bo‘lsa ham, men uni allaqachonlar kechirganman. Men bilan qarindoshlarcha bordi-keldi qilaversin, yaxshi otlarimdan birini minsin. Men xotinimning

⁶ Ergash kemshik.

ukasi qirchang'i otga minib uloqqa borganda eng keyinda ola tozidek uyoq-buyoqqa yugurib yursa, kishilardan nomus qilaman,— dedi.

Soniya oraga tushib, pochcha bilan qayinni yarashtirdi: yarashish uchun boy Shoqul sharafiga ziyofat berdi, to'n kiydirdi.

Shundan so'ng Shoqul har kuni boynikiga bir kelib ketar, uloqqa yoki ovga bormoqchi bo'lsa, boyning bedov otlaridan birini minib borardi. Ba'zan ovga boyning beshotar miltig'ini olib borib, kiyik, bo'ri va shu singari katta hayvonlarni otib kelardi.

Endi qishloq odamlari Shoqulning o'zini maqtab aytgan gaplariga chindan quloq solardilar. Chunki, endi u uloqqa borsa bir-ikki echkini taqimiga bosib kelar, ovdan ham quruq qaytmasdi. ba'zan tulki, goh tustovuq, ba'zan bo'rining terisi egar qoshini bezab kelardi.

Shoqul yetim va cho'ponlarining hol-ahvolidan, ularning ochu to'qidan, ust-boshidan xabar olmasa-da, Eshonqulboyni xo'jalik ishlariga ko'maklashardi. Jumladan, ov yoki uloqqa borishi oldidan Murodga non yoki osh olib borib, uning hol-ahvolidan xabar olib turardi.

Sora va Murodlarning tirikchiliklari yomon emas-di. Shodi tug'ilganda Eshonqulboy bergan ona-bola echki uch yilda o'n boshga yetib, oila sutu qaymoq, qatig'u yoqqa serob bo'ldi. Sut-qaymoq, yog'u qatig'yeb o'sgan uch yas-har Shodi to'rt-besh yashar bolalardan kattaroq va to'laroq ko'rinardi. Murodga ham yigitlik quvvati qaytib kelgandek bo'ldi. Chunki, sohibjamol, itoatkor xotini, sog'lom va aql-idrokli o'g'li, o'z kulbasi bor. O'nta echkisi esa tirikchiligiga yarar, ayniqsa, o'g'li va xotinini ta'minlardi, uning vaqtini xush, ko'nglini osoyishta va boshini tirikchilik tashvishidan tinchitgandi.

Murod har kuni ertalab xo'jayinnikiga borib, nonushtadan keyin qo'ylarni yaylovga eltar, kechqurunlari qo'ylarni

qo'raga kiritib, kechki ovqatni yegach, uyiga qaytar. Ba'zan boynikidan o'g'ilchasiga go'sht yoki ovqat keltiradi. Bu xildagi tirikchilik butun xizmatkorlik davrida Murodga muyassar bo'lmagan, bunday xushbaxt bo'lishini xayoliga ham keltirmagandi.

Murod bunchalik baxtli bo'lishining boisi xotinining muborak poyqadami va o'g'lining baxtidan deb bilardi. Shuning uchun ularni behad sevardi.

Uyiga kelishi bilan Murodning uzun kun qilgan mehnat charchoqligi ko'tarilardi: xotini oldiga sut-qatiq ko'yni, O'g'li tizzasiga o'tirib, soqolini o'ynar, yuzlaridan o'pib, otasiga o'ptirardi.

Shodi otasiga shu qadar o'rgangan va uni shunchalik sevardiki, Murod uyda bo'lganda uning bag'ridan bir daqiqqa ham tushmasdi; uyqusi kelsa ham o'rniga kirib yotmas, otasining bag'rida uxlab qolar va shundan so'nggina uni o'z o'rniga yotqizishardi. Sora ham o'zini behad baxtli his etardi. Agar u Murodga turmushga chiqib, yolg'izlik g'amidan qutulgan bo'lsa, Shodi tug'ilgandan so'ng ota-onasi va o'lgan qarindosh-urug'larining dog'-hasratini unutgandi. Shodisi bor – hamma narsasi bor. U ham Murod singari uydagi yaxshiliklarning boisi o'zining muborak poyqadami va o'zi tuqqan Shodining sharofati deb faxrlanardi.

Shodi endi uch yoshga kirgan bo'lsa ham, lekin kattalarcha harakat qilardi. Bir tomondan, u o'zini oilaning mustaqil a'zosi deb bilsa, ikkinchi tomondan, o'zini burchli kishi hisoblardi. Endi u ro'zg'or ishlarida onasiga yordamlashishga harakat qilardi: agar onasi echkilarni sog'moqchi bo'lsa, uloqchalarni ushlab turardi, quv pishirib, maska ajratmoqchi bo'lsa, oftobani quv oldiga keltirar; onasi kir yuvguday bo'lsa, qo'lqovoqda qozondan issiq suv tashib tog'oraga quyib berardi...

V

Bir kuni Murod xotinidan ertaroq uyqudan turdi. Yuz-
llarini yuvgach, xotinini uyg'otib:

Men bu kecha xo'jayinnikida ovqatlanmayman, kelib
ular bilan ovqatlanaman. Sen bugun sutlaringni pishirib,
qattiq ivitmay, kechqurun bir sersut shirguruch qilgin, ertaroq
tayyorlab, men bugun shomdan oldinroq kelaman, – dedi.

Murod ishga jo'nab ketdi. Sora ham o'rnidan turib
muzgor ishlariga kirishib ketdi. Shodi uyg'ongunga qadar
qamushlarni tayyorlab qo'ydi.

Shodi uyg'onib, yotgan joyida:

Oyi, echkilarni sog'dingizmi? – deb so'radi.

Sog'dim, nima edi? – dedi hovli supurib yurgan Sora.

Ola echkini ham sog'dingizmi? – yana so'radi u.

Uni kelgusi yili sog'aman, hali u bola, ona bo'lganidan
so'ng sut beradi, – javob berdi Sora.

Yo'q, men ko'rdim, u ham sut beradi, – dedi-da o'rnidan
turib, chirog'poyaga yopishdi va uni tashqariga ko'tarib chiq-
moqchi bo'ldi. Lekin uddalay olmay, yiqilib tushdi, uning
ustidagi qora chiroq silkinib, yog'i har tomonga sachradi, uy
palosini yoqqa bulg'adi. Shodi yig'lay boshladi.

Chirog'poyaning taraqlashi va Shodining yig'isini eshit-
gan Sora:

Nima bo'ldi, nima bo'ldi? – deb yugurib uyga kirdi.

Sora xona o'rtasidagi chirog'poya va chirog'ni olib:

Yig'lama, bu safar urmayman, bundan so'ng hushyor
bo'lib yur, yana biron narsani urib yiqitma, – dedi.

– Nega ola echkicha sut bermaydi, deysan. Men chi-
rog'poyani ko'tarib chiqmoqchi bo'luvdim, o'zi yiqildi-da,
dedi u.

Sora taajjublanib qarasa Shodining qop-qora ko'zlari ko'z
yoshi bilan charaqlab, endi oftob o'z sepini yoygan usti shab-

nam bilan qoplangan nargisga o'xshab ketgandi. Qo'rqin uyat hissidan oq-qizil tovlanib ketgan yuzi atirguldai jil lanib turardi.

Sora jondan aziz o'g'ilchasini bag'riga bosib, yuz ko'zlaridan to'yguncha o'pdi.

Bolaning etagi Soraga tekkandan so'ng uning ho'l ek ligini sezib, uni o'zidan nariroqda tutdi va:

– Sen bu kecha gunoh qilibsan, shuning uchun yig'la ekansan-da, – deb taxmondan Shodining toza ko'ylagini oldi.

– Men ho'l qilganim yo'q, ola echkinig suti tegdi, – dedi Sorani taajjubda qoldirdi Shodi.

– Ayt-chi, qanday qilib ola echkichaning suti etagingga tegdi? – so'radi Sora unga ko'ylakni kiygiza turib.

– Men uyqumda chirog'poyani hovli o'rtasiga qo'yib:

*Ha dursi, dursi, dursi.
Chiqa qol, mana kursi!*

desam, ola echkicha chirog'poya ustiga chiqdi va emchaklaridan sut oqa boshladi. Men uning suti yerga to'kilmasin deb etagimni tutdim. Lekin sut etagimdan o'tib, oyoqlarimni ho'l qilib, yerga oqib tushdi, – dedi Shodi.

Sora o'g'lining tushi va ishidan zavqlanib, uning hushiga quyidagi ashula bilan ta'bir aytdi:

*O'zi qora echkiginang.
Buti ola echkiginang.
Kelgusi yil berar senga,
Sutni rosa echkiginang!*

– Yo'q, mening ola tuyog'im shu yil sut beradi, hozir sut beradi. Sen chirog'poyani hovliga chiqazib ber, sut berishini ko'rasan, – turib oldi Shodi.

Chunki, onasining urmasligi va urishmasligini bilardi.

Sora sevimli o'g'lining shashtini qaytarmadi, gapini qaytarmadi, boshiga ko'ngli bo'lmadi – chirog'poyani hovliga chiqazib qo'ydi-da.

Mana, ola echkingni sog'a ber, – dedi. Shodi chirog'poyaga yoniga o'tirib olib:

*Ha dursi, dursi, dursi,
Chiqa qol, mana kursi! –*

del ashula ayta boshladi.

Ashulani eshitgach, Shodi bilan tengdosh va hozir ikki uloqning onasi bo'lgan echki yugurib kelib, chirog'poyaga chiqib va gir aylana boshladi.

Shu echkning ikkinchi bolasi ola uloqcha ham onasining orqasidan kelib, chirog'poya ustiga chiqmoqchi bo'lib sakraganida onasi unga joy bo'shatdi – irg'ib yerga tushdi. Ola echkicha chirog'poya ustida o'yinga tushdi, lekin sut bermadi. Shodi sinchiklab qarasa ham uning yelinini ko'ra olmadi.

Oyi, bu sut bermadi, emchagi ham yo'q, – dedi Shodi ma'yus ohangda.

Men bu yil sut bermaydi demabmidim, – ta'kidladi Sora.

Shodi tushida uni aldagan aldamchi ola echkichani chirog'poya ustidan haydab tushirib, uning o'rniga bir nechta uloqlarni keltirib, chirog'poyaga birma-bir chiqarib o'ynataverdi...

– Kel, ovqat yeymiz, – dedi hovlini supurib bo'lib qo'lini yuvib turgan Sora.

Shodi echkibozlikni qo'yib, onasi tomon yugurdi. Sora o'g'lining yuz-qo'llarini yuvib, dasturxon boshiga o'tqazdi...

Sora ovqatdan so'ng uy eshigini qullab, echkilarni hovlidan chiqarib dalaga olib bormoqchi bo'ldi.

Shodi ham otasi yasab bergan boshi egri tayoqchani ushlab, echkilar ortidan yo'lga tushdi.

Shodi ko'cha eshigidan chiqqach, Sora eshik orqasiga tamba qo'yib, o'zi hovlining pastki devoridan ko'chaga oshib tushdi.

Ona-bola echkilarni dalaga har kuni o'tlatadigan yerga olib bordilar. Shodi kaltagini qo'lga olib, echkilar kishilarining ekiniga kirib ketmasin deb, o'tloqning ekinzorga tutashgan tomonida turar, ekinzor chetidan yovvoyi o'tlarni yulib, echkilarga irg'itardi.

Sora supaga o'xshagan bir balandlikka o'tirib, urchuq yigirishga kirishdi. Uning urchug'i nihoyatda sodda: uzunchoq qayroqtoshga ko'ndalang bog'langan bir yog'ochchadan iborat edi, xolos. U etagidagi taralgan echki yunglaridan bir hovuchini changaliga olib, uning bir uchini ipga o'xshatib o'rab, urchuqning cho'pchasiga bog'ladi va yungli qo'lini baland ko'tarib ikkinchi qo'li bilan qayroqni gir aylantirib qo'yib yubordi. Urchuq aylanishi bilan yung chiyralib ip bo'lardi. Har safar bir changal yung cho'zilib ingichka bo'lib, chiyralib pishitilgan ip uzayganida urchuq yerga tegardi. Sora pishigan ipni qayroqqa o'rab, yana bir changal yung olib, ishini davom ettirardi...

Oftob qiyomga kelganda echkilar to'yib, ovqat ye-yishni to'xtatdilar. Sora yung va urchuqni yig'ishtira turib o'g'liga:

– Echkilarni hayda, buloq boshiga boramiz, – dedi.

Ona-bola echkilarni olib borib, buloqdan sug'ordilar: echkilar suv ichgach, yotishdi. Sora bilan o'g'ilchasi uydan olib kelgan nonlarini buloq suviga ivitib yedilar va buloqdan hovuchlab suv ichdilar.

Ovqatdan so'ng Sora yana urchuq yigirishga kirishdi. Bu safar Shodi unga yordamlashdi. Shodi urchuqning yog'ochchasiga bog'langan ipdan ushlab aylantirar, Sora esa etagidagi yunglarni ketma-ket ulab turardi. Pishigan ip qancha uzaysa, Shodi ham shuncha onasidan uzoqlashardi. Ellik qadamcha borilgach, onasining ruxsati bilan pishigan ipni o'rab-o'rab, qaytib kelardi-da, yana ipning uchidan ushlab tortib ketardi. Sora peshingacha yolg'iz qancha ip yigirgan bo'lsa, echkilar bir soat dam olgan paytda o'g'li yordamida o'shancha ip yigirdi.

Echkilar yotganlaricha kavsh qaytarardilar. O'tlab yurganda chala chaynab yutgan ovqatlarini ikkinchi marta chaynab hazm qilardilar. Shu yo'sinda, ular qorinlarini bir oz bo'shatib, o'rinlaridan turdilar-da, o'tlashga kirishdilar.

Sora ham ishini yig'ishtirib, o'g'li bilan echkilarni haydab, sero't jarlikka olib bordi...

* * *

Sora peshindan so'ng mollarini uzoq boqa olmadi: qattiq shamol turib, o'tloq va ekinzorlarni chang-to'zon qopladi; ko'p o'tmay, tog' boshida katta bulut paydo bo'ldi, bulut poezdning o'txonasidan chiqqan tutunga o'xshab, tezlik bilan qishloq tomon yopirilib kela boshladi.

Havoning avzoyidan tezda yomg'ir, to'fon boshlanajagini sezgan Sora irg'ib o'rnidan turib, o'g'li bilan birga echkilarni uyi tomon haydadi...

Uyga yetmasdanoq Sora momaqalldiroqning to'p ovozigaga o'xshash guldur-guldurini eshitdi. Mollarni hovliga kiritganda yomg'ir ham yog'a boshladi.

Sora echkilarni joylab, sel ostida qolib ketgan o'g'ilchasini uyga olib kirdi, unga quruq kiyim kiygizdi, o'zi ham ust-boshlarini almashtirdi.

Yomg'ir yuz minglab chelakdan birvarakayiga suv quya-yotgandek shiddat bilan yog'ar, shamolning guvillashi, havo

va bulutning guldurashi yomg'irning sharillashiga qo'shilib, vahimali bir g'ulg'ula kashf etar edi.

Ona-bola Sora bilan Shodi qiya ochiq eshikdan yomg'irning yog'ishini tomosha qilardi. Havoning guldurashi shiddatli tus olganda Shodi onasining pinjiga tiqilib, boshini uning etagi ostiga yashirardi.

Kech peshinda yomg'ir tindi. Sora hovli yuzida xalqob suvlarni bir chekkaga haydab, o'choq boshini quritgach, shirguruch pishirishga kirishdi. U erining xohishiga muvofiq bugun ovqatni vaqtliroq tayyorlab, butun oila jam bo'lib ovqatlanamiz, degan umidda edi. U o'choqqa olov yoqdi, Shodi esa onasining rad etishiga qaramay, o'choq boshiga o'tin keltirmoqchi bo'lib uydan chiqdi. Hovli yuzidagi o'tinlar jiqqa ho'l bo'lganidan yonmas yoki tutab yonardi.

– Menga dastyorlik qilmoqchi bo'lsang, – dedi Sora Shodi qarab, – molxonadan o'tin keltir, u yerda quruq o'tin bor.

Shodi hovli yuzidagi suvda shaloplab yurib o'tin tashir, onasi ovqat pishirardi...

Shirguruch qaynagach, Sora qozonning o'tini bir oz tortib qo'yib, uyni yig'ishtirishga kirishdi: Shodi bugun yog'to'kkan kigizni dog'lari ko'rinmasligi uchun teskari qilib soldi, yomg'irda ivigan chirog'poyani latta bilan artib, uyga krigizdi, chiroqni artib, yog' quyib, chirog'poya ustiga qo'ydi, paxtadan pilik yasab, chiroqqa soldi; uyning to'riga ovqat paytida eri uchun ko'rpachani ikki qavatlab solib, dasturxon yozdi-da, unga bitta non qo'yib, ustini sochiq bilan yopdi.

Sora uyni saranjomlab bo'lgach, yana qozon boshiga bordi, o'choqqa bir-ikki dona o'tin tashlab, qaynovi to'xtagan qozonni yana qaynatib qo'ydi.

Qozonni kovlagach, kosaga sariyog' solib, ilisin uchun o'choq yoniga qo'ydi-da, o'zi echki sog'ishga ketdi. Echki sog'ishda Shodi unga ko'maklashdi.

kan botib, shirguruch pishgan bo'lsa ham, Muroddan hamon darak yo'q edi.

Sora qozonning olovini tamoman o'chirib, uyga kirib chiqqan bo'lsa, u darvozaga yaqinlashib o'tib ketgandan so'ng boshqa kishi ekanligini bilardi.

Qorong'i oqshom. O'tgan-ketganlarning kim ekanligini aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun Sora uzoqdan keluvchi har bir kishini eri deb o'ylar, u darvozaga yaqinlashib o'tib ketgandan so'ng boshqa kishi ekanligini bilardi.

Shodini uyqu bosib, mudray boshladi, yiqilib ham tushdi, ammo onasi uyg'otgach, uyqusi qochdi. U yuragi siqilgan holda:

Dadam qachon keladi? – deb so'radi.

Ammo vaqt xuftondan o'tsa ham, Muroddan darak bo'lmadi. Sora bolani olib uyga kirishga majbur bo'ldi.

Sora Shodini uyda qoldirib, qozon boshiga bordi, shirguruch berch loyday qotib qolgandi. Bir tovoqqa bir kapgir qozon, Shodiga olib kirdi. Shodi uxlab qolgandi. Uyg'otib ovqat yedirmoqchi bo'ldi, ammo u uyg'onmadi. Sora uyning bir burchagiga joy solib, bolani yotqizib, o'zi erini kutib olish uchun yana ko'chaga chiqdi...

Endi ko'chadan hech kimsa o'tmas, hamma allaqachon uy-uyiga ketgan edi... Sora bo'm-bo'sh ko'chada bir necha soat Murodning yo'liga ko'z tikib o'tirgach, «bola qo'rqmasin» deb uyga kirdi.

Bola tinch uxlardi. Ammo Soraning ko'ngli tinchimadi. U uyda o'tira olmay, ko'chaga chiqdi, yana uyga kirdi...

Bir necha bor ko'chaga chiqib, uyga kirgach, o'g'lining yoniga o'tirib, uning yuziga termilib xayolga toldi:

– Unga nima bo'ldi ekan?..

Sora o'z-o'ziga bergan bu savolga javob topa olmasdi. Shu vaqt tashqarida oyoq tovushi eshitildi.

«Xayriyat keldi», – deb o‘yladi Sora va yuragi shodlikdan tepa boshladi, o‘zini sal bosgach, eriga peshvoz chiqish uchun o‘rnidan turdi.

Sora eshikka chiqqanda, qarshisida boyning katta xotini paydo bo‘ldi. Sora boshidan bir chelak muzday suv quyib yuborilganday birdan qaltirab ketdi.

Bir vaqtning o‘zida bir-biriga qarama-qarshi ikki holatga o‘ta xursandlik va qattiq xafalikka duchor bo‘lgan Sora o‘zini yo‘qotayozdi. U o‘zini tutib boyvuchchadan erini so‘rashga ulgurmagan edi hamki, uning o‘zi:

– Murod aka qaerda? – deb so‘rab qoldi.

Bu gap Soraga boshidan bir chelak qaynoq suv quyib yuborganday ta’sir etdi. Boshidan-oyog‘igacha jizillab kuyib ketganday bo‘ldi. U zo‘rg‘a:

– Uning xabarini men sizdan bilmoqchi edim, – deya oldi, xolos.

Boyvuchcha ma’lumot bera boshladi:

– Bo‘ron boshlangandan so‘ng boy amakingiz Shoqulni chaqirib Muroddan xabar olish uchun cho‘lga yubordilar. Agar qo‘ylar bo‘ronda qochib ketgan bo‘lsa, ularni topib kelishda Murodga yordam bergin, deb tayinladilar. Men «Murod och qolgandir», deb Shoquldan unga ikkita non berib yubordim.

– Shoqul uni dashtdan topmabdimi? – deya uning so‘zini bo‘ldi qaltirab Sora.

– Sabr qiling, hammasini aytib beraman, – deya boyvuchcha gapini davom ettirdi, – Shoqul yaylovga borib na Murodni topibdi, na qo‘ylarni. Shundan so‘ng u dashtning hamma tomonini: qamishzorlarni, chakalakzorlarni bir boshdan qidiribdi. Kun botish oldida qo‘ylarning bir qismini bir qamishzorda ko‘ribdi...

– Otasi qo‘ylarning oldida yo‘q ekanmi? – so‘radi Sora.

– Sabr qiling, aytaman. Shoqul bir bo‘rining bir qo‘yni yorib yeb yotganini ko‘rib qolibdi va darhol uni otib o‘ldiribdi-

...yana Murodni va qolgan qo'ylarni qidira boshlabdi. Lekin qancha axtarsa ham hech darak topa olmabdi, shundan so'ng topgan qo'ylarini olib kelaveribdi, – dedi boybibi.

– Axir Murodga nima bo'пти? – dedi Sora, go'yo dunyoning tanom og'irliklari boshida tegirmon toshiday aylana-yotgan kabi bir holatda.

Aytdim-ku, – dedi boyvuchcha ovozini bir oz balandroq ko'tarib, – undan darak topmabdi.

«Uning boshiga qanday kulfat tushdi ekan?» – deb ertadan so'ramoqchi edim, – dedi Sora ham ovozini barala ko'tarib.

«Boy amakingiz ko'p qo'ylar nobud bo'lganidan qo'rtib mendan yashiringan bo'lsa ajab emas yoki biron tartafta ketib qolgandir. Lekin, osmondan kelgan qazo uchun men uni koyimayman. Soraga aytgin, agar xabarini topsa, uni oldinga yuborsin, ko'nglini yupatib, yana o'z ishini qila berishini buyuraman!» dedilar, – deb ta'kidladi boyvuchcha.

Uning daragini men qaydan topaman? – dedi Sora past tovushda.

Ertazinda biz Shoqulni uni axtarish uchun yana dashtga yuboramiz, – degach, boyvuchcha chiqib ketdi.

* * *

Ikkinchi kuni ham Murod uyga qaytmadi. Bugun ham boybibi bemahalda Soraning uyiga kirib keldi. Bugun keltirgan xabari kechagidan dahshatliroq edi.

Uning aytishicha, Shoqul dashtga borib ertadan kechpacha hamma yoqni axtaribdi, lekin hech qaerda Muroddan biron nishona topmabdi. Umidi uzilgandan so'ng, qo'ylar qochib yashiringan to'qayzorga kirib, u yerni ham boshdan-oyoq qidiribdi, baribir undan asar topolmabdi. Ammo, ko'ldan qaytib chiqayotganida qamishlar ostida qon izini,

yirtilib maydalangan kiyimlar va odam suyagiga o'xshash ustixonlarni ko'ribdi...

Bu xabarni eshitib Sorada yuz bergan ahvolni, dard bilan to'la dilining iztirobini tasvirlashga qalam ojizlik qiladi.

Sora «voy» deb ikki qo'li bilan ko'ksini changalladi, go'yo qiniga sig'may turgan yuragini uzib tashlamoqchi bo'ldi. U ko'ksini g'ijimladi, oyog'i ostida dinamit portlagandek bir sakrab tushdi-da, yiqildi. U xuddi zaharli ilon chaqqandek to'lg'anib, oqarib, qo'l-oyoqlari holsizlanib, cho'zilib qoldi.

Boyvuchcha Soraning o'lganligiga muqarrar ishongandi, lekin cho'ntagidagi ko'zgusini olib og'ziga tutganida, oyna yuzida g'ubor paydo bo'ldi. Shundagina boyvuchcha uning hali tirikligini bildi.

Boyvuchcha ketganda, uyda yolg'iz bolaninggina yig'isi eshitalardi, xolos.

VI

Murod yo'qolgandan so'ng oradan bir hafta o'tgach, Eshonqulboy qishloqning imom va oqsoqolini Soraning oldiga sovchilikka yubordi. Ular Murodni «bo'ri yegan»iga afsus-nadomat qilgandan so'ng, boyning istagini Soraga ma'lum qildilar.

Ularning aytishicha, boy Murodning halok bo'lganidan juda xafa bo'libdi, uning arvohini shod etish va bir necha yillik xizmati evaziga uning o'g'liga otalik qilmoqchi bo'libdi. Shuning uchun Sorani shar'iy nikoh bilan o'ziga xotin qilib olishga qaror qilibdi.

Bu gapni eshitgan Sora birdaniga yig'lab yubordi va bir oz ko'nglini bo'shatgach:

– Avvalambor erimni bo'ri yeganmi, yo'qmi? Bu hali ma'lum emas. Ikkinchidan, bordi-yu, bo'ri yegan bo'lsa, hali-beri men erga chiqishni xohlamayman, o'g'ilchamga o'gay

ni kerak emas. Agar umri uzoq bo'lsa, o'sib, ulg'ayar. Yurtimizda bunga o'xshagan otasiz va kimsasiz bolalar oz emas, dedi.

Eshonqulboy o'z talabini rad etgan Sorani qo'lga kiritish uchun biron qat'iy tadbir ko'rmoqchi bo'lib yurganida, qishloqda shunday ovoza tarqaldi: Amudaryo labidagi bir qishloq aholisi boyning qishlog'idan ancha pastroqda – daryo chetida suv oqizib kelgan bir murdani topibdilar. O'sha qishloqdan xabar keltirgan kishi o'likni o'z ko'zi bilan ko'ribdi, o'lik Murodga juda ham o'xsharkan.

Murodni kimdir otib, suvga tashlab yuborganga o'xshaydi, – debdi u.

Bu xabarni eshitgach, Sora o'g'ilchasini opichlab, daryo bo'ylab o'sha qishloqqa bordi. Daryo labidan axtarib borib, Murodning qabrini ochib ko'rdi: o'lik shishib, yorilgan, asl qiyofasini yo'qotgan edi. Shuning uchun Sora bu o'likning erining murdasimi, yoki o'zganikimi, aniq bila olmadi. Buning ustiga, u o'likni ko'rish bilan hushidan ketdi va o'ziga kelgach, o'qning izi bormi-yo'qmi, deb murdani har tomonga ag'darib ko'rdi. Murda chiriganligi sababli ko'p yeri ilma-teshik bo'lib ketganidan o'q tekkan yerni aniqlay olmadi.

Sora erining taqdiri nima bo'lganini aniqlay olmay, ko'z yoshi to'ka-to'ka yuragi yuz pora bo'lib uyiga qaytdi. Lekin erining yo'qolganiga ancha bo'lganligi, uning bo'ri yegani yoki o'ldirilgani aniq ekanligi uchun u aza ochdi.

Soraning aza kunlari o'tmasdanoq, Eshonqulboy ikkinchi marta unga odam yuborib, xotinlikka so'rattirdi va muddaosini durustroq aytirdi. Bu safar boy:

«Sora erining murdasini o'z ko'zi bilan ko'ribdi. Endi erga chiqmaslik uchun unda hech qanday bahona yo'q. Agar yana u «erga chiqmayman» desa, uning bu qishloqda turishiga yo'l qo'ymayman. Chunki, mening qishlog'imda bir juvonning ersiz tirikchilik qilib, juvonlarning haromga yuri-

shiga sabab bo'lishini istamayman. Modomiki, erga chiqishi kerak ekan, men hammadan yaxshiroqman; agar u biron kishini mendan ortiq bilsa, men oyoq qo'ygan dargohga oyoq bosadigan odam bu qishloqdan topilmaydi», – debdi.

Sora ham bu safar gapning ohangini o'zgartirdi: bir benomus, erining kushandasi nomidan kelgan sovchilarga uzr so'rab, bahona axtarib o'tirmadi – og'ziga nima kelsa, o'shani aytib, haydab yubordi.

Lekin boy bular bilan tinchib ketmadi: u avval qishloq kattalarining tomog'ini moyladi va undan so'ng Shoqul boshchiligida bir necha bevoshlarni Soranikiga yubordi. Ular Sorani kechasi o'g'irlab boyga olib borib berdilar. Boy imomni chaqirib, nikoh qildirdi, Sora boyning nikohidagi xotinlari qatoriga kirdi.

* * *

Shunday qilib, Sora boyning nikohiga o'tdi. Lekin hali boy uni o'z xotini deb hisoblamas, hatto Sorani birinchi ko'rganida unga nisbatan paydo bo'lgan havasdan ham asar ko'rinmasdi, Boyning Sorani qo'lga kiritishdan ikki maqsadi bor edi:

Eshonqulboy birinchidan, boylar va shaxsan o'zi biron narsaga og'iz solsa va chang ursa aytganini albatta qilmay qo'ymasligini, agar biror kishi qarshilik ko'rsatsa, oxiri Soradek bosh egishga majbur bo'lajagini hammaga ko'z-ko'z qilmoqchi edi, ikkinchidan, oz bo'lsa-da, haq olib ishlovchi Murodning o'rniga tekinga ishlovchi ikki kishini – bir kanizak va bir qulbachchani qo'lga kiritish niyatida edi.

Shuning uchun ham boy nikohning ikkinchi kunidanoq Sorani uyning og'ir ishlariga, hatto dala ishlariga ham buyura boshladi.

Sora ham avvaldan boyning xotini bo'lishni xohlamagandek, hozir ham o'zini hech qachon boyning xotini hisoblamas-

di. Shuning uchun ham urf-odatga ko'ra, nikoh kechasi zo'rlik bilan kiydirilgan ko'ylakni o'sha zahotiyoq uloqtirib yuborib, o'zining yirtiq-yamoq ust-boshlarini kiyib yura berdi.

Soraning boy eshigidagi zahmatli mehnat ostidagi tirikchiligi o'sha vaqtdagi mehnatkash xotin-qizlarning hayotidan ham og'ir va ayanchli edi. U quldorlik davridagi ishlatish uchun sotib olingan kanizaklar singari ertadan-kechgacha ishlar, qorni to'yib ovqat yemas, usti yolchib kiyim kiymasdi, boy va uning xotinlarining o'sha og'ir tahqirlari ostida ishlardi.

Shodi ham boyning uyida kimsasiz, ota-onasizlarcha darbadarlikda tug'ilgan kuchukbachcha singari yashardi. Uning tirikchiligi suvdan chiqib, qizib turgan qumga tushib jon berayotgan baliqchani eslatardi.

Uni hammadan ko'ra boyning o'g'li Istam azoblardi. U Shodidan uch yosh katta bo'lib, uni har kuni bir necha bor tutib urar, bunday paytlarda Shodi qonqaqshab, yig'lar, Istamning onasi kelib «nega yig'laysan» deb, bola bechorani yana kaltaklardi.

Shodi bir oz ulg'aygach, kunlarning birida o'zining himoya qila olish qudratini sinab ko'rdi — Istam yana ura boshlaganida uning oyog'idan ko'tarib, supadan ag'darib yubordi.

Istamning onasi bu «gunohi» uchun Shodini ham o'zi urdi, ham eriga urdirdi. Go'dak ayiqday barzangining kaltagi zarbidan kasal bo'lib qoldi va bir oydan so'ng oyoqqa turdi. Bir necha vaqtgacha boy va uning xotini ko'zlariga Shodi ko'rintudek bo'lsa, uni urib yurdilar.

Shodi bunday haqorat va kaltaklarga bardosh bera olmay, xo'jayinlarga ko'rinmaslikka qaror qildi: u beda va somon g'aramlarining ichiga, shox-shabballarning orqasiga bekinib yotib yurdi.

Butun hayoti o'g'li bilan payvand bo'lgan va uni jonidan ham aziz ko'radigan mehribon onasi unga yordam bera

olmas, hatto bir parcha qotgan nonni ham unga yashirincha berardi. Boy Sorani o'z nikohiga olgan kundan beri Shodini biron marta ham o'z ismi bilan chaqirmas, doim uni «yetimcha» deb chaqirar, «yetimcha» deb ishga buyurar va hatto «yetimcha» deb urar edi.

Boyning boshqa oila a'zolari ham uni «etimcha» deb chaqiradigan bo'lib qolishdi.

Shodi ulg'ayg'ach, kichiklikni ifodalaydigan «cha» qo'shimchasini tushirib qoldirib, «etim» deb ataydigan bo'ldilar.

Bora-bora uning asl ismi xotirdan ko'tarildi. Hatto Shodining o'zidan ham «noming nima?» deb so'rasalar, «etim» deb javob beradigan bo'lib qoldi.

Shuning uchun ham biz endi hikoyamiz davomida uni «etim» deb ataymiz, ba'zan otasining nomini qo'shib «etim Murod o'g'li» deb yuritamiz.

VII

Fevral oyi. Qor aralash yomg'ir yog'ib turardi, ba'zan qattiq izg'irin shamol esardi. Keng, ochiq maydonda juda ko'p kishilar ana shu qor-yomg'ir ostida tik turardilar. Daryo labida ular jon saqlaydigan biron boshpana yo'q: na qishloq, na g'or va na imorat bor. Faqat karbosdan tikilgan jigar rang chodir ko'zga tashlanardi, xolos. Uning ustiga qizil matodan gul tikilgan bo'lib, old qismiga yo'l-yo'l matodan (shomiyo-na) ayvonga o'xshash bir joy hozirlangandi.

Chodirda hech kim yo'q edi, lekin uning oldida shomiyonada sipohilarnikidek sholg'omsimon salla o'ragan, egni-ga bahyali buxorocho chopon va oyog'iga poshnasi baland amirkon etik kiygan uch-to'rt nafar qorovulnamo kishilar turardi. Ular bellariga oq fo'ta bog'lagan bo'lib, bu ularning amir saroyining past tabaqadagi xizmatchilaridan ekanini ko'rsatib turardi.

Ular chodir atrofini qo‘riqlashar, bu yerda to‘planib turgan kishilarni chodirga yuz qadamdan beriga yo‘latmas, hatto biron kishi chodirga tikilib qarasa, ulardan biri:

Bu tomonga qarama! Ko‘zingni yum! – deb baqirar edi.

Uzoqdan chopib kelayotgan otliq ko‘rindi: to‘planganlarning diqqati bir zum o‘sha tomonga jalb bo‘ldi. Otliq chodir oldiga yetib kelib, shomiyona ostidagi kishilarga qaratib:

Hazrati oliyning ko‘chlari yo‘lga tushdi, – dedi-da, otim orqaga burib, choptirib ketdi.

Bir-ikki daqiqadan so‘ng boshqa bir kishi ot choptirib kelib:

Ulug‘ zot ot so‘rabdilar, – dedi-yu, bu ham kelgan yo‘liga qaytib ketdi.

Sal fursat o‘tmay yana bir otliq kelib:

Zoti humoyun otlari egarini ziynatladilar (ya‘ni otlariga mindilar), – deb kelgan iziga ravona bo‘ldi.

Shundan so‘ng bu harakat bir necha bor takrorlandi. Har ikki-uch daqiqada bir-ikki kishi ot choptirib kelib, iziga yana qaytar edi.

Lekin bu xildagi bekordan-bekorga ot choparlar uzoq vaqt davom etmadi. Egar orqasiga gilamga o‘ralgan karavot boylab olgan bir kishi ot choptirib keldi.

Yig‘ilganlardan biri – oyog‘ida choriq, yupungina va kiyingan bir kishi yonida turgan sipohinamo bir odamdan:

– Bu nimasi? – deb so‘radi.

– Bu karavot g‘oyat mo‘tabar. Janobi oliy har gal biron joyda yotmoqchi bo‘lsalar, shu karavotda yotadilar, – deb javob berdi u.

Karavot keltirganning orqasidan bir otliq ko‘rindi. U bir qozonni qopga solib, egar qoshida ushlagan holda chopib keldi.

– Bu nima? – yana so‘radi haligi kishi.

– Bu qozon. Unda yangi damlangan palov bor, o'choq boshidan ko'tarib kelayotir, – dedi boyagi sipohi, – agar janobi oliylari biror manzilda palov so'ragudek bo'lsalar, suzib beradilar.

Yana bir otliq chopib keldi. Uning oti ustida g'isht qolip singari bir juft ikki ko'zli chorcho'p bo'lib, uning har biriga bittadan sopol ko'za o'rnatilgan (hammasi to'rt ko'za), otliq esa, ularning o'rtasiga ikki oyog'ini otning gardaniga osiltirib, qo'liga xitoy chinnisini ushlagan holda kelardi.

– Bu nima? – deb so'radi boyagi yupun odam.

– Bu kishini «so'fiobkash» deydilar, bu ko'zalar tiniq suv bilan to'ldirilgan, janobi oliy suv so'rganlarida o'sha ko'zalardan ana shu kosaga quyib beradilar, – dedi.

Uning orqasidan bir otliq belbog'iga kosa solib uning to'rt burchagidan ushlab, osiltirib olgan holda chopib keldi.

– Bu nima? – yana so'radi haligi kishi.

– Bu odam sharbatdordir. Belbog'idagi kosa sharbatga to'la. Mabodo janobi oliy sharbat talab qilsalar, sharbatdor shu kosani tutadi.

Shu payt yo'l chetidagi bir kovakdan yumronqoziq ko'rinib qoldi. Tomoshabinlardan bir necha kishi tosh-kesak olib unga hujum qildilar, u esa odamlardan qo'rqib o'zini yo'l o'rtasiga tashladi. Sharbatdorning oti hurkib, orqaga tisarildi. Sharbatdor otdan yiqildi, qo'lidagi kosa tomoshabinlar oldiga tushib chil-chil bo'ldi. Ichida sharbat yo'q ekan.

– Kosa bo'sh ekan-ku, – dedi yupun odam sipohiga qarab, «yolg'onchi ekansan-ku» degan ohangda.

Sipohinamo uyalib, qizarib izza bo'lib ketdi. Shu vaqt uning yonidagi bir kishi gapga aralashdi.

– Balkim amir o'sha karavotda ham umrida biron marta yotmagandir. Qozon ham bo'sh, ko'zalar ham suvsizdir. Lekin ularni el nazarida «podsholik dabdabasini jilvalantirmoq» uchun olib yuradilar va yugur- yugur qiladilar.

Endi yo‘ldan yakka-yolg‘iz otiqlar emas, balki guruh-guruh ot-aravalar to‘rt tomonga loy sachratib, bir-birini surib o‘ta boshladi. Ana shu aravalar qatorida soyabonli bir arava ko‘rindi. Aravaning soyaboni kigizdan bo‘lib, hamma tomon mahkamlangandi.

Bu o‘rda aravasi, – dedi sipohinamo, hech kim undan bu qanday arava deb so‘ramagan bo‘lsa ham, yana davom etdi:

– Uning ichida janobi oliyning muhtaram haramlari va aziz xotinlari o‘tiribdilar. Ularni nomahramlarning nazaridan asramoq uchun soyabonni mahkam bekitganlar.

Arava chodir oldiga borib to‘xtadi. Soyabon tagida turgan xizmatkorlardan biri kigizning bir chetini ko‘tarib ochdi – aravadan o‘n olti-o‘n yetti yashar bir necha o‘g‘il bola birin-ketin tushib, chodirga kirdi. Ularning ust-boshi toza bo‘lsa-da, rangi za‘faronday sarg‘ayib ketgan, zahil ediki, xuddi uzoq yillar zindonda yotib chiqqan yoki bir necha yillik bemorlikdan endi bosh ko‘targan kishini eslatardi.

– Bular kimlar? – deb so‘radi boyagi yupun kishi, u har bir narsani so‘rab bilib olishni istardi. Ammo har bir narsaga izoh berib turgan mahmadona sipohinamo kishi u aravani yaqindagina «o‘rda aravasi» degan bo‘lsa ham, bu savolni javobsiz qoldirdi. So‘zi yolg‘on chiqib sharmanda bo‘lgani uchun teskari qarab, o‘zini eshitmaganga soldi.

Lekin bu savolga boshqa bir kishi javob berdi.

– Bular amir zulm-zo‘rluk bilan ota-onalaridan tortib olgan bolalar: ular shunday mazlum asirlarki, amir ularni o‘zining murdor dargohida dahshatli asirlikda saqlaydi; ular nihollar-dir kim, amirning iflos oyog‘i ostida poymol bo‘lganlar; ular yangi ochila boshlagan g‘unchalardir kim, zulm iskanjasida majruhlanganlar; ular saroy hayotidan nafratlanadilar, azob chekadilar, alam ko‘radilar, shuning uchun ham ular garchi tirik bo‘lsalar ham, ranglari murdaga o‘xshaydi.

Aravalar va otliqlar o'tib bo'lgach, orqadan amirning askarlari ko'rindi. Ularning ust-boshlari kavkazcha bo'lib, o'zlari ham «Kavkaz» askarlar deb atalardilar.

Kavkaz askarlari ortidan amirning udaychi va shig'ovullari paydo bo'ldi. Ularning qo'lida boshi zarhal qilingan to'qmoqlar bo'lib, tilla egar-jabduqli otlarga minib olgandilar. Ammo bular ot choptirmay, asta-sekin kelardilar. Ulardan biri:

– Amir hazratlari muzaffar va mansur bo'lsinlar! – desa, boshqa birov:

– Hazrati amir, jahongir bo'lsinlar! Qilichlari burro, safarlari bexatar bo'lsin, – derdi.

Uchinchisi xuddi ularga javob bergandek:

– Ilohi omin! – der edi.

Choriq kiygan yupun kishi bu so'zlarni eshitib, xa-xolab kulib yubordi.

– Nega kulasan? – deb so'radi birov.

– Amir qo'liga qurol olib o'zini yo'qotishga ahd qilgan mazlum mehnatkashlarga qarshi yurishda zafar topolmadi, topa olmaydi ham. Shuning uchun, ko'rib turibmizki, mamlakatdan quvilib, sharmandalarcha begona yurtlarga qochib ketayotir. Ular hali ham «amir hazratlari muzaffaru mansur bo'lsinlar, qilichlari burro bo'lsin, jahongir bo'lsinlar», deb baqirmoqdalar. Axir, bu kulgili emasmi, – dedi u.

– Qurollangan sitamdiyda mehnatkashlar qo'lidan boshini qutqarib qochib ketishi ham amir uchun bir zafardir, – dedi boshqa bir kishi va so'zini davom ettirdi, – u jahongir bo'lmasa ham begona yurtda darbadar yurib, «jahongard» bo'ladi.

Yana bir to'da askarlar ko'rindi. O'rtasida «amir kelayotir» desalar ham, ularni qurollangan afg'onlar o'rab olgani uchun, hech kim uni ko'ra olmasdi.

Nega amir o'ziga afg'onlardan posbonlar tanladi ekan? Ko'radi choriq kiygan yupun.

Chunki, u xalqqa ko'p zulm qilgan, hammadan qo'rqadi, o'zining sodiq saroy lashkarlaridan ham ko'ngli to'q emas. Shuning uchun ham xalqni talon-toroj qilib yiqqan pullarga yollab olgan begona askarlar himoyasi ostida qochib ketayotgan deb ta'kidladi tomoshabinlardan biri.

Amir chodir oldida otdan tushib, ichkari kirib ko'zdan to'yib bo'ldi. Bir ozdan keyin xizmatkorlardan biri bir amaldorni amir oldiga chaqirib ketdi. U amaldor besh daqiqadan so'ng chiqib, bir guruh tomoshabinlar oldiga borib boylar, mahalliy amaldorlar, mullalarni, arbobu oqsoqollarni ajratib, bir chetga chiqarib, ularga amirning salom va topshiriqlarini yetkazdi:

«Janobi oliy taqdiru non-nasib hamda ollohi taoloning nodasiga ko'ra, qo'shni mamlakat tuprog'iga o'tadilar. U kishi o'zlarining sodiq qullarining bolsheviklar qo'lida azob tortishlarini istamaydilar. Shuning uchun ham sizlarga rahm aylab, «boylar barcha qimmatbaho mollari, naqd pullari, qurollarini va bola-chaqalarini olib, ortimdan daryodan o'tsinlar» dedilar. Inchunin, hazrati oliy marhamat ayladilarkī, boylar yetim, cho'pon va xizmatkorlarini ham daryodan olib o'tsinlar, toki qadrdon do'stimiz bo'lgan qo'shni mamlakat tuprog'ida ham dehqonchilik, chorvachilik va savdogarlikni yo'lga qo'ya olsinlar; mullalar bu yerda qolib bizning haqqimizga duo qilsinlar va xalqni bizga qarshitig' ko'targan bolsheviklar hamda yalangoyoqlarga qarshi qo'zg'atsinlar; mahalliy amaldorlar esa qo'llariga qurol olib qishloqlarni talon-toroj qilsinlar, binolar va ekinzorlarga o't qo'ysinlar, xalqni qirib, xonavayron etsinlar, toki hamma jonidan to'yib, bizning davlatimizni shod etsin; arbob va oqsoqollar niqoblanib, bolsheviklar hukumatining ichiga kirib olsinlar va imkoniyati boricha ularning ishini qo'porishga harakat qilsinlar...»

«Mamlakat a'yonlari» amirning topshirig'ini eshitgach:

– Hammamiz, mol-jonimiz, xotin, bola-chaqalarimiz bilan hazrati oliy farmonlarining bandasimiz va umid qilamizki, yaqin kunlarda «o'z» mamlakatimizni qo'lga kiritamiz, – deb g'ala-g'ovur ko'tardilar.

Ularning bu shovqin-suroniga javoban, ko'pchiligini yupunlar tashkil etgan omma orasidan biron qo'lini og'ziga qilib hushtak chaldi, boshqa birovi:

– Bundan buyon bu mamlakatni faqat tushingizda ko'ra olasiz xolos, – dedi.

Ammo amir va uning amaldorlari ularni tahqirlagan shaxsni xalq orasidan topib jazolashlari uchun fursat qolmagandi: uzoqdan to'p sadosi eshitildi, amir va amaldorlar o'zlari uchun tayyorlangan kemalarga tushdilar va kemachilar kemalarini Afg'onistonga tomon surdilar.

Amir ko'zdan g'oyib bo'lgach, boylar o'g'illari va o'zlariga yaqin kishilarga cho'lga borib, uchragan poda va qo'ylarni haydab, daryodan olib o'tishni buyurdilar, o'zlari esa qimmatbaho matolari, pul, xotin-xalaj, farzandlarini, xizmatkorlarini olib kelish uchun qishloqlariga jo'nadilar. Shu jumladan, Eshonqulboy ham mollarini haydash uchun Shoqulni yaylovga jo'natib, o'zi qishloq tomon ot choptirib ketdi.

VIII

Daryo labida yelkanli bir necha mahalliy kemalar tayyor turardi. Choparlar dashtdan va yaylovdan haydab kelgan poda, qo'y-echkilarni siqqanicha kemalarga joyladilar. Shunga qaramay, daryo labida talaygina qo'y qolgan – ular uchun kemada joy yo'q edi. Haydab kelgan qo'ylarining oyog'idan bog'lab jonsiz narsadek ustma-ust taxlamoqchi bo'ldilar, lekin, kemachilar bunga rozilik bermadilar.

– Agar kemaga me'yoridan ortiqcha yuk ortsangiz, g'arq bo'ladi, – dedilar.

Qo'ylar ketidan yugura-yiqila daryo labiga yetib kelgan yetim Murod qo'ylar qatori kemaga tushib oldi. Kemaga ko'proq qo'y sig'dirish maqsadida kemachilar bilan janjallashayotganlarning biri yetimning kemaga tushib olganini ko'rib, yugurib bordi-da, uni dast ko'tarib daryo qirg'og'iga otdi:

– Kimning dardiga malham bo'lasan, sening o'rningga bir qo'y o'tsa, bizga foyda, – dedi-da, chetda qolgan qo'ylardan birini tutib kemaga soldi va kemachiga qarab: – Mana bu qo'y anovi bolaning o'rniga joylashdi, – dedi.

Yetim yiqilgan joyidan turib, yugurib kelib kemaga tirmashib chiqmoqchi bo'ldi:

– Onajon, onajonginamga boraman, – deb faryod urib yig'ladi. Ammo mol haydab kelgan boyagi kishi uni kemaga chiqazmadi.

Lekin, yetimning ohu nolasiga rahmi kelgan kemachi uni ko'tarib kemaga oldi-da, o'z yoniga o'tqazib dedi:

– Mayli, kema yuki og'irlashib, g'arq bo'lsa, boylarning mol-mulki nobud bo'ladi, menga nima? Seni esa kema g'arq bo'lganda omon-eson qutqarib onangga topshiraman.

* * *

Yetim Murod daryodan o'tgach, musofirlar yashaydigan joylarni birma-bir qidirib chiqdi, tog' etaklari, dara, dalayu qirlarni, soyu jilg'alarni, jar va g'orlarni ko'zdan kechirdi. Ammo bu joylarda onasidan – daryo kechib yetib olmoqchi bo'lgani yagona mushfiqi mehribonidan asar topmadi.

Daryoga yaqin joylardan onasini topa olmagach, yetim vot mamlakatning ichkarirog'iga kirib bormoqchi bo'lib yo'lga tushdi. U yo'l-yo'lakay oq muhojirlar yashaydigan joylardan o'tdi. Kech kirganda, ochlikdan lohaslandi, dar-

moni quridi. Bir muhojirning uyiga borib, nochorlikdan non so'radi. Uy egasi bir parcha non berish o'rniga:

– Bu musofirchilikda o'zimizni to'yg'izdigu, sen qoldingmi, – deb quvib soldi.

Vaholonki, bu oila a'zolari un to'la qoplarni taxlar, qochish oldidan yopgan nonlarini shamollatar, go'sht tuzlardi. Qo'ylarni sog'ib qatiq ivitish, kuv pishish va qurt quritishga tayyorgarlik ko'rardi.

Yetim o'sha kecha ichaklari buralib og'rigan holda bir ungurga kirib yotdi, lekin uyqusi kelmadi, u yoqdan-bu yoqqa ag'anab, ungur devoriga boshini urib, mehribon onasini yod etib, faryod chekib yig'ladi. Ammo uning faryodini eshitadigan, nolayu afg'oniga quloq soladigan kimsa yo'q edi...

U, azonga yaqin uxlab qoldimi, yoki hushidan ketdimi, buni o'zi ham bilmaydi, ko'zini ochib qaraganida quyosh nuri ungur ichini to'ldirgandi. Yetim ungurdan chiqib, och-nahor yo'lida davom etdi.

Choshgohga kelib tamoman oyoqdan qoldi, tinkasi qurib, o'tgan yilgi quruq butalari ko'rinib turgan o'tzorga cho'zildi-da, qor-yomg'irda qolib ivigan shoxchani beixtiyor og'ziga solib shimdi. Lekin yuta olmadi, shoxcha achchiq va ko'ngil aynituvchi bir maza berdi. Shoxchani tashlab, ketma-ket tupura boshladi, lekin ko'nglining aynishi va og'zining bema-zaligi yo'qolmasdi.

Bir necha daqiqadan so'ng qorni va og'zi o'z o'rniga kelib ochlik shiddati uni biron narsa yeyishga undadi. U cho'p bilan yerni qazib, bahor nami bilan suv yugurgan bir ildizni kovlab olib, shimdi. Bu ham achchiq va bemaza edi. Lekin shimganda undan bir shira chiqdi, yetimda uni yutib yuborish mayli uyg'ondi. U ko'zlarini chirt yumib, aftini burushtirib turib, shimayotgan ildizini yutib yubordi. Bu safar ko'ngli aynimadi.

Endi yetim dadillanib yana bir necha ildizni kovlab olib, chaynab yutdi, Nafsi ham bir oz orom oldi o'zi ham sal tetiklanib yo'lga tushdi.

Bugun yetim o'z qornini ko'lmak suv va ko'kat ildizi bilan bir necha bor minnatdor etib, kechgacha onasini qidirib, yana ungurga kirib yotdi.

Bu kecha yotishi bilanoq uxlab qoldi, lekin yarim kechada uyg'onsa qorni qattiq burab og'rir, ko'ngli aynab qayt qilgisi keldi; lekin qayt qila olmasdi. U kechani shu alpozda o'tga tushgan qildek jizg'inak bo'lib, suvdan uzoqlashgan buliq singari pitirlab o'tkazdi va quyosh nuri bilan ungurdan chiqdi. Ammo qornining burab og'rishi, oyoqlaridagi qavayishlar yo'l yurishga qo'ymas, kechagi qavargan joylar yori- lib, yaraga aylangan edi.

Endi uning oldida ikki yo'l bor edi: yo shu yerda qolib, o'z o'limini kutish, yoki emaklab bo'lsa ham, o'z maqsadi yo'lidan – mehribon onasini topib ko'rish yo'lidan borishi kerak edi.

U «shu yerda qolsam ham, yura bersam ham, nasibam o'lindir, ammo bir joyda umidsizlikda qolib o'lgandan ko'ra, maqsadga erishish – onamni topish yo'lida o'lmoq afzaldir», deb ko'nglidan o'tkazdi-da, o'rnidan turib yo'lga tushdi, lekin besh-olti qadam bosgach, yiqildi, oyoq va qo'llarining og'rig'i uni tik turishga qo'ymasdi. Endi u emaklashga kirishdi, kaftlariyu tizzalarini yerga mahkam tirab emaklayverdi.

Bir soatdan keyin chaqir toshlar, butalar va tikanlar butun qo'lu tizzalarini tirnab qip-qizil qonga bo'yadi. Ammo u yo'lidan qaytmay, tirsaklarini yerga tirab, yana emaklay boshladi...

* * *

Yetim shu zaylda emaklashning to'rtinchi kunida onasini uchratdi. U keng sahroning qoq o'rtasiga qurilgan ulkan bir tavotning oldida qo'y boqib yurar edi.

U onasini ko'rishi bilanoq:

– Onajon! – deb o'rnidan sakrab turdi-yu, qushday uchdi. Lekin besh-olti qadam yugurgach, behush bo'lib yiqildi, favqulodda shodlikdanmi, oyoq hamda qorinlarining kuchli og'rig'idanmi, yiqildi.

Sora jondan aziz o'g'lining ovozi tanidi va govronini bir tomonga uloqtirib, jo'jasi tomon qanot yozib yugurgan tovuq singari ikki qo'lini yozib, quloch ochib yugurdi.

– Jonginam, azizginam, shiringinam! – derdi u.

Yetim mushfiq onasining quchog'ida uning hayotbaxsh bo'salari ostida hushiga keldi-da, qaqragan lablarini munis onasining shakar lablariga bosib yoshligida onasining ko'ragini so'rgandek shavqu zavq bilan uning tilini so'ra boshladi. Xuddi xumori bo'lib, may to'la qadahni bir ko'tarib hushidan ketgan mayxo'rdek yana o'zini yo'qotdi...

Sora yetimni o'z og'ushida iliq bo'salar bilan yana hushga keltirgach, uni suyab ravotga kirgizdi. Bu yerda boy ham, uning o'g'li ham, xotini ham yo'q edi.

IX

– Bu ravot kimniki? – deb gap boshladi yetim.

– Mahalliy boylardan biriniki ekan, u kuzda qishloqdagi hovlisiga ko'chibdi, boy undan so'rab, shu yerga joylashdi.

– Boyning o'zi qayerda?

– Qolgan mollari olib o'tish uchun daryo labiga ketdi.

– Kundoshlaringiz qayerda?

– Halok bo'ldilar, – dedi Sora va ularning qanday halok bo'lganini birma-bir hikoya qilib berdi.

Soraning aytishicha, Eshonqulboy mollari va xotinlarini daryo labiga olib kelganda u yerda faqat bitta kema bor ekan, xolos. Boy qoramollari, ro'zg'or buyumlari, don-dun va shu singari bor narsalarini kemaga ortibdi; kemaning yuki me'yordan ortib ketgani uchun kemachilar boy va xo-

tinlarining kemaga tushishlariga rozilik bermabdilar. Boy o'zi va oila a'zolarini daryodan gupsarda⁷ olib o'tishga majbur bo'libdi. Eshonqulboy uch xotinini uchta gupsarga o'tqazib, o'zi bir gupsarga minibdi, o'g'li Istamni orqasiga mingashtiribdi-da:

– Ko'zlaringni yum, ikki qo'lingni qo'ltig'im ostidan o'tkazib meni quchoqlab ol, – debdi.

Boy oldinda, xotinlari keyinda daryodan o'ta boshlabdilar. Daryoning o'rtasigacha gupsar bir qadar tinch boribdi. Ammo daryoning to'liqlik joyiga yetganda, boyning ikki xotini gupsarlarini boshqara olmabdilar avval katta xotini, uning ketidan kichigi gupsardan yiqilib, ikki-uch marta suvga cho'kib yuzaga chiqqach, tez oqar suvda g'oyib bo'libdi. Faqat boy, Sora va Istam daryodan eson-omon o'tibdilar.

Sora hikoyasining oxirida:

– Shunday qilib, men boyning yagona xotini, kanizagi, cho'poni va yagona xizmatkori bo'lib qoldim, – deb ta'kidladi.

– Istam nima bo'ldi? – dedi yetim.

– Istam daryodan salomat o'tdi, uni otasi o'zi bilan birga olib ketdi. Boy hech qachon uni mening oldimda yolg'iz qoldirmaydi, menga ishonmaydi, «dushmanlik qilib, o'g'limga shikast yetkazmasin» deb qo'rqadi.

– Boyning cho'pon va yetimlari qani? – yana so'radi yetim.

Sora bu so'roqqa javob berish o'rniga, qochib kelingan kun hikoyasini aytib berdi.

Soraning aytishiga qaraganda, qishloq boylari, shu jumladan, Eshonqulboy ham amirni kuzatgach, qishloqqa qaytib, mollarini yig'ib, g'allalarini qop-qanorlarga solibdilar, non yoptirib va qo'y so'ydirib bir necha kunlik oziq-ovqat-

⁷Gupsar – meshkobga o'xshash bo'lib, ichiga dam berib, katta suvlardan minib o'tadilar.

larini gʻamlabdilar, «mamlakatimiz kofiriston boʻldi, bizga hamroh boʻlib yuringlar, musulmonobodga boramiz», deb yetim va choʻponlariga igʻvo qilibdilar. Shu payt qishloqda anchadan beri koʻrinmagan bir odam paydo boʻlibdi. Bu Mu-rodning oʻligi daryo labidan topilgani haqidagi xabarni olib kelib, oʻsha voqeadan soʻng gʻoyib boʻlgan kishi ekan. U xo-tin, bola-chaqasini koʻrgani yiliga bir-ikki marta kelsa ham, bir kecha yotib ketib qolarkan.

Ana shu odam amir qochayotgan va boylar qochishga ho-zirlanayotgan kuni qishloqqa kirib kelibdi. U kambagʻallur ommasini, yetimlar va choʻponlarni bir joyga yigʻib, revol-yusiya haqida gapiribdi va xalqni boylar ketidan bormaslik-ka chaqirib, bunday debdi:

– Sovet hukumati – ishchi-dehqonlar hukumatidir, u kam-bagʻallarga hamisha yordam beradi, ularni boylar qulligidan xalos etadi, yer-suv beradi. Kambagʻallarning farzandlarini va ota-onasiz, kimsasiz bolalarni sagʻirxonalarda tarbiya-laydi, ularni oʻqitadi, ish va hunar oʻrgatadi. Boylar sizlar-ni bolsheviklardan qoʻrqitmoqdalar, xoʻsh, bolsheviklar kim? – deb oʻrtaga savol tashlabdi va oʻzi javob beribdi:

– Bolsheviklar bir partiyaga birlashgan ishchilarning ilgʻor qismi. Ularning asosiy vazifasi – boylar, amir va amal-dorlar zulmidan kishilarni ozod etish. Ular barcha ishchilarni oʻz atroflariga jipslashtirib, rossiya aholisini podsho, amal-dorlar va tekinxoʻr boylar zulmidan xalos qildilar. Bolshe-viklar partiyasi ishchi-dehqon hukumatiga rahbarlik qiladi. Bolsheviklar partiyasiga Lenindek dunyoning eng donish-mand kishisi rahbarlik qilayotir. U butun umrini mehnat-kashlarning baxt-saodati uchun sarf qilgan kishidir.

Notiq bir oz sukut qilib, xalqni koʻzdan kechiribdi: odam-lar uzumni dona-dona qilib yegandek uning har bir soʻzining magʻzini chaqishibdi. U oʻz nutqining taʼsiridan zavqlanib, davom etibdi:

Boylar «Endi mamlakatimiz kofiriston bo'ldi», deb o'zlarni qo'rqitarmish. Ammo bolsheviklar va Sovet hukumatida «musulmon» va «kofir» degan so'z yo'q. Bolsheviklar odamlarni ikki guruhga: boylar va bechoralar, ya'ni tekinxo'rlar va mehnatkashlarga ajratadilar. Sovet hukumati bolsheviklar partiyasi rahbarligida butun dunyo mehnatkashlarini o'zining aziz do'sti va farzandi deb biladi. Shuning uchun ham, Sovet hukumatini barpo etgan ulug' rus xalqi Buxoro mehnatkashlariga o'z yordam qo'lini cho'zdi va ularni amirning zulm istibdodidan xalos etdi, bundan keyin ham bizga hamisha ko'maklashadi.

Hammadan oldin Shoqulning bir tovuq uchun ikki tishi urib sindirilgan yetimi so'z olib, notiq yigitning aytganlarini tasdiqlabdi va Shoqulning dastidan ko'rgan azoblarini hiko-va qilib beribdi. U so'zining oxirida:

Men o'n besh yildan beri Shoqulboyvachcha eshigida xizmat qildim, ammo to'yib non yemadim, yangi kiyim kiymadim. Bu tekin mehnatim evaziga bitta tosh mukofot oldimki, bu bilan ikki tishimni urib sindirdi. Agar oldin odamlar meni «Ergash» deb atasalar, ana shu «mukofot»dan so'ng «Ergash bedandon» deb ataydigan bo'lib qoldilar.

Ergash bedandon jim bo'lgach, boyagi kishi:

– Spravka, – deb gap boshladi, – agar Shoqul sening xizmatlaring evaziga bir tosh «mukofot» berib tishlaringni sindirgan bo'lsa, Eshonqulboyning buyrug'i bilan u Murodga bir o'q «mukofot» berib, yorug' dunyodan yo'qotdi, uning xotinini o'ziga cho'ri, o'g'lini yetim qilib oldi.

Xalq yigitning bu spravkasidan g'alayonga keldi ularning har biri hozirgacha Murodning Eshonqulboy farmoyishi bilan o'ldirilganligi haqida gumonsirab yurgan bo'lsalar ham, lekin bu xildagi aniq xabarni eshitmagandilar.

Bu xabar Soraga ham borib yetdi. U ham mehribon yositiqdoshiniig kushandasi qonxo'r Shoqul yirtqich boy ekanligini aniq bildi.

Yig'indan so'ng xalq shu qadar g'azablangandiki, agar hozir ularning qo'lida qurol bo'lganda, qochishga tayyorlangan boylarni qirib tashlab, mol-mulklarini talon-toroj qilardi. Afsuski, ularda belkurak va ketmondan boshqa qurol yo'q edi, har qaysi boyda esa, ikki-uchtadan beshotar bor edi. Shunga qaramay, mehnatkash xalqdan hech kim boylarga ergashib qochib ketmadi.

Sora qochib o'tilgan kun voqeasini hikoya qilarkan, dedi:

– Shunday qilib, Eshonqulboyning yetim va cho'ponlari ham boshqa odamlar singari Sovet hukumatiga ko'ngil qo'yib, boyning orqasidan ketmadilar va men ham ketmoqchi emas edim. Ammo bu qonxo'r boy meni o'zidan bir qadam ham nari siljitmadi, yelkasiga miltiq osgan, beliga qilich bog'lagan va qo'lga to'pponcha ushlagan holda oldiga solib haydab kelib gupsarga o'tqazdi. U daryoda boshqa xotinlarining gupsarini o'z holiga qo'yib yuborsa ham, qochib ketmasin deb, men mingan gupsarning arqonini o'z qo'lga ushlab oldi.

– Boylarga qarshi chiqqan odam kim ekan, men uni tanimaymanmi? – deb so'radi yetim.

– Sen tanimaysan, u qishloqqa juda kam kelardi, sen uni hech ko'rmagan bo'lsang kerak, – dedi Sora va bir oz sukutdan so'ng: – E... E... tanimasang ham bilasan. Qurbon degan bola bor-ku...

– Ha, ha, bilaman, – deb onasining so'zini bo'ldi yetim, – u juda yaxshi bola, men uni «Qurbon aka» der edim. Yaylovda men qo'ylarni eplay olmay qolsam, menga yordamlashardi.

– To'g'ri aytasan, – so'zida davom etdi Sora, – ana shu odam Qurbonning otasi, ismi Ro'zimurod.

– Endi tanidim, men u kishini bir marta ko'rganman. Bola uni menga ko'rsatib: «Mana shu kishi mening otam», degan edi. Lekin men ishonmagandim. Chunki u bolalardek yosh

ko'rinar, bo'yi baland bo'lsa ham, soqolsiz, ozgina mo'ylovi bor edi xolos.

Uning yoshi o'ttizdan oshgan. Doim soqolini qirdirib yuradi, shuning uchun sening ko'zingga yosh boladay ko'ringan, – dedi Sora.

Yaxshi ekan, – dedi yetim.

Suhbat oxirida Sora o'g'liga:

– Sen mening orqamdan kelmaganingda yaxshi bo'lardi. Ro'zimurodning aytishiga qaraganda, u yerda qolganingda bolsheviklar seni yetimxonaga olib borib, tarbiyalar edi, o'qitib, odam qilib chiqarardilar. Agar umrimiz boqiy bo'lsa yana ko'rishardik.

Yetim Murod o'g'li onasi bilan bo'lgan ana shu suhbatdan so'ng bolsheviklar mamlakati – o'z ona-vataniga yana qaytish fikriga tushdi. U o'z diyoriga borib, yetimxonada tarbiyalanib, odam bo'lib chiqishni orzu qildi, lekin yosh bo'lgani uchun bu maqsadini amalga oshirish yo'lini topishga ojizlik qilardi.

X

Ro'zimurodning qishloq kambag'allari umumiy yig'inida bergan ma'lumotnomasiga ko'ra, Murod yo'qolgan kuni erta saharda uyidan chiqib, Eshonqulboyning hovlisiga borib, qo'ylarni o'tlatish uchun dashtga haydab ketgandi.

Qo'ylar hali to'ymay turib, havoning avzoyi buzildi. Avval qattiq shamol turdi. Sal o'tmay, shimoli-g'arbdan qora bulutlar ko'tarilib kela boshladi. Momaqaldiroqnnng qasir-qusuri dashtu daralarga dahshatli g'ulg'ula soldi.

Har tomondan girdibod shamol kuchli quyun hosil qilib, changu tuproq, xas-cho'plarni falakka ko'tardi, hatto ildizi mustahkam ho'l giyohlar ham yerdan uzilib, quyunda osmonga ko'tarildi. Quyun shu darajada kuchli bo'ldiki, uni kuzatuvchi osmon bilan yer o'rtasida kungurador minora qu-

rilib, tagi yerdayu, boshi osmonga yetibdi deb gumon qilardi. Ko'p o'tmay quyun keng sahrani ana shunday kungurador minoralarga to'ldirib tashladi.

Favqulodda falokatga uchragan Murod qo'lidagi qo'ylarni eplay olmay, har tomonga to'zg'itib yubordi. U nima qilarni bilmay, sarosimaga tushib qoldi. Qo'ylarning tumtaraqay bo'lib qochganini ko'rib tursa ham, lekin qay tarafga ketganini bilmasdi, chunki ko'z ochib atrofga qarash va o'zidan bir qadam naridagi narsani ko'rish mumkin emasdi.

Murod bir soatcha har tomonga ko'r-ko'rona yugurgandan so'ng, jazillab achishayotgan ko'zlarini qo'llari bilan bekkitib, bir joyda o'tirdi, bo'ronning tinishini kutishga majbur bo'ldi...

G'arbi-shimoldan esayotgan kuchli shamol haydab kelayotgan bulutlardan sel quyila boshladi. Chaqmoq chaqilishi kunduz kuni qorong'i kechaga aylangan dash-tda onda-sonda ravshanlik berardi. Quyunda ko'tarilgan chang-to'zonni yomg'ir bosdi. Hali shamol tinmagan bo'lsa ham, endi ko'z ochish, chor atrofga borib qo'ylarni axtarish mumkin edi.

Murod qo'ylarni axtarib topish harakatiga tushdi. Ko'p yugurib-yelib u qo'ylarni bir qamishzordan topdi. Qo'ylar bu yerda ham jim turmas, loy va botqoqqa botib, to'rt tomonga yugurishar, qochardilar.

Murod qo'ylardagi bu bezovtalikdan hayratda qoldi va diqqat bilan qarasa, qo'ylarga bo'ri oralab, birining qornini yorib yeb turgan ekan. Qo'ylar «yomg'irdan qochib, qorga tutilgan» kishidek bo'rondan qochib, bo'ri changaliga duchor bo'lgandilar.

Bu ahvolni ko'rgan Murod nima qilishini bilmay qoldi: qo'lida qurol yo'q ediki bo'ri bilan olishsa, qo'lidagi birdan-bir govroni bo'ri bilan olishuvga yaramasdi. Agar bu qurol bilan bo'riga hamla qilsa, unga yemish bo'lishi turgan gap.

Shu payt qishloq tomondan Shoqul ko'rindi. U orqasi-
ga miltiq osgan holda ot choptirib kelardi. U qamishzorga
yaqinlashganda oti bir zaxkash yerga botib qoldi. Shoqul
sakrab tushdi-da, otini sudrab chiqarmoqchi bo'ldi, lekin
ilop bo'lmadi, ot zaxkashdan chiqishga uringan sari botib
ketaverdi. Shoqul otini qutqarib qolish uchun ko'p kuch
sarf etsa ham bo'lmadi, jiqqa terga botib, zaxkash chetida
o'tirib qoldi.

Murod Shoqulga va uning otiga yordam berish uchun yu-
girdi. U zaxkashga kirib, otining old tomoniga, ko'kragiga
kultini tiragan holda tizzalarini zaxkashning chim bosgan ye-
riga qo'yib otining siynasidan ko'tardi, ot ikki oyog'ini loy-
dan sug'urib zaxkash chekkasiga qo'ydi, Murod esa, o'zini
chetga oldi. Ot ikki oyog'i quruqlikka yetgach, bir sakrab
chiqdi.

Bu holni kuzatib turgan Shoqul Murodning kuchiga qo-
yul qoldi. U ichida Murodning bu mo'jizakor ishiga «ofarin»
aytgan bo'lsa ham, ko'nglida «men bu odamning mardi may-
doni emasman, agar oramizda ochiq-oshkora olishuv bosh-
lansa kulimni ko'kka sovuradi» deb o'yladi.

Shoqul otini yetaklab Murod bilan qamishzor oldiga
bordida, qo'ynidan ikkita non olib unga uzatib, bugungi
bo'ron natijalarini so'radi. Bugungi yugur-yugur va ochlik-
dan charchab, tinkasi qurigan Murod darmonsizlanib o'tirib,
bir nonni tishlagan holda bo'ron hikoyasini va bo'ringa bir
qo'yni yeyayotganini aytib berdi.

Shoqul bo'ringa qaerdaligini so'radi. Murod bo'ri qo'yni
bo'g'izlagan joyni ko'rsatdi. Shoqul miltig'ini olib, bo'ri to-
mon emakladi va o'zi yirtqich ko'rmaydigan bir pastqam-
likka yotib uni nishonga oldi. Poroxning tutuni Shoqulning
ko'z oldidan tarqalganda bo'ringa o'zi yorgan qo'y oldida
jon berayotgani ko'rindi. Bo'ringa dahshatidan hali tinchi-
magan qo'ylar miltiqning tovushidan beshbattar hurkib, har

tomonga qocha berdilar. Murod esa ularni tinchitib, qamishzordan chiqarishga harakat qilar edi. Ammo shu payt Shoqul unga qarab:

– Ortiqcha tashvishlanib, bekorga ovora bo'lma, hozir ularni tinchitish mumkin emas. Ularni o'z holiga qo'yib, berikel, daryo labiga boramiz. Sen noningni suvga botirib yeysan, men esa bironta qirg'ovul otib, bugungi xizmating uchun senga beraman, uyingga eltib bola-chaqang bilan kabob qilib yeysan, ungacha qo'ylar ham tinchib qoladi, – dedi.

Shoqulning bu maslahati Murodga ma'qul tushdi. Shoqul otini tushovlab, qamishzor yonidagi maysazorga qo'yib yubordi-da, ikkovi daryo labiga ketdi.

* * *

Yomg'ir tingan, lekin havo hamon bulut edi. Bugungi yomg'ir, bo'ron va quyundan keyin dashtda biron tirik jon ko'rinmasdi. Buning ustiga, yo'lda ketayotib Shoqul biron narsani yoki biron kishini axtargandek to'rt tomonga olazarak bo'lib qarardi. Shoqulning bu bezovtaligidan taajjublangan Murod:

– Nega har tomonga alanglaysan, yo biron kishi, yoki biron narsadan xavotirlanyapsanmi? – deb so'radi.

– Yo'g'-ye, men hech narsadan xavotirda emasman, umrimda ko'nglim parishon bo'lmagan, hech kim va hech narsadan qo'rqmaganman va qo'rqmayman ham. Biron o'lja uchrarmikan, deb to'rt tomonga qarayotirman, – javob berdi Shoqul.

– Shunday kunda dashtda ov nima qilsin, – dedi Murod, – hammasi bo'ron va yomg'irdan qochib ketgan.

– Shoyad bo'ron va yomg'irdan qochib. bizga duch kelsa...

Murod bilan Shoqul daryo labiga yetib, bir joyga o'tirdilar. Murod non yeya boshladi. Shoqul esa, miltig'ining u yoq-bu yog'ini ko'zdan kechirib, ovchilikni ta'riflab ketdi.

Ovchilik juda yaxshi hunar, ovchi har kuni yangi va mazali go'sht yeydi: ohu va tulki kabi hayvonlarning terisini sotib, kissasi pulga to'ladi, chiyabo'ri va bo'rilarni otib, odamlarni va mollarni bu yirtqichlarning changalida halok bo'lishdan xalos etadi. Agar men o'sha bo'rini otmaganimda, hozirgacha ko'p qo'yni halok etardi, o'zingga ham hujum qilishi turgan gap edi.

Shoqul o'rnidan turib to'rt yoqqa nazar tashladi va yana o'rniga o'tirib, o'zini maqtab ketdi.

– O'zim ham shunchalik mergan bo'libmanki, agar bulbulning ko'zini nishonga olsam, o'qim xato ketmaydi.

Shoqul bir oz xomush turgach, miltig'ining o'qini ko'zdan kechirib yana gap boshladi:

– Lekin men bu hunarni osonlik bilan egallaganim yo'q: ko'p mashq qildim, qanchadan-qancha o'qlarni bekorga ketkazdim, nihoyat, yaxshi ovchi bo'lib yetishdim. Hozir ham bo'sh qolgan vaqtlarimda ko'zim nishonga olishdan, qo'lim miltiq ushlashdan uzoqlashib qolmasin uchun mashq qilib turaman. Agar sahroga chiqsam, biron ov uchramasa, faqat mashq bilan mashg'ul bo'lib qaytaman. Bu yerda ham bir oz mashq qilib turishga to'g'ri keladi, hech narsa ko'rinmayotir.

O'qlarni joylab, chor atrofni ko'zdan kechirgan Shoqul Murodga qarab:

– O'rningdan tur, govroningni olib borib hov anovi loyga tikka qilib sanchib qo'y! Bir joyini ko'rsat, sen ko'rsatgan joyni ura olamanmi, yo'qmi? – dedi.

Murod govronini Shoqul aytgan joyga olib borib sanchib qo'ydi-da, uning dumaloq boshini ko'rsatib:

– Ana shu yerni nishonga ol! – deb tayoqdan chetlashmoqchi bo'ldi. Miltiqni tayyor tutib turgan Shoqul Murodning nari ketishini kutmay, tepkini bosdi. Murod yiqildi: o'q tayoqqa emas, Murodning biqiniga tekkandi. Shoqul miltiqni bir tarafga irg'itib, Murodning oldiga yugurib bordi va ti-

pirchilab turgan tanani oyog'idan sudrab, daryoga tashlab yubordi va:

«Ana endi bedov ot ham, beshotar miltiq ham o'zimga bo'ldi», deb ko'nglidan o'tkazdi.

XI

Eshonqulboy butun mol-mulkini daryodan o'tkazib bo'lgach, qo'shni mamlakatning ichkarirog'iga ko'chdi. Bu yerda u yangi ravot qurdi. Shoqulni ham o'z ravotiga oldi.

Yangi ravotga joylashgandan so'ng boy oq tanli muhojirlardan birining qiziga uylandi. Boyning yangi xotini bilan Shoqulning xotini ravot ichida boybeka bo'lib o'tirishardi. Ro'zg'or ishlari, mollarga qarash va ularni dalaga olib chiqish kabi og'ir ishlarni Sora bajarar, yetim bu og'ir ishlarda onasiga yordamlashar edi.

Boy bu yerda sirli tirikchilik o'tkaza boshladi: u Shoqul va o'g'li Istamni olib, yarim kechalarda ot minib chiqib ketar, bir necha kun g'oyib bo'lgach, yana yarim kechada ravotda paydo bo'lib qolardi. Boy ravotda bo'lgan paytlarda uning oldiga kechalari ko'k salla o'ragan odamlar tez-tez kelib turardilar. Ular boyga miltiq, to'pponcha va o'q to'ldirilgan xaltalar berar, boy esa ularga, Nikolayning tilla pullaridan yoki afg'on rupiyalaridan berardi.

Ana shunday yarog'lar to'plangach, boy Shoqul va o'g'li bilan birgalikda to'pponcha va o'qlarni xurjunlarga joylar, miltiqlarni esa, dasta-dasta qilib sholchalarga o'rar, har o'chovlari xurjunlarni otga ortib, miltiqlarni egar oldiga qo'yib, yarim kechada ravotdan chiqib ketishar; bir mecha kundan keyin yana qaytib kelishardi, qaytganlarida ularning qo'lida xurjun ham, miltiq ham bo'lmasdi.

Bu xatti-harakatni ko'rgan yetim uning sirini bilolmay, hayron edi. Kunlardan bir kun u buni onasidan so'radi.

Menimcha, bu mamlakatda qurol-yarogʻ furushlik mendaromad ish boʻlsa kerak, shuning uchun boy qurol-yarogʻ furushlik bilan shugʻullana boshlagan boʻlsa ajab emas, dedi Sora.

Shu orada bir voqea yuz berib, yetim boyning gʻoyib boʻlish sababini hamda uning qurol-yarogʻ toʻplab borishining sirini bilib oldi.

Kunlardan bir kuni shomdan keyin yetim onasi bilan qoʻylarni yaylovdan olib keldi. Sora ichkari hovliga kirib ketgach, yetim qoʻylarni qoʻyxonalarga kiritdi. Shundan soʻng u qoʻyxona oldidagi tuproqlarni tekislab, oʻziga joy tayyorladi va xashak ustiga chordana qurib oʻtirdi.

Bir soatdan keyin boyning oʻgʻli Istam bir burda pix boylagan non bilan bir kosa suv keltirib berdi. yetim nonni ivitib vegach, uxlagani choʻzildi.

Ammo hech uxlay olmadi: bir tomondan, havo issiq va dimgin; ikkinchi tomondan, molxonaning oʻtkir nayzali chivinlari unga hujum qilib, yuz koʻzi, boʻyinlarini chaqardi. Chivin chaqqan joylar kuyganning ustiga tuz sepganday lovillab yonib, qichir edi. Qashigan sari ogʻriq kuchayardi.

Tun yarim boʻlib qolganiga qaramay, yetim uxlay olmadi. Shu orada ravotning darvozasini biron taqillatdi. Ovozni eshitgan Shoqul darvozani ochdi – ikki otliq ichkariga kirib, otdan tushdi.

Shoqul otlarni devorlarga qoqib qoʻyilgan qoziqlarga qantarib, mehmonlarni molxona oldidagi supaga boshlab keldi-da, chiroq va palos olib chiqish hamda boyga xabar berish uchun ichkariga kirib ketdi.

Bir ozdan soʻng boy chiroq koʻtarib chiqdi. Shoqul bir sholcha keltirib supaga toʻshadi. Boy chiroqni oʻrtaga, qoʻyib, koʻrishib, hol-ahvol soʻrashgach, hammalari chiroq atrofida davra qurib oʻtirdilar.

Suhbat boshlandi. Ularning gapi daryoning narigi bel – yetim tug‘ilib o‘sgan mamlakat odamlarining gapiga o‘xshardi. Suhbatdoshlar gap orasida Hisor, Regar, Ko‘ktosh, Qabodiyon, Dehnav va Termiz kabi rayon va qishloqlarning nomini ko‘proq tilga olardilar.

Ular gap orasida yetimga notanish bo‘lgan kishilarning nomini ham tilga oldilar. Bunday nomlar ichida Ibrohimbek, Fuzayil maxsum, Eshon Sulton, Anvarposhsho, Jabborxo‘jayin, Davlatmandbiy va Ko‘rshermat kabilar ko‘proq takrorlanardi. Suhbat orasida, bosmachi va qo‘rboshi kabi so‘zlar ham ko‘p tilga olindi.

Yetim ularning og‘zidan «bolshevik» so‘zini ham ko‘p eshitdi. U bu kalimani onasidan ham bir-ikki marta eshitgan edi. Onasi bolsheviklarning ta‘rifini Ro‘zimurod tilidan naql etgan edi. Ammo bu tungi mehmonlar bolsheviklarni yomonlab gapirdilar.

Suhbatdoshlarning gapidan yetim bildiki, daryoning narigi betida bolsheviklar ishchi va dehqonlar hukumati barpo etibdilar, bu hukumat oyoqyalanglarni, kambag‘al, yetim, cho‘ponlarni, amir vaqtida boylar qo‘lida ishlagan chorakor va qarollarni o‘z atrofiga jipslashtirib, ularga yer-suv va ish beribdi. Boylar, eshonu mullalar va amir amaldorlarining kambag‘allar ustidan hukmronligini bekor qilibdi.

Boylar, sudxo‘rlar, eshonlar, mullalar va amir amaldorlari bosmachi deb ataladigan askarlar to‘plab, ishchi-dehqon hukumatiga, bolsheviklarga qarshi chiqardilar. Yuqorida nomlari tilga olingan kishilar, yana shu bosmachilarning boshliqlari ekan. Bosmachilarning maqsadi ishchi-dehqon hukumatini yo‘qotib, kambag‘allarni boylarga yana qul qilib berish va amirni yana podsho taxtiga o‘tqazish ekan.

Gap navbati Eshonqulboyga yetgach, nasihatomez dedi.

– Bosmachilar ishchi-dehqon hukumatini ag‘darish yo‘lida bolsheviklar hukumati xizmatiga kirgan hamda

bolsheviklarga, ishchi-dehqon hukumatiga yordam berayotgan kishilarnigina o'ldiramiz, deb yuravermasinlar. Halki qo'llariga tushgan har bir kambag'al va har bir yetimu cho'ponni bemulohaza o'ldiraversinlar. Negaki, ishchi-dehqon hukumati va bolsheviklarning suyanchig'i aholining ko'pchiligini tashkil etgan ana shu yetimu cho'pon va kambag'allardir. Agarda ishchilar va kambag'allar bo'lmaganda edi, bolshevik ham maydonga kelmasdi, ishchi-dehqon hukumati ham.

Mehmonlardan biri gapga aralashdi:

– Hozirgacha kambag'allarni bola-chaqalari bilan qirib tashlashdan qo'limiz tolmagan, qaltiramagan. Biz ko'pincha qizil askarlarning libosini kiyib olib qishloqlarga o't qo'yamiz. Kambag'allarni o'ldiramiz. Shunday qilib biz bir o'q bilan ikki qarg'ani uramiz; bir tomondan, kambag'allarni yo'qotamiz, ikkinchi tomondan, xalq orasida bolsheviklarga va qizil askarlarga qarshi nafrat uyg'otamiz, – dedi.

Mehmonlar ichkaridan Shoqul olib chiqqan taomni yegach, yo'lga otlandilar. Shoqul ichkaridan bir necha miltiq, to'pponcha va bir necha xalta o'q olib chiqdi. U to'pponcha va o'qlarni mehmonlarning xurjunlariga joyladi, miltiqlarni esa, sholchaga o'rab boylab berdi.

Ketish oldidan mehmonlarning biri boyga dedi:

– yer-suvlaridan, mulklari, uy-joylaridan judo bo'lib g'ariblikka tushgan boylarning vazifasi bosmachilarga yordam berishdir. Ular qo'llaridagi hamma narsalarini, hatto lozim bo'lsa ust-boshlarini ham sotib, uning puliga qurol-aslaha olib bosmachilarga bersinlar. Biz zafar topganimizdan so'ng, boylar yana yer-suvlariga, mol-mulklariga, yetimu cho'ponlariga ega bo'ladilar, ertaga bugun qilgan xarajatlarning birini o'n, o'kini yuz, yuzini mingta qilib oladilar.

– Bu yo'lda biz mol-dunyomizni ayamaymiz, lozim bo'lsa, hatto jonimizni ham fido etamiz, – dedi boy.

Shu payt to'pponchani qars etgan ovozi eshitildi.

– Voy o'ldim! – deb yerga yiqildi boy. Shoql va mehmonlar rosa kulishdi.

Ma'lum bo'lishicha, mehmonlardan biri to'pponchasining o'qi to'lami yoki to'la emasligini bilmoq uchun havoga o'q o'zib ko'rgan ekan, to'pponchada o'q to'la bo'lib, unning bir otilgandi.

O'sha mehmon xurjunidan bir dona o'q olib to'pponchasining o'qdonini to'ldirib oldi. Ular otlariga minib, ravotdan chiqib ketishdi. Boy esa hovli yuzida hamon hushsiz yotar edi.

Bu suhbatning mag'zini chaqqan yetim: «Boylar bosmachilarni qurollantirib, kambag'al va yetimlarni o'ldirar ekan, o'z vatanimga qachon bo'lmasin qaytishim bilanoq, birinchi vazifam boylarni ishchi-dehqon hukumatiga tutib berish bo'lsin», deb ko'nglidan o'tkazib qo'ydi.

XII

Oradan ikki yil o'tdi. Eshonqulboy daromadining asosini tashkil etgan qo'ylarining soni ancha kamayib qoldi. Qo'ylarning ko'pchiligi ravotnig imoratiga, uylanishga va ayniqsa bosmachilarni qurollantirishga ketdi.

Boy qolgan qo'ylarni Soraning o'zi ham boqa olishini ko'rib, yetimga har kuni beriladigan bir burda qotgan nonnn ortiqcha xarajat hisoblab, uni erta tongda ravotdan haydab yubordi:

– Bor, qaerga borsang, o'sha yerga bor! Senga beradigan ortiqcha nonim yo'q, – dedi u.

Sora yetimning eski-tuski kiyimlarini olib chiqib kiygizdi, bir kulchani lattaga o'rab qo'yniga tiqib qo'ydi-da, jigarporasini bag'riga bosib yum-yum yig'ladi. U ko'zlaridan oqqan yoshlari bilan o'g'lining yuz-ko'zlarini, sochlarini nam etgach, nuridiydasiig ko'zlarini artarkan:

Bu mamlakatda sarson bo'lib yurma, qanday qilib bo'lsa ham daryodan o'tib o'z vataningga bor. Biror yetimxonani top. U yerda seni tarbiyalab, o'qitib o'stiradilar, xafa bo'lma. Agar umrim boqiy bo'lsa, men ham orqangdan yetib boraman, dedi.

Yetim oyoq yalang yo'lga tushdi. To ravot ko'zdan g'oyib bo'lguncha har qadamda orqasiga o'girilib, bino oldida turgan mehribon onasini ko'rib, yuragi ezilib yig'lar va ko'zlaripi artib, yana istar-istamas oldinga qadam tashlardi.

Bu judolik yetim uchun nihoyat darajada og'ir edi. Chunki u birdan-bir suyanchig'i, mehriboni, og'ir kunlarida tasalli beradigan va ovutadigan kishisidan ajralayotgan edi.

U bir necha marta yo'ldan qaytib, onasining oldida qolishga qasd qildi, ammo bir oz mulohaza yuritib, bunday qilish mumkin emasligiga ko'zi yetdi: xo'jayin ravotdan joy bermasa, qaerda yotadi, xo'jayin uning uchun bir burda qotgan nonni hayf ko'rgach, nima yeb tirikchilik qiladi!

Baxtsiz onaning ahvoli yetimning holidan ham achinarli: u jondan aziz o'g'lining ko'z oldidan abadiy yiroqlashayotganini ko'rib turibdi, ammo uni o'z oldida olib qolish imkoniyati yo'q. Go'yo uning joni tanidan chiqib ketayotgan edi-yu, uni saqlab qolishga qudrati yetmas edi.

Sora o'g'li bilan birga ravotdan chiqib ketmoqchi ham bo'ldi. Lekin bunga jur'at etolmadi. Chunki boy uning yo'lini to'sibgina qolmay, o'lgudek kaltaklashini bilar edi. Shuning uchun ham u o'g'liga bergan va'daga muvofiq, munosib fursat topguncha, bu muddaosini noiloj kechiktirishga majbur bo'ldi.

Sora ko'zini yetimdan uzmas, u uzoqlashgan sari ko'z oldi qorong'ilashardi. Bora-bora yetim ko'zdan g'oyib bo'ldi. U Sora uchun kun bo'yi olamni nurafshon etgan quyosh edi-yu, endi u ufq orqasiga o'tib ketdi. Dunyo Soraning ko'ziga shu

darajada qorong'i ko'rindiki, xuddi kun botib olamni zulma qoplagandek tuyuldi.

– Mochag'ar! Nega qo'riqchidek g'o'dayib turibsan, vaq peshin bo'ldi, qo'ylarni hali ham dalaga olib chiqmabsan'!

Sora hushiga kelib qarasa, boy uni haqorat qilyapti, o'flok ham nayza bo'yi ko'tarilib, zarrin nurini koinotga sochayotir.

Boyning dahshatidan qo'rqqan Sora shoshilib qo'ylarni dalaga haydadi. Lekin uning fikr-xayoli o'g'li bilan band edi. U fursat topib, boyning uyidan qochishni mo'ljallab qo'ydi.

Soraning bu niyatini boy ham fahmlab qolgan edi. Shu ning uchun o'g'lini Soraga poyloqchi qilib qo'ydi va uni bi ron zarurat tug'ilib qolmasa, uydan uzoqlashtirmadi, Istam ham otasining topshirig'ini bajarish uchun Soraning atrofida o'rgimchakdek aylanardi.

* * *

Yetim yo'l yurdi, yo'l yursa ham mo'l yurdi. Lekin qa erga ketayotganini bilmasdi. U daryo bo'yiga borib, o'z va taniga tezroq o'tishga qaror qilgan ammo bu yo'l uni daryo bo'yiga olib boradimi, yo'qmi, buni bilmasdi.

U bir tomonni daryo deb mo'ljallab, tog'-toshlardan tepa-qirlardan, daralardan, jaru ariqlardan o'tib borardi. Charchaganida biron suv oldiga o'tirib, onasi bergan nondan bir burdasini suvga botirib yeb olar va yana yo'lga tushardi...

Kech kirib, olamni qorong'ilik qopladi. yetim tunab qolish maqsadida yo'lda duch kelgan bir kulbaga kirdi. Kulbaning sahniga bir echki bog'lab qo'yilgan bo'lib, uloqchasi uni emib turar, hovlining chetida bir xotin bilan erkak ro'baro' o'tirib, ovqatlanar edi.

Haligi kishi yetimdan kimligini va bu yerga nima uchun kirganligini so'radi.

– Men daryoning narigi tarafidan kelgan musofirman, onamni yo'qotib qo'yib, axtarib yuribman, bu yerga kechasi

kimlik uchun kirdim, – deb javob berdi yetim va ko'nglida: «Bu gapim yolg'on emas, o'z tuqqan onamni axtarmasam ham, meni o'z og'ushiga olib, ardoqlab, voyaga yetkazadigan onamni – ona-vatanimni, butun kambag'al va yetimlarning haqiqiy vatani bo'lgan onamni axtarayotirman», deb qo'ydi.

Juda soz, – dedi uy egasi va yetimni dasturxon oldiga o'tqazdi. Unga ham nonu qatiq berishdi. yetim ovqatlanib bo'lgach, haligi ayol bir chekkaga po'stak tashlab uni yotqizdi.

Yetim erta turib qo'l-yuzini yuvdi-da, yo'lga hozirlandi. Ammo xotin uning nahor yo'lga chiqishiga ruxsat bermay bu kosa sutga bir burda nonni to'g'rab yedirdi va qo'lga ham bir kulcha berib jo'natmoqchi bo'ldi. yetim yo'lga tushdi, lekin qadam bosishdan oyog'i og'riyotgani sezilib turardi. Xotin uni yo'ldan to'xtatib oyoqlarini ko'zdan kechirdi: oyog'ining osti qavarib-qavarib ketgan, ba'zi joylari yorilib, yiringi oqib turardi.

Bu oyog'ing bilan yuz qadam ham bosolmaysan, – dedi-da, uni o'tqazib, latta va sholchalar bilan oyog'ini cho'rtqsimon qilib o'radi, kanop bilan bog'lab: – Endi ketaver, xudo o'zi papohida asrasin, – dedi.

Yetim safarining ikkinchi kunida saxovatli ayol bergan nonni yeb, kechgacha yo'l yurdi. Oqshomga yaqin u bir obodroq qishloqqa duch kelib qishloqqa kiraverishda uchragan bir darvozaga kirdi. Bu katta hovlida bir nechta xona, molxona va ayvon bor edi. Hovli yuzi qo'y va qoramollar bilan to'la.

Bir kishi undan kimligini va nima uchun kelganini so'radi. yetim kechagidek soxta javob berdi.

– Bu yerda musofir uchun joy yo'q, – dedi shubhali bir ohangda haligi kishi.

Yetim uning shubhalanayotganini sezib:

– Shuncha hayvon siqqan katta hovlida nahotki o'n to'rt yashar bir bola uchun bir kechaga boshpana topilmasa. Na nimcha, siz meni o'g'ri deb o'ylayapsiz, men o'g'ri bo'lmay shu yoshimda, shu ahvolim bilan qo'limdan nima ish keladi, – deb nolidi.

Haligi kishi uyalib qoldi va bir burchakni ko'rsatdi:

– Bor, anovi yerda yota qol, – dedi.

Bu kecha ham o'tdi. yetim erta saharda turib ketishga hozirlandi. Kechasi yetimdan hech qanday nojo'ya harakati sezmagani hovli egasi undan foydalanmoqchi bo'lib:

– Charchaganga o'xshaysan, mening hovlimda qolib bir necha kun dam ola qol; cho'ponim kasal bo'lib ketib qoldi, tuzalib kelguncha qo'ylarimni boqib yurasan, – dedi.

Bu taklif yetimga ma'qul tushdi. Haqiqatda ham ikki kunlik piyoda yurishdan juda charchagan edi. Shuningdek u «bu kishidan bir necha kun cho'ponlik qilib, bergan nonining bir qismini yeyman, qolganini yig'aman. Bir necha kunlik ovqat g'amlab, yo'lga tushaman, giyoh yeb kasal bo'lmay, daryo bo'yiga yetib olaman. Daryoning narigi tomoni esa mening noz-ne'mat to'la vatanim» degan mulohazalar bilan:

– Mayli, qolaman, – deb rozilik berdi.

Hovli egasi molxona oldidagi bir hujrani yotib turish uchun yetimga berdi. yetim yangi xo'jayinning uyida ertadan-kechgacha cho'ponlik qilardi. Uning kundalik ovqati bitta non va bir dona qurtdan iborat edi. yetim qurti yemas, nonning yarmini yeb yarmini onasi non o'rab bergan lattaga o'rab uychasida saqlar edi.

Uninchi kuni yetim qurt va yarimta nonni lattaga tugmoqchi bo'lgan edi, qarasa u bo'shab qolibdi: bir necha kundan beri yig'ib yurgan nonu qurtlari yo'q. Buning sababini xo'jayindan so'radi.

– Yangang hujrangga kirib, yemay qoldirgan qurt va nonlaringni «uvol bo'lmasin» deb olibdi, – deb javob berdi xo'jayin.

Yetim hech narsa demadi. Ammo ko'nglidan ovqat topishni yangitdan boshlayman, endi to'plagan ovqatlarni topa olmaydigan joyga yashiraman, deb o'yladi. Lekin shundan boshlab xo'jayin qurt bermay qo'ydi va bir burdan non berib:

Sen yaxshi bola ekansan, oz ovqat yer ekansan, barajalla, deb uni maqtadi.

Shundan so'ng yetim boshqa bir fikrga keldi: qulay fursat topib xo'jayinning ikki-uchta nonini o'g'irlab qochib ketmoqchi bo'ldi.

* * *

Yetim qochish uchun qulay payt topib, yangi xo'jayinning cho'ponligini qilib yuraverdi. Ko'p o'tmay, kutilgan fursat ham yetib keldi. yetim bir kuni shomdan so'ng qo'ylarni daladan olib keldi. Xo'jayin ham, uning oti ham uyda yo'q edi, u xo'jayin uzoq joyga ot minib ketgan bo'lsa kerak, deb o'yladi. Qo'ylarni qo'raga kiritgach, yetim ichkari hovliga kirdi. Uyda chiroq yoqilgan, bolalar uxlab yotar, xo'jayinning xotini uyda yo'q edi. U hovlini aylanib chiqdi, hech kim ko'rinmadi. Qo'shni hovliga ochilgan tuynukdan qandaydir ovoq eshitildi, xolos. yetim borib quloq solsa, xo'jayinning xotini qo'shni xotin bilan gaplashib o'tirgan ekan.

«Qulay fursat keldi», – dedi yetim dilida va yugurib uyga kirib har tomonni qidira boshladi. Uyning taxmonida ustiga o'rin-ko'rpa yig'ilgan sandiq ko'rindi. Sandiqni ochsa, ichi to'la non ekan. yetim besh kunlik safarini mo'ljallab besh-ta nonni oldi-da, uydan chiqdi. Uning ko'zi ayvonga osib qo'yilgan savatga tushdi. Savatga qarasa, nami qochmagan qurt bilan to'la ekan, qurtdan o'ntasini tanlab nonlarning ustiga terdi va hujraga borib, ularni o'z lattasiga bog'ladi-da, yirtiq-yamoq kiyimlarini kiyib, cho'ponlik tayog'ini qo'lga olib, tugunni qo'yniga tiqib yo'lga tushdi...

Yetim hali qishloqdan chiqishga ulgurmagan ham edi ki qarshisidan ot mingan xo'jayin chiqib qoldi.

– Yo'l bo'lsin qayoqqa ketyapsan? – deb so'radi u.

– Hech qaerga. Shunchaki toza havo olay deb chiqib edim, – dedi yetim qo'rqib, qaltiroq ovoz bilan.

– Toza havo olish uchun?! Kun bo'yi shamolga to'ymagan ekansan-da, – deb xo'jayin otdan tushdi va yetimning qo'ynidagi tugunni ochib ko'rdi. – Non yemasdan yurib, bir yo'la besh non va o'nta qurt yemoqchi bo'libsan-da, – dedi xo'jayin dag'dag'a bilan. yetim indamadi. Xo'jayin tugunni o'rab, yetimning qo'liga tutqazdi-da, otga minib:

– Qani, oldimga tush! – dedi.

Yetim oldinda piyoda, xo'jayin orqada ot minib qishloq ichkarisiga ravona bo'ldilar. Darvoza oldiga borganda yetim xo'jayinning hovlisiga kirmoqchi bo'lgandi, xo'jayin yo'lini to'sdi:

– Endi mening hovlimda senga joy yo'q, katta yo'l, keta-vergin, – dedi. yetim yo'lga tushdi, lekin xo'jayin ham uning orqasidan qolmadi. Taxminan besh kilometr yo'l yurgach, bir hovli oldiga yetdilar. Darvoza oldida miltiq ushlagan qorovul turardi.

– To'xta! – deb buyruq berdi xo'jayin.

Yetim to'xtadi. Xo'jayin otdan tushib, otini ko'cha chetidagi bir daraxtga bog'ladi-da, yetimni oldiga solib, hovliga olib kirdi. Hovlining o'rtasida bir necha kishi choy ichib o'tirardi.

– Nima gap? – deb so'radi o'tirganlardan biri xo'jayindan.

– Mana bu bola qo'lidagi narsalarni uyimdan o'g'irlab chiqib ketayotganida qo'lga tushirdim. Jazolanishini so'rayman, – deb yetimning qo'lidagi tugun bilan ularga topshirdi.

– Mirshab uxlab yotibdilar, siz ishingizga ketavering, ertaga ishga chiqishlari bilan biz aytib, jazo berdiramiz, – deb javob berdi ulardan biri.

– Senga yuz rupiya jarima belgilandi, – dedi mo'ylar kishi, – agar shu mablag'ni hozir to'lasang, qutulasan, ningda puling bo'lmasa, ota-onang yoki boshqa qavm qarindoshlaringni aytsang, biz odam yuborib, jarimani o'shalardan undiramiz va shundan so'ng ozod qilamiz.

– Menda pul ham, qavm-qarindosh ham yo'q, – deb javob berdi yetim, – faqat bir onam bor, xolos, lekin uning haddi qardaligini bilmayman, uni axtarib yurib, mana shu balo giriftor bo'ldim.

– Bo'lmasa, har kuni qamchi yeb yotaverasanmi? – deb so'radi haligi odam. – Shu orada ye o'lasan, yoki pulni topib berasan.

– Nima bo'lsa ham taqdirimdan ko'rdim, – dedi yetim va ho'ngrab yig'lab yubordi.

Ammo uning ko'z yoshiga hech kimning rahmi kelmadi – uni yotqizib urdilar. Bu safar bolaning ko'z yoshlari tinib, uniig o'rmini g'azabkor otash alangasi egalladi. Og'riq qanchalik kuchayishiga qaramay tishini tishiga qo'yib, g'ing etmay yotaverdi. Urishdan charchagan qorovullar:

– Tur, – deyishdi.

– Urilib to'ydingizmi? – deb so'radi yetim o'rnidan turar ekan.

Ulardan biri unga javoban yetimga bir musht tushirdi, u og'zi bilan yerga yiqildi. Lekin yetim o'rnidan turdi-da, urgan odamga tikilib turdi. U yana bir shapaloq urib:

– Bor qamoqxonaga! – dedi.

Yetim yerto'lada o'ziga yuz rupiya jarima solinganligini mahbuslarga hikoya qilib berdi.

– Senga yengil jazo tayinlabdilar, – dedi mahbuslarning biri, – bizning har birimizga ming rupiyadan jarima solingan.

– Sizlarning pullaringiz bo'lsa keraq, topib berasizlar, men qaerdan topib beraman? – dedi yetim.

– Biron tamizda ham pul yo'q, – dedi ulardan biri.

Unday bo'lsa, bu yerda yotaverasizlarmi?

Yoki yotaveramiz, yoki bizni ozod qiladilar, – dedi g'alayonchilar maxbus.

Yetim mahbuslikning oltinchi kuni yarim kechada kuchli g'alayondan, shovqin-surondan uyg'ondi. Ko'zlarini uqalab uqalab, g'alayonga quloq solib turganida, miltiqdan ikki marta o'q uzilganini eshitdi, Oradan sal o'tmay, g'alayonchilar mahbusxona oldiga yetib kedib, eshikni urib tashladilar, ichkariga kirib, mahbuslarni ozod qilib olib ketdilar.

Yetim ham ularning ketidan tashqari chiqdi. Mirshabxona hovlisida juda ko'p odam qo'llarida mash'ala ko'tarib turganlar. yetimning ko'zi mash'alalarning yorug'ida hovli o'rtasida yotgan uch o'likka tushdi. G'alayonchilar ikki o'likni ko'tarib oldilar, uchinchi o'lik mirshabning odamlaridan biri bo'lsa kerak, unga hech kim qaramadi.

G'alayonchilar o'liklarni ko'targan holda mahbuslarni oldiga solib mirshabxonadan chiqdilar. yetim ham ularning ketidan ergashdi. Darvoza oldida bir o'lik qonga belangan holda yotardi, u mirshabxona qorovuli bo'lsa kerakki, hech kim unga e'tibor bermadi.

G'alayonchilar mash'allarni baland qilib o'liklarni ko'targan holda bir tomonga ketdilar. yetim esa ulardan ajralib, boshqa tomonga jo'nadi.

Tong yorisha boshlagan mahalda yetim bir tog' etagiga yetdi. U ham ochiqqan, ham charchagan edi. yerga cho'zilib, bir oz uxlamochi bo'ldi, lekin ochlik mijja qoqtirmadi.

Oftob chiqqach, u o'rnidan turib, ovqat qidirishga tushdi. Yovvoyi o'tlarning ildizlaridan boshqa hech narsa topolmadi, ularni yeyishga esa ko'ngli yo'l qo'ymas, chunki ikki yil burun ildiz yeb, o'lgudek tortgan azobi hali xotiridan ko'tarilmagan edi. Shundan so'ng u yangi chiqqan ko'katlarni uzib chaynab ko'rdi, ular ham achchiq edi, yutolmay, tupurib tashladi.

Ammo biron narsa topib yeyish lozim edi. Juda charchagan va kuchsiz bo'lsa ham, biror yegulik narsa topish uning dida oldinga intildi. Oldindan bir qumloq, suvsiz soy chiqdi. U dam olish uchun qum ustiga cho'zildi, shu payt yetimning ko'zi qumni ko'tarib chiqqan sarg'ish qub-basimon narsalarga tushdi. U qo'l uzatib, ulardan birini uzib ko'rdi-yu, ko'zi charaqlab, og'zidan so'lak oqib ketdi. Bu unga oldindan tanish bo'lgan lazzatli taom – qo'ziqorin edi.

Yetim o'z vatanida cho'ponlik qilib yurganida bahor paytlarida qo'ziqorinlarni terib, cho'g'ga ko'mib pishirib va maza qilib yer edi. Hozir uning qo'lida na tuz, na olov va na gugurt bor edi. «Zarari yo'q, o'zi ham yeyishli narsa, xom yeb, sinab ko'raman», dedi o'z-o'ziga va ikki-uch qo'ziqorinni yulib, ko'lmak suvga yuvdi-da, og'ziga soldi. Nafsi orom olib, uxlab qoldi...

Yetim uyqudan turganda kun peshindan oqqan, o'zi esa juda charchab qolgan edi. Toshloq labi bilan yuqoriga ko'tarilib, toza suv topib ichdi va yana qo'ziqorinzorga kelib yuz donaga yaqin terib, qo'ynini, ustma-ust kiygan eski kiyimlarining kissalarini to'ldirib, yana yo'lga tushdi...

XI

Yetim to'rt kechayu to'rt kunduz yo'l yurdi. Yana qo'lga tushib qolishdan qo'rqib, kunduzlari g'or va jarlarda, tog' kamarlarida yotar, tunda esa yo'l bosardi. Qo'zi-qorin unga yo'l ozig'i bo'ldi.

U safarining beshinchi kuni tong yorishi oldidan bir tepaga chiqib o'zi uchun g'or axtarib yurganda bir daryoga ko'zi tushdi. U Amudaryo edi. Uning Amu ekanligini yetim darhol bildi. Chunki u kishilardan bu atroflarda Amudan boshqa katta daryo yo'qligini eshitgandi. Lekin bu joy daryoning bundan ikki yil burun yetim kechib o'tgan joyi bo'lmay, o'sha o'tish joyidan sal yuqoriroq yoki quyiroq qismi ekan-

ligi sezilib turar edi. Har holda bu daryoning narigi betida yetimning vatani borligi aniq edi.

Yetim ona-vatanining ufqlarini, uning daryoga kelib tushgan etaklarini ko'rib, sel oqibatida toshgan daryo kabi jo'shib ketdi va o'zini tuta olmay, baland ovoz bilan xitob etdi:

Ey, aziz vatanim! Haqiqiy onam, meni tezroq shafqatli op'ushingga tort! Onam meni tuqqan bo'lsa, sen parvarishlab voyaga yetkazding. Bolsheviklar qo'liga o'tganingdan ko'ng, sen, ayniqsa, yana ham mehribonroq, marhamatli, yanada shafqatli bo'lib go'zallashib ketibsan! Tuqqan onam deb men balolarga giriftor bo'lgan bo'lsam, sen meni va menga o'xshagan farzandlaringni balolardan qutqarib, tarbiyalab, odam qilib yetishtirayotirsan! Men, to tanimda jonim bor ekan, xizimatingdan bosh tortmayman, agar lozim bo'lsa boshimni, tanimni, qonimni va jonimni yo'lingga fido qilaman!.. Afsuski, men hozir suzishni bilmayman, bu sermavj daryoni kesib o'tib, muqaddas tuprog'ingdan bo'salar olsam, afsuski, parrandalar singari qanotim yo'q, toki bu beomon suv ustidan parvoz etib borib, ruh bag'ishlovchi havongdan qonib-qonib nafas olsamu, u tanimga quvvat baxsh etsa...

Yetim, ana shu xildagi xitoblar bilan ich-ichidan qaynab kelayotgan quvonch hislaridan qalbini bo'shatgach, daryodan o'tish fikriga tushdi va daryo labining har tomoniga ko'z tashladi: na biron kema, na biron gupsar va na biron odam ko'rindi. Faqat daryodan uzoqroqdagi qamishzor etagida bir qora uy ko'rinar edi, xolos! U tepadan tushib, o'sha qora uy tomon ravona bo'ldi. Qora uyga yetgach, yetim ichkariga mo'raladi. Uyda qorachadan kelgan o'rta yoshli bir turkman gulxanning tepasiga choydishni osib qo'yib, tagiga o'tin qalab o't yoqardi. yetim turkmanga salom berdi.

– Vaalaykum assalom, kel, o'g'lim, – dedi turkman.

Yetim uyga kirdi. Turkman u bilan qo'l berib ko'rishdi va o'tirishga joy ko'rsatdi. Uy egasi turkman tilida hol-ahvol so'ragach, yetimning kimligi va maqsadini, surishtirdi.

Yetim o'zining narigi qirg'oq mamlakati farzandi ekanligini, onasini ko'rmoq uchun bu tomonga o'tmoqchi ekanligini aytdi.

– Buning uchun bir oz sabr qilmog'ing lozim, – dedi turkman, – mening bu yerdagi asosiy kasbim dehqonchilik bo'lsa-da, to'g'ri kelib qolsa, ba'zan odamlarni daryodan o'tkazib ham qo'yaman. Lekin bu yerdan to'g'ri kishilar o'tmaydi, qochoqlar va qochib o'tganlarning malaylari o'tkaziladi. Ularning molini daryodan o'tkazish uchun o'z joningdan kechishing kerak. Shuning uchun ham men bu ishni xun bahoyim miqdorida pul olgan vaqtimdagina ado etaman.

Turkman bir oz jim bo'lib, gulxanga o'tin tashladi va o'chib qolgan olovni puflab yondirgach, gapini davom ettirdi:

– Sen biron serpul qochoq paydo bo'lguncha sabr et, xizmatimni qilib, dehqonchiligimga yordamlashib yur.

Yetim turkmanning taklifiga rozi bo'ldi va «kech-roq bo'lsa ham, maqsadim shu yerda amalga oshadi», deb ko'nglidan o'tkazdi.

Choydish ham qaynadi. Turkman ikki choynakka choy damlab, bir piyola choyni yetimning oldiga va ikkinchisini o'z oldiga qo'ydi. Qora uyning panjarasidan bir yirtiq lattani olib, o'rta yozdi, unda ikkita zog'ora bor edi. Turkman uning birini yetimning oldiga va ikkinchisini o'z oldiga ushatib, har ikkovlari choy ichishga kirishdilar.

Choydan so'ng turkman yetimga qarab:

– Kel, o'g'lim, endi seni ekinzorimga olib borib, ekinlarimni ko'rsatay, – dedi.

Turkman oldinda, yetim orqada ekinzorga jo'nashdi.

Qora uy oldi qamishzor bo'lib, uning bir uchi uyga tutashgan edi. Qamishzor o'rtasida hovuzga o'xshagan bir ko'lcha ham bo'lib, uning bir tomoni kema yuradigan anhor

gali daryoga tutashgan edi. Yo‘lning uyga yaqinroq joyida gapqa o‘xshash bir kemacha mixga bog‘liq turardi.

Turkman yetimga kemani ko‘rsatib:

– Seni daryodan o‘tkazishda mana shu kema ish beradi, dedi.

Turkmanning gaplari va kema yetimning maqsadga yetishiga ishonchini orttirdi va u turkmanning orqasidan ishonch bilan katta-katta qadam tashlab bordi.

Ular ekinzorga yetishdi. Turkmaninng ekinzori kichik-kiçik polchalardan iborat bo‘lib, bir polga qovun-tarvuz, alarning o‘rtasiga loviya va no‘xat ekkan, boshqa polchalarga esa mosh, tariq, qo‘noq, jo‘xori, kunjut va zig‘ir kabi dukkakli va moyli ekinlar ekilgan, bo‘sh joylarni yovvoyi o‘tlar bo‘lib yotardi.

Turkman ekinlarini yetimga ko‘rsatib:

– Sening qiladigan ishing shu: ekinzorni o‘toq qilib, qovun-tarvuzni chopib yumshatasan, jo‘xorining tagiga tuproq tortib, sug‘organda yotib qolmaydigan qilasan, – deb uqtirdi.

U bir daqiqada o‘ttiz-qirq kunlik ish rejasini aytib, yetimni qiziqtirish maqsadida:

Bu ishlarni tugatguningcha serpulroq biron qochoq ham kelib qolar, men seni xudo yo‘liga daryodan pulsiz o‘tkazib qo‘yaman,– dedi.

Mayli,– deb yetim yovvoyi o‘tlarni yulishga kirishmoqchi bo‘lganda, turkman uni to‘xtatib: – Bugun damingni ol, ertaga tushasan, «charchaganda qilingan ish yarim ish», deganlar,– dedi. Ikkovlari qora uyga qaytishdi. Turkman qora uyga kirganlaridan so‘ng yetimga:

– Men endi qishloqqa ketaman. Sen bu yerda yotib dam olasan. Lekin kun botgach ehtiyot bo‘lishing lozim, yana o‘g‘rilar kemani yechib olib ketishmasin, – dedi. yetim boshi bilan «xo‘p» degan ishorani qildi. Turkman mixda osig‘liq turgan jomasini kiyayotib, yana gapga kirishdi:

– Tong otishi bilan ishga tush. Men ertalab qishloqdan olib kelib, choy qaynatib, qorningni to‘yg‘izaman, joma osilgan mixdagi gupsarni yetimga ko‘rsatib: – Ham ehtiyot bo‘l, yana, it-pit kelib, g‘ajib tashlamasin, dedi-da, uydan chiqib ketdi.

* * *

Yetim qora uyda bir oz cho‘zilib yotdi-da, turkman nazaridan g‘oyib bo‘lgandan so‘ng o‘rnidan turdi, gupsarni minib olib, ko‘l sari ravona bo‘ldi. Gupsarni suvga solib tashlagach, uni puflab shishirdi va og‘zini bog‘lab, suvga tushirdi. So‘ngra kiyimlarini yechib suvga kirdi va gupsarga minib oldi. Lekin u velosiped minishni yangi o‘rganayotgan kishilardek, gupsar har qimirlaganda bir tomonga yiqilib, suvga cho‘kar va yana suv yuziga chiqib, gupsarni minib olar, uni haydashga urinar edi.

Bir soatcha mashq qilgach, gupsarning ustida o‘tirishni sal o‘rgandi va uni oldinga surdi. Uning nazarida gupsarni minib bir joyda turishdan ko‘ra, olg‘a qarab suzish oson tuyuldi. Bu kayfiyat uni sherdil qilib yubordi va gupsarni tezroq haydayverdi, gupsar qanchalik tsz ketsa, u shunchalik o‘zini tinch his etar, hatto bir tomonga og‘masdi ham. yetim shu zaylda ko‘lning daryo bilan tutashgan joyigacha borib, yana orqasiga qaytib, gupsarni olib chiqdi, damini bo‘shatib, o‘z o‘rniga osib qo‘ydi-da, ko‘l bo‘yiga kelib, kema haydashni mashq qilishga kirishdi.

Bundan oldin kema haydamagan kichik qo‘llari dastlabki daqiqalarda bir-ikki eshkak eshganda toliqib qoldi, lekin bir oz dam berib, yana ishga tushgach, oldingiga nisbatan ko‘pga chidar edi. Shunday qilib, o‘sha kuni kechgacha yetim o‘n marta ko‘l bo‘yiga borib keldi.

Kun botdi. U juda charchataniga qaramay, bugungi mashq keltirgan xursandchilik bilan yayrab: «Turkman biron

...il qochoq kelsa, meni u bilan birga daryodan o'tkazib
...yadi, agar tez orada kelavermasa, daryodan o'tish yo'lini
...im ham topdim», dedi. U ko'lning labidan qora uyga ke-
...cho'zildi, cho'zildi-yu, qotib uxlab qoldi.

U Yanim kechada yetim ot tuyoqlarining tapir-tupuridan
...onib ketdi va «Kemaga o'g'ri kelmadimi», deb o'rnidan
...ib, tashqari chiqdi. U kemani turkman uchungina emas,
...i uchun ham o'g'ridan saqlashi kerak edi. Chunki kema
...ib daryodan o'tishi uchun zarur edi.

U qora uyning eshigi oldida turib, tuyoq tovushi kelgan
...omonga qaradi – ikki otliq kelar edi. Ammo otliqlar kema
...ig'langan ko'l tomon bormay, to'g'ri qora uy oldiga kel-
...ililar. Ular ikki otliq ham miltiq va qilich bilan qurollangan
...li

Qayiqchini chaqir, – dedi yetimning oldiga kelib
to'xtagan otliq.

Kemachi uyda yo'q, – javob berdi yetim.

Qaerga ketdi?

Qishloqqa.

Zog'ora-pog'ora bo'lsa, bizga chiqazib ber.

Bor zog'orani yeb ketgan edi, mening o'zim ham och
yotibman.

Xotin taloq! – deb non qoldirmay ketgan kemachini ha-
qorat qildi boyagi otliq va ular qamishzor atrofini bir aylanib,
daryoning pastki tomoniga qarab ketishdi.

Yetim ko'nglida «men bularni o'g'ri desam, gadoy ekan,
qurolli gadoyni umrimda birinchi marta ko'rishim», dedi va
uyga kirib yana cho'zildi.

Bu kecha yetimni o'sha ikki otliqdan boshqa hech kim
bezovta qilmadi. U uyquga to'yib, o'rnidan turganida, qu-
yosh ancha baland ko'tarilib qolgandi.

Yetimning bugungi asosiy ishi ekinzorni o'tash bo'lmay,
gupsar bilan kema haydashni mashq qilishdan iborat bo'ldi.

Ikki soat mashq qilgach, turkman kelib qolib xafa qilishidiki qo'rqib, ekinzorga bordi-da, ekinlarni o'tay boshladi.

* * *

Quyosh tikkaga kelib, soat o'n ikkilar bo'lgan paytda turkman qishloqdan qaytib keldi. U qora uyga kirib, o't yiqib, choy qaynatdi, so'ngra ekinzor boshiga borib yetimning bugungi ishini nazardan o'tkazdi.

– Bugun ishing barakasiz bo'libdi, – deb yetimni ko'nganday bo'ldi-yu, gap ohangini tezda o'zgartdi: – Mayli, zarari yo'q, bu sening uchun yangi ish, asta-sekin o'rganib olasan, ishing ham barakali bo'lib ketadi, – deb uni ovutganday bo'ldi va: – Qani, kel, choy ichaylik, – deb yetimni qora uyga boshlab bordi.

Choy ichish paytida yetim kechagi qurolli gadoylar haqida so'zlab berdi.

Turkman qah-qah urib kuldi, va:

– Ular to'g'ri kelsa o'g'rilik va qaroqchilikdan ham qaytmaydilar, kimsasiz beva-bechoralarni talaydilar, menga o'xshash bir o'qlariga ikki o'q bilan javob beradiganlarga esa, bir pog'ona past tushib gapiradilar, – dedi.

Choydan so'ng turkman yana qishloqqa qaytmoqchi bo'lib:

– Mening yo'qligimda birov so'rab kelsa, qishloqqa yubor. Kechagiga o'xshash odam kelsa: shu yerda yoting ertalab keladilar, degin, – deb uqtirdi.

Turkman qaytayotib, choydan ortgan bitta zog'orani yetimga berib:

– Och qolsang, yeysan, ehtiyot bo'l, yana «qurolli itlar» qo'lingdan tortib olib yemasin, yaxshiroq ishla, – deb tayinlab chiqib ketdi.

Choydan keyin ham yetim ko'p vaqtini gupsar va qayiq haydashga sarf etdi. ya'ni turkmanniig qavlicha uning

bugun peshindan keyin qilgan ishi ham «unchalik barakali bo'lmadi»...

Yetim hammadan ko'ra turkmanning qishloqqa borib-kelishini hisoblashga e'tibor berdi: u har kuni soat o'n bir-o'n ikkilarda qishloqdan kelib, yetimning ish unuminn ko'zdan kechirar va u bilan birga choy ichib, kechki ovqat uchun bit-ta zog'ora qoldirar, barakaliroq ishlashga da'vat etib, yana qishlog'iga ketardi.

Yetim turkmanning kelib-ketish vaqtini aniq bilib olgach, o'zining ish vaqtlarini ham belgiladi: u har kuni ertalabki bir necha soatlik vaqtini gupsar va qayiq haydashga sarflab, kunning o'rtalarida to'rt-besh soat ekinzorda ishlar edi.

Bora-bora u gupsar va kemani daryo o'rtalariga olib borib, suvning oqimida ham hayday boshladi va bunda ham ancha tajriba orttirdi. Bundan tashqari, u suvda suzishni, suv ostiga sho'ng'ib, nafas olmay uzoq turishni ham mashq qildi. Ekinzorlardagi ishlari ham ancha yurishib ketdi. yetim ekinzorni o'toq qilib, ekinlarni gulday yashnatib yubordi. Turkman ham yetimning bu ishlaridan juda xursand bo'lar, ba'zan uni «ofarin», «barakalla» deb maqtar:

Yaxshiroq ishlayver, xudo xohlasa, yaqin orada biron sepul qochoq kelib qolar, seni u bilan birga suvdan bepul o'tkazib qo'yaman, – deb yetimni umidvor qilar, yaxshi ishlash uchun shavq-zavqini oshirar edi.

Turkman yetimning bo'yiga mos qilib bir belkurak yasatib olib keldi, unga yerlarni chopishni va jo'xori ostiga tuproq tortishni topshirdi...

Qirq kunda yetim usta gupsarchi va epchil kemachi bo'lib oldi, hatto, u gupsar bilan kemani suv oqimiga qarshi boshqaradigan ham bo'lib qoldi.

Ekinzor ishlari tamom bo'lgach, turkman bir chimzorni ko'rsatib yetimga belkurak bilan ag'darib, ildizlarni terib, landa beda ekishga tayyorlab qo'yishni tayinladi, yana:

– Ungacha biron serpul qochoq kelib qolar, – deb uning
vor qilib qo‘ydi.

* * *

Yetim yangi ishni ham boshladi. Lekin hamon serpul
qochoqdan darak yo‘q edi. «Nahotki yoz kunlari o‘tib, chiqish
larni yig‘ib-terib olguncha serpul qochoq kelmasa?» – deb
o‘ylardi yetim.

Yetim kunlardan birida ana shu xayollar bilan uxlay ol-
madi. Yarim kechaga borib qamishzorlardan odam sharpani
eshitildi. yetim o‘rnidan turdi-da, uydan chiqib kema tomon-
ga yugurdi. Ikki kishi kemani yechayotgan edi.

– Qimsizlar? – deb so‘radi yetim.

– Men, qo‘rqma, – dedi tanish ovoz. Bu turkman edi. ye-
tim quvonib ketib, u tomonga yugurdi.

– Serpul qochoq topildimi? – deb so‘radi yetim. – Men
ham tayyorlanaveraymi?

– Bu odam daryodan o‘tmaydi, suv o‘rtasidagi orollardan
biriga kuzgi qovunga boryapti, – dedi turkman.

Yetim bu gaplarning yolg‘onligini sezdi, chunki kechasi
qovunga borilmasligi unga ma‘lum edi. «Kim bilsin, daryo-
dan o‘tish umidida qirq kundan beri ishlab yuribman, men
uxlab qolganimda bu firibgar qanchadan-qancha qochoqlarni
o‘tkazib qo‘yganikin. Meni esa aldab, hozirgacha biron ser-
pul qochoqning kelishiga ko‘z tuttiradi», deb o‘yladi yetim.

XIV

Bir kuni yetim hech ishlamadi, dam oldi. Turkman kela-
digan vaqtda o‘zini kasallikka solib, o‘ralib yotdi. Turkman
qishloqdan kelib ko‘rdiki, yetim «voy-voylab» kasal bo‘lib
yotibdi. U darrov choy qaynatib, o‘zi ichdi, kasalga ham
ichirdi. yetim hech narsa yemadi. Turkmaning: «Non
yegin», – deb qistashiga:

Ko'nglim tortmayapti, boshim qattiq og'riyapti, – deb javob berdi.

Hugun turkman ko'p turmay, yetimning kunduzgi va kechki ovqati uchun ikkita zog'ora qoldirib, qishloqqa qaytib ketdi. Turkman ketishi bilanoq yetim tayyorgarlikka kirishdi: gupsarni mixdan olib, tikilgan choklarni birma-bir ko'zdan kechirdi, uning mustahkamligi va suvning har qanday zarbiga ham bardosh bera olishiga ishonadi. Shundan so'ng kema oldiga borib, uning hamma tomonini ko'zdan kechirdi, yirtilgan eski to'ning paxtasini olib kelib uchi nayza qilingan cho'p bilan uning darz ketgan joylariga, teshiklariga ivitib tiqib mahkam qildi. U yana qora uyga bordi-da, zog'oralardan butun choydishdagi qaynoq suvga botirib yedi va bir oz uxlab olish uchun cho'zildi. Lekin uxlay olmadi. Uning butun fikru zikri Amudaryodan yakka va hayotida birinchi marta o'tishi haqidagi o'ylar bilan band edi. Ana shunday his-hayajon bilan har lahzada ilonday to'lg'anib kunni kech qildi.

Kun botgandan so'ng yetim zog'ora va gupsarni olib kema tushib o'tirdi va uning arqonini mixdan yechib, eshkak esha boshladi, ko'l bilan daryo bir-biriga tutashgan joyga borib, langar tashlab, qorong'ilik quyuqlashuvini kutib turdi.

Shu payt mahalliy hukumatning ikki qorovuli daryo labi bilan yetim tomon kela boshladi, yetimning ko'zi ular bilan to'qnashganda u qo'rqib ketdi va «maqsadga erishaman deb turganimda qo'lga tushsam-a», deb o'yladi.

– Ha, qochoq, horma! – deb bir posbon otdan tushib kema chiqdi-da, kemadan gupsar, yetimning yirtiq-yamoq ust-boshlari va bir dona zog'oradan boshqa hech narsa topmadi. U zog'orani qo'lida ushlab turgan holda yetimdan kimligini, bu yerda nima qilayotganini so'radi.

– Kema haydashni mashq qilib yurib edim, sizlarni ko'rib to'xtab qoldim, – dedi yetim. U yetimning qo'l-oyog'ini bog'lab, kemadan chiqarmoqchi bo'lgandi, ikkinchi posbon:

– Qo'yaver! Bu bola qochgani bilan nima ish qila olma edi. Zog'orani olib kelaver, – dedi.

Haligi odam yetimni o'z holiga qo'yib, kemadan chiqib, otiga mindi va zog'orani ikkiga bo'lib, bir bo'lagini yeb, otini yeldirib ketdi. Ular ko'l va qamishzorni bir aylanib, yana daryo labida g'oyib bo'ldilar. yetim posbonlar oldida kemani qora uy tomonga qarab haydadi, lekin posbonlar uzoqlashgach, yana daryo labiga kelib to'xtadi.

Qorong'ilik tushdi. Osmondagi yulduzlar miltillashidan boshqa hech qanday yorug'lik yo'q. Hatto Amuning sarg'ish loyqa suvida yulduzlarning aksi ham ko'rinmas edi. yetim uchun ulkan ishni boshlash fursati yetgan edi. U kemasi ni daryoning o'rtasiga qarab haydadi va biron odam ko'rib qolmasin deb, har eshkak eshganda ortda qolayotgan daryo qirg'og'ini ko'zdan kechirardi...

U daryo labida ikki kishining qorasini ko'rди, «avval menga shunday ko'rinayotgandir, shu qorong'i kechada bu yerda odam nima qiladi» deb o'yladi. Lekin ko'p o'tmay, o'sha qoraning odam ekani aniq bilindi. Ularning biri yugurganicha, ikkinchisi sekinroq daryo tomon kelar edi.

Yugurib kelayotgan kishi daryo labiga yetib kelib:

– To'xta, o'g'ri! Orqangga qayt! Bo'lmasa otaman, – dedi baland ovoz bilan. yetim bu ovozni tanidi – u oxirgi xo'jayini – kemachi turkmanning ovozi edi.

Yetim xo'jayinning doimiy odatiga xilof ravishda kelishidan biron serpul qochoq topilibdimikan, deb o'ylardi. Ehtimol, orqada asta-sekin kelayotgan odam qochoqdpr. «Agar hozir uning qo'liga tushsam, meni, otib tashlaydi, vaqtни ganimat bilib, qochganim ma'qul», deb o'yladi ichida yetim. U ana shunday mulohaza bilan kemani qo'sh eshkaklab daryo ichkarisiga haydadi.

Turkman miltig'ini yetim tomonga qaratib otdi, Shu payt qarshidan – yetimning vatani tomonidan bir necha miltiq

ketma-ket otilgani eshitildi. Shundan so'ng har ikki tomondan ham otishmalarning ovozi eshitila, berdi.

Turkmanning o'qi kemaga yaqinlashmay, boshqa tomonlarga uchib ketayotgan bo'lsa ham, qarshidan otilyotgan o'qlar kemanding chor atrofidan vizillab o'ta boshladi.

Bundan yetim qo'rqdi va dastlabki o'qlar teparoqdan o'tib ketgan bo'lsa ham, «keyingilarining mening boshimga yoki kemaga kelib tegishi muqarrar», deb kemani suvning oqishiga – o'z holiga qo'yib yubordi. O'zi esa kemanding ostiga cho'zildi, qo'l uzatib, gupsarni oldi va yotgan joyida uni pullab shishira boshladi.

Qarshi tomondan kelayotgan o'qlar kemaga va uning ichiga kelib tega boshladi. yetim xavfli va og'ir vaziyatda qolgan edi: bir tomondan, o'q tegib halok bo'lish xavfi; ikkinchi tomondan, o'q teshgan joylardan kemaga suv kirib, g'arq bo'lish xavfi tug'ilgandi. U bu falokatdan qutulish uchun dam bergan gupsarniig bandini bilagiga o'radi va kemanding bir chetidan gupsar bilan suvga tushdi.

* * *

Yetim gupsarga minmay, uni bilagiga bog'lagan holda, suvning oqishiga qarab boraverdi. U ko'pincha suv ostida borar, nafasi qaytar, suv yuziga chiqib nafas olib, yana suvga sho'ng'ir edi...

Qarshi tomondan otilgan o'qlarning ovozi hamon eshittilar, ularning ko'pchiligi kelib kemaga tegar edi. Bu holat kema suvga to'lib, cho'kib ketguncha davom etdi. yetim taxminan ikki soatcha gupsarga minmadi, goh sho'ng'ib, goh yuzaga chiqib, suv oqimiga tomon ketaverdi. Miltiqlarining ovozi tamom tingach, u gupsarga mindi va pastroqqa borib suvdan chiqmoqchi bo'lib, suv oqimiga qarab ketishda davom etdi.

Yana bir soatlardan keyin yetimning qarshisida bir orol ha ko'rindi. yetim juda charchagan va holdan toygani chunki shu orolda dam olmoqchi bo'lib suvdan chiqdi va gupsarni ham olib chiqdi. Lekin orolga chiqishi bilan oyog'i botib qoldi, chunki orol yaqinda paydo bo'lgan bo'lib, chekkalari hali loy ekan. yetim oyoqlarini zo'rg'a loydan sug'urib, orolning o'rtarog'iga bordi, u yer quruq edi, U dam berilgan gupsarni boshiga qo'yib cho'zildi. U ham charchagan, ham ochiqqan, ham sovqotgan edi. Shuning uchun yetim xuddi bezgak tutgan odamday qaltirar, tishlari bir-biriga tegib takillardi.

Yetim bir necha minut uxladi, lekin orom olish o'rniga ahvoli tobora yomonlashaverdi. U boshini ko'tarib aziz vatanni tomonni ko'zdan kechirdi, qirg'oq yaqin edi. Daryo labidagi qamish va o'tlar aniq-taniq ko'rinib turar edi.

«Bu yerda o'lib ketishim hech gap emas. Ammo maqsad bo'sag'asida o'lib ketmoq juda alamli. Safarimni davom ettirganim yaxshi. agar o'lsam ham mehribon onam – aziz vatanimga bir qadam bo'lsa ham yaqinlashib o'laman», dedi ko'nglida u.

Vataniga bo'lgan muhabbat unga quvvat baxsh etdi. O'rnidan turib gupsarni ko'tarib orol chekkasiga bordi, gupsarni suvga tushirdi-da, qirg'oqqa qarab suza boshladi. U gupsar ustiga yotib olib suvni ham qo'llari bilan, ham oyoqlari bilan eshib, o'rdak singari suzib borar edi...

Daryoning labi yaqin edi, orol bilan qirg'oq o'rtasidan o'tadigan suv juda sekin oqar, hatto ko'l va hovuzdan farqi yo'q desa bo'lardi. yetim ikki ko'zini daryo qirg'og'idan uzmas, u yerda biron kishi bor-yo'qligini aniqlashga intilardi. «Mabodo qirg'oqda bosmachilar qo'lga tushib qolsam, men bir yetim va kambag'alvachchaman, ularning qo'lidan qutulish mumkin emas», – deb xayol surib borardi.

Ammo qirg'oqda hech kim ko'rinmas, hamma yerda jim-jitlik, hatto qamish va ko'katlarning barglarini qimirla-

ladigan darajada ham shamol esmasdi. Beg'ubor osmondagi charaqlagan yulduzlarning yog'dusida yetimga hamma narsa yaqqol ko'rindi. U aziz vataniga tezroq yetish zavq-shavqi bilan gupsar haydashni tezlatdi.

Nihoyat gupsar qirg'oqqa borib yetdi. yetim biror o't yoki qamish ildizini ushlab, suvdan chiqmoqchi bo'lib qo'lini uzatgan edi, bir baquvvat qo'l uning bilagidan, ikkinchi biri esa gupsarning bandidan tutdi. yetim qo'lga tushgan edi, lekin uni kim qo'lga tushirganini bilmasdi. Chunki uni ushlagan odamning gavdasi qamish va daryo labining ko'kat butalari ortiga yashiringan edi.

IKKINCHI QISM

I

Yetim va gupsarni baquvvat qo'l bilan suvdan tortib ruqlikka chiqargan odam o'rnidan turdi, sal pastroqdagi mishzordan yana ikki kishi chiqib kelib, bolaning boshida turdilar.

Bularning uchovi ham yetimga notanish kiyimlarda bo'lib, u bunaqa kishilarni birinchi ko'rishi edi: ularning kiyimi yevropacha, bir xil tusda, bir andozada edi: har uchovi ham miltiq, to'pponcha va granatalar bilan qurollangan edilar.

Yetimni suvdan tortib olgan kishi uni o'z holiga qo'yib, gupsarning og'zini ochib, ichiga qaradi, titkilab ham ko'rdi, unda hech narsa yo'q edi.

Shundan so'ng u yetimdan kimligini, qaerdan va nima maqsad bilan daryodan o'tganligini so'radi. yetim uning so'zlariga tushunmadi va yuziga qarab indamay turaverdi. Qamishzor ichidan chiqib kelgan kishilardan biri yetimning rus tilini bilmasligini sezib, berilgan savolni yetimga tarjima qilib berdi. yetim savollarga javob berish vaqtida boshidan kechgan hodisalarni birma-bir hikoya qildi va qanday maqsad bilan daryodan o'tganligini quyidagicha ifodaladi:

– Men o'zimning aziz vatanimga – bolsheviklar rahbarligida kambag'allar va yetimdar haq-huquqini boylardan o'z qo'lga olayotgan vatanimga yetib, yetimxonada tarbiyalanib, o'qib, odam bo'lib, bolsheviklarga qarshi bosh ko'targanlarga qarshi kurashmoqchiman, bosmachilarga qurol berib, kambag'allarni o'ldirayotgan va vatanimni kuydirayotgan boylarni qo'lga tushirib, ularni bolsheviklarga topshirish maqsadida daryodan o'tdim.

– Agar gaplaring rost bo'lsa, maqsadlaringning hammasiga erishasan, – dedi tarjimon orqali so'roq qilayotgan kishi

qandni ochib, ichidan bir chaqmoq qand va bir dona shokolad olib, yetimga berdi, va: – Bularni yegin, bir oz daromadning kursa ketamiz, – dedi.

Yetim qandni og'ziga solib, shimiy boshladi. Hozirgacha u hayning uyida qandni ko'rgan bo'lsa ham, mazasini tatimagan edi. Qand nihoyatda mazali narsadek tuyuldi, u nafsi-ga orom baxsh etdi, ko'ngliga osoyishtalik, sovuqdan qaqs-hayotgan badaniga harorat berdi.

Yetim qandni shimar ekan, konfetning rangli va kumushsimon qog'ozlarini ochib, bir qo'lida qog'ozlarni va bir qo'lida jigar rang shokoladni ushlab, qog'oz va konfetga taajjub va shubha bilan qarar edi, chun-ki u bunaqa narsani hayotida birinchi marta ko'rmoqda edi.

Tarjimon yetimga kulimsirab qaradi va konfetni ko'rsatib:

Bunisini yegin, – qog'ozlarni ko'rsatib: – Bunisini tash-lagin, – dedi.

Yetim konfetni og'ziga soldi. U qanddan ham lazzatli va yoqimli tuyuldi. U konfetni chaynayotib qog'ozlarni birma-bir nazardan o'tkazdi va zar qog'ozni tirnog'iga surkab ko'rdi.

Bularni nima qilasan, tashla! Bu kerakmas qog'ozlar! – dedi tarjimon yetimga.

U konfetning oxirgi bo'laklarini yutar ekai, uning qog'ozlarini istar-istamas, ko'zi qiymay yerga tashladi, lekin ko'zlarini qog'ozdan uzmas edi. Yonidagilar biron narsani so'rsa, javob berar va yana konfet qog'ozlariga ko'z tash-lardi. Shokoladni yegach, yetimda kuch paydo bo'ldi, rang-to'yiga ham sal qon yugurgandi.

Yetimni ushlagan kishni uni tarjimon bilan zastavaga olib bormoqchi bo'lib yo'lga tushdilar.

* * *

Chegarachilar yetimni zastavaga olib kelganda, uning eg-nida bir cholvordan boshqa hech narsa yo'q edi. Bu yerda

unga toza va yangi ust-bosh kiygizib, kichkina xonaga olib kirdilar. Xonada yetimni ushlab kelgan kishilarga o'xshash kiyingan bir kishi o'tirar edi.

Bu kishi ham boyagi savollarning xuddi o'zini takrorladi. yetim ham daryo labidagi javobini qaytardi. Oldingi so'roqdan buning farqi shunda ediki, savol-javoblarning hammasini bir qog'ozga yozib turishdi...

Savol-javob tugagach, so'roq qiluvchilar:

– Olib chiqinglar, ovqat beringlar, uxlasin, dam olsun. U yog'ini keyin ko'ramiz, – dedi.

Yetimni boshqa xonaga olib chiqdilar. Uyga kirganda qop-qorong'i edi, birdaniga ravshan bo'lib ketdi.

Bu ahvoldan yetim seskanib qaltirab ketdi, hushdan ketayozdi, rangi o'chib, lablari oqardi. U goh shiftda osidib turgan lampochkaga, goh uni uyga olib kirgan soqchiga tikilar edi.

– Qo'rqma! Bu o'zi yonar chiroq, uning nomini elektr deydir, – dedi va devor oldiga borib, chiroqni ikki-uch marta o'chirib-yondirib ko'rdi.

Endi yetim cheksiz xursand, azob-uqubatli qorong'ilikdan mo'jizakor yorug'likka yetgan murg'ak ko'ngli shodligini o'ziga sig'dira olmasdi. U hozir behad xursandligini biron kishiga bayon etib, ko'nglini bo'shatishni istardi.

Shu payt yetimning xotiriga mehribon onasi va Qurbon akasi tushdi. Qani endi hozir ular bo'lsalar, o'z qo'li bilan elektrni o'chirib-yondirib o'z hunarini, bolsheviklar keltirgan bu ajoyib narsani ularga – eng yaqin do'stlariga namoyish etsa.

Elektrni ko'rib, uni yoqib-o'chirishni o'rgangandan so'nggi hayajoni bir oz bosilgach, yetim xonani ko'zdan kechirdi: xona juda tor bo'lib, uni hujra desa bo'lardi. Lekin u juda ozoda, devorlari oppoq, tagiga hamda shiftiga taxta qoqilgan va moyli bo'yoqlar bilan bo'yalgan edi.

Hujraning bir chetiga karavot qo'yilgan bo'lib, uning ustiga yumshoq to'shak solingan, yana bir burchakka stol qo'yilgan, uning ustiga kleyonka tashlangan, yonida kichik kursicha turardi.

Yetim bunaqa jihozli xonani umrida birinchi marta ko'rmoqda edi. «Bolsheviklarning yetimxonasi bo'lsa kerak», deb o'yladi u.

Vaholanki, bu hujra qamoqxona edi. Agar shu topda biron kishi yetimga: «Bu hujra qamoqxona», desa uning tilini uzib tashlagisi kelardi. Chunki, u bundan bir yarim oy buri qo'shni davlatning qamoqxonasini ko'rgan edi. U qamoqxona boyni qopog'on itini bog'lab qo'yadigan joyday qorong'i, iflos, devorlari qop-qora bo'lgan molxonadan ham yomonroq edi. U yerda mahbuslarga kiyim kiygizmas, durust muomala qilishmas, ust-boshlarini yechib olib, qamchi bilan savalab qamab qo'yishardi.

Yetim yetimxonaga bunchalik tez joylashganidan xursand bo'lib turganida hujraning eshigi ochilib, bir kishi choy, non, qand ko'tarib kirib, ularni stol ustiga qo'ydi va yetimga kursini ko'rsatib:

– Kel, o'tirib choy ich, non yegin, – dedi-da, yana eshikni yopib chiqib ketdi.

Yetim choyga qand solib, non yeyishga kirishdi... Qorni to'yg'azishi bilanoq eshik ochilib yana boyagi odam kirib kelib, stakan va tarelkalarni yig'ishtirib oldi-da, karavotni ko'rsatib:

– Bu sening yotadigan joying, – dedi.

U eshikdan chiqib ketish oldida yetimni shtepsel oldiga olib borib, o'chirib-yondirishni o'rgatdi va:

– Yotish oldidan chiroqni o'chirib qo'y, – dedi.

Yetim, boshini mag'rurona silkitdi-da, chiroqni bir-ikki marta o'chirib-yondirib:

– Bu ishni men allaqachon o'rganib olganman, – dedi.

– Molodets, ofarin! – dedi haligi kishi va eshikni yopib chiqib ketdi.

Yetim kiyimlarini yechib, yumshoq karavot ustiga cho‘zildi. Bu uning umrida birinchi marta karavotda va yumshoq to‘shakda yotishi edi. Shuning uchun ham boshini qo‘yishi bilan uyqu eltdi.

* * *

Yetim hujrada u yoq-bu yoqqa yurayotgan posbonning oyoq tovushidan uyg‘onib ketdi. Quyosh derazalardan mo‘ralab, hujrani isitgan, soat o‘n ikkilarga borib qolgan edi.

Kiyimlarini kiygach, uni posbon eshikka chiqardi. U toza havodan to‘yib-to‘yib nafas oldi. Qo‘l-yuzini yuvib, yana hujraga qaytdi. Posbon eshikni berkitib ketdi. Bir necha daqiqadan so‘ng nonushta olib kelgan kishi yana choy-non, qand olib kirib, yetimning oldiga qo‘yib ketdi.

Ovqatlanib bo‘lgach, yetim yana karavotga cho‘zilib, shiftga qarab yotgan holda ko‘zini bir oz ilintirib oldi. Lekin endi uning yuragi siqila boshladi:

– Axir, yetimxonada o‘qitadi deyishardi, o‘qish qachon boshlanar ekan, boshqa bolalar qaerda ekan? Yolg‘izlik jonga tegdi-ku! – dedi o‘ziga-o‘zi.

U o‘rnidan turib, temir panjarali deraza yoniga bordi, tashqariga qaramoqchi bo‘ldi, ammo hech narsani ko‘rolmadi. Chunki deraza oynasiga oq narsa surtilgan bo‘lib, tashqari ko‘rinmas edi. Shundan so‘ng u hovliga chiqmoqchi bo‘lib, eshikni tortdi, eshik ochilmadi, tashqaridan qulflangandi. Yuragi battarroq qisilib ketdi:

– Ajabo! – dedi u o‘z-o‘ziga, – yetimxonada bolalarni bir uyga yolg‘iz qamab qo‘yar ekanlar-da? Bu yaxshi emas. Buni kattalarga aytib tartibni o‘zgartirish kerak...

U yana karavotga cho‘zildi, o‘rnidan turib, xonada u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi... Yuragi qisilishi nihoya-

iga yetganda, eshik ochilib, choy-non, keltirgan kishi stol ustiga non bilan sho'rva keltirib qo'ydi-da, choynak-piyolani yig'ishtirib oldi.

U eshikdan chiqib ketayotganda yetim:

To'xtab turing, amaki?! O'qish qachon boshlanadi? – deb so'radi.

U odam yetimning yuziga taajjublaiib qarab qoldi va:

Bu yerda o'qimaydilar, – dedi.

Boshqa bolalar qaerda? – yana so'radi yetim.

Bu yerda sendan boshqa bola yo'q, – javob berdi u. U odam taajjublangan holda eshikni qulflab ketdi. yetim ham «bolasiz va o'qishsiz yetimxona»ga hayron bo'lib, kursiga borib o'tirdi va sho'rva ichishga kirishdi. U nonni sho'rvaga to'g'rab yedi, kartoshka va go'shtlarni ham pok-pokiza tushirdi.

«Sho'rvasi mazali ekan, – dedi u o'z-o'ziga. – Har kuni bir qo'y so'yib yeydigan Eshonqulboyning uyida menga pix boylagan qoq non berardilar. U ham to'yimli emasdi. Hafta-o'n besh kunda bir marta sho'rva bersalar ham, u iliq-miliq bo'lardi. Go'sht bergudek bo'lsalar, suyakning go'shtlarini tarashlab olib, quruq suyakni menga berar edilar. Bu yerda ham lazzeatli sho'rva, ham go'sht berdilar».

Yetim sho'rvani o'z-o'zicha ta'riflagach:

– «Bular yaxshiku-ya, lekin bu yerda yeb-ichib yotishdan boshqa ish yo'q ekan-da, bunga chidab bo'lmaydi. Hech bo'lmasa oldimda bironta bola bo'lgandaydi, u bilan goh o'ynab, goh gaplashib o'tirar edik», – dedi va o'rnidan turib, karavotga cho'zildi...

* * *

Yetim qattiq uxlab qolgan edi. Uni posbon kelib uyg'otdi va: «Mening ketimdan bu yoqqa kel», deb avval kuni so'roq qilingan uyga olib kirdi.

Xonada ertalab yetimni so'roq qilgan kishidan boshqa yana ikki kishi o'tirar edi. Bugun ham o'sha savollar va o'sha javoblar aytilib, qog'ozga yozildi.

Tergovchi qorovulga qarab:

– Buni olib chiqib turing, yana chaqiramiz, – dedi.

Qorovul yetimni eshik oldidagi divanga o'tqazib, o'zi ham uning yoniga o'tirdi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, uni yana ichkariga chaqirishdi.

– Seni qo'yib yuboramiz, uyingga borasanmi? – dedi tergovchi yetimga qarab.

– Mening uyim-yo'q-ku, – deb javob berdi yetim.

– Qarindosh-urug'ing bo'lsa ularnikiga borarsan?

– Qarindosh-urug'im ham yo'q!

– Unday bo'lsa, qo'yib yuborsak, qaerga borasan?

– Men bu yerdan hech qaerga ketmayman, shu yerda qolib, o'qiyman. Faqat men yotgan xonaning eshigini ochib qo'yishsa, bas, – dedi yetim.

Hozir bo'lganlar bir-birlariga qarab kulishgach, tergovchi yetimga:

– Bu yerda o'qimaydilar-ku, – dedi.

– Nega, yetimxonada o'qiydilar deyishgan edi-ku, – dedi yetim.

– Bu yer yetimxona emas, – dedi kulgisini bosa olmagan holda tergovchi.

Boshqalar ham qotib kulishar edi.

– Yetimxonaga yuborsak, borasanmi? – deb so'radi tergovchi.

– Boraman! – dedi yetim ham xursand bo'lib, ham taajjublanib.

Hozir bo'lganlar o'zaro kulishib, maslahatlashishdi.

– Bu bolaning yoshi kattaga o'xshaydi, gaplaridan o'n olti yoshdan kam emas. Bu yoshdagi bolalarni qoidaga ko'ra,

yetimxonadan chiqaradilar, qanday qilib biz uni yetimxonaga yuboramiz! – dedi ulardan biri.

– Bo‘yi novcha bo‘lsa ham, bergan javoblariga ko‘ra o‘n to‘rt dan oshmagan. Bundan tashqari, uing uy-joyi, qavm-qarindoshi yo‘q, uni o‘qitish kerak. Hozircha bizda yetimxonadan bo‘lak yeb-ichib, o‘qib, tarbiya oladigan muassasa yo‘q. Shuning uchun rasmiyatchilik qilib o‘tirmay, bolani yetimxonaga yuborish lozim, – dedi tergovchi.

Boshqalar ham bu taklifga qo‘shilishdi. Tergovchi yetimga qarab:

– Eshikka chiqib tur. Hozir biz xat yozib seni yetimxonaga yuboramiz, – dedi.

Yetim tashqariga chiqib turdi. Bir necha daqiqadan so‘ng eshikdan qo‘lida konvert ushlagan bir posbon chiqib, uni yetimxonaga olib ketdi.

Posbon yetimni yetimxonadagi uylardan biriga olib kirib, qo‘lidagi konvertni u yerda o‘tirgan kishiga berdi va yetim bilan birga yumshoq divanga o‘tirdi. U odam konvertni ochib xatni o‘qidi va boshini ko‘tarmagan holda:

– Juda soz, – dedi-da, qalam bilan xatning yuziga nimadir yozdi va orqasidagi devorga o‘rnatiltan qubbachalardan birini bosdi.

Qo‘shni xonadan bir kishi chiqdi. Harakatidan yetimxona boshlig‘i ekanligi ko‘rinib turgan haligi kishi yangi kelgan odamga xatni berib:

– Buni rasmiylashtiring, – dedi.

Qolgan odam xatni ko‘zdan kechirgach, yetimga qarab:

– Shu bolami? – deb so‘radi boshlig‘idan.

– Ha, shu! – dedi u daftar varaqlab turgan holatda boshini ko‘tarmay.

– Qani, yuringlar, – deb ularni bir xonaga olib borib, o‘zi stulga o‘tirdi va ularga skameykani ko‘rsatdi. Ular ham o‘tirishdi.

Harakatlaridan bu odam yetimxonaning sekretariga o'xshardi. U qo'lidagi xatga qarab, bir daftarga nimalarnidir yozdi. Shundan so'ng bir varaq oq qog'oz olpb, shtamp bosdi, bir necha satr xat yozgach, muhr ham bosdi.

So'ngra uydan chiqib xalat kiygan o'rta yoshli bir xotinni boshlab kirdi, o'zi yozgan xatni unga berdi-da, yetim bilan posbonga ishora qilib:

– Bularni olib boring, bolaga ust-bosh kiygizib, egnidagi kiyimlarini bu kishiga – posbonga bering, xatga ham imzo qo'yib, shu kishiga topshiring, – dedi.

Oq xalat kiygan xotin yetim bilan posbonni bir uyga olib kirdi. Xona juda keng bo'lib, bir tomoniga kiyim osadigan shkaflar qator terib qo'yilgandi. U xotin shkaflardan birini ochib, bir to'p kiyim oldi va yetimning bo'yiga o'lchab ko'rdi. Ular yetimga ham kalta, ham tordek ko'rindi. Ularni joyiga qo'yib, yana boshqa bir to'pini ola turib:

– Hozircha shundan boshqa uzun va keng ust-boshimiz yo'q, kalta kelsa ham, torlik qilsa ham shuni kiyib turasan, keyinroq qaddi-bastingga mos kiyim buyurtiramiz, – dedi u yetimga. So'ng posbonga qarab:

– Siz yana bir oz turasiz, men bolaning egnidagi kiyimlarini yechib chiqazib beraman, – dedi va yetimni bir to'p kiyim bilan kiyimxona ichidan kiriladigan bir uyga olib kirib ketdi.

– Mayli, – dedi posbon diqqinafas bo'layotgan kishilardek va hushtak chalib xona ichida u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi.

Posbon ko'p muntazir bo'lib qolmadi. Haligi xotin yetimning ust-boshini olib chiqib, bir gazetaga o'radi va sekretar bergan xatga ham imzo chekib, posbonga tutqazdi.

Agar posbonning yetimga ko'zi tushsa, uning o'zi olib kelgan bolaligiga ishonmas edi: u issiq suvda qo'l-oyoqlarini, boshini yuvib top-toza bo'lgan, sochlari taralgan,

qo‘l-oyoqlarining tirnoqlari olinib, oq ko‘ylak, oq kostyum, oq shim, oq qalpoq, oq tufli, oq paypoq kiyib olgandi.

– Oyna oldiga borib qara-chi, o‘zingni taniysanmi? – dedi xotin yetimga kulib qararkan.

– Men bundan oldin o‘zimni oynada ko‘rmagan bo‘lsam, qanchalik o‘zgarganimni qaydan bilay, – dedi yetim oyna tomon ketayotib va oynaga qarab turib ilova qildi: – O‘zimni oynada ko‘rganimda edi, albatta, hozir bu kiyimlarda o‘zimni taniy olmasdm. – U iljaygan lablarini rostlay olmay, bir necha daqiqa oynaga qarab turib qoldi.

* * *

Yetim oynaga qarayotganda, qarshidagi deraza oldiga bir bola kelib unga tikilib qoldi. U yetimdan novcharoq, gavdasi va qaddi-qomati kelishgan, qo‘l-oyoqlari ham unikidan kattaroq edi. Lekin, yetimga o‘xshab ketardi: ko‘zlari ham yetimnikidek qop-qora, yetim singari lola-ruxsor, sochlari ham unikidek yarqirab turar va qo‘li ham top-toza edi.

Bola yetimga yana bir oz qarab turdi-da, uyning eshigi oldiga kelib:

– Xola, kirsam mumkinmi? – dedi.

– Mumkin, kiravering, – dedi ayol.

Bola uyga kirdi. Bolaning uyga kirib kelganini sezgan yetim unga o‘girilib qaradi. Kirib kelgan bola yetimga bir oz diqqat bilan qarab turdi-da:

– Kechirasiz, o‘rtoq! Siz Murod amakining o‘g‘li yetim emasmisiz? – deb so‘radi.

Yetim qo‘qqisdan otasining, o‘zining nomini eshitib, berilgan so‘roqqa javob berishni ham unutib, bir zum baqrayib qoldi-da, nihoyat:

– Voy, sen Qurbon akam-ku, o‘zimning akajonim-ku, – deb unga tashlandi.

Ikki yosh o'spirin bir-birlarini quchoqlab, samir ko'rishgach, hol-ahvol so'rasha ketdilar:

– Mening boshimdan kechganlarni so'rama! Uni hikoya qilib berish uchun tongi otmaydigan tun, quyosh botmaydigan kunlar kerak. Men onamdan judo bo'lganda u sog'lom salomat, tirik edi-yu, go'rda edi. Hozir men mana shu yetimxonaga joylashdim, – dedi yetim va: – Qani, o'zing gapir! Ahvoling yaxshimi, ota-onang salomatmi? Qishloqning ahvoli qanday? Sen bu yerda nima qilib yuribsan? – deb so'radi.

– Mening bu yosh boshim ham ko'p balolarni ko'rdi. Ota-onam bosmachilar tomonidan o'ldirildilar, bosmachilar qishloqqa o't qo'ydi.

*G'amimni aytmoq uchun
Uzun kechalar kerak,
Men yig'lasam, sen kulsang,
Faqat sen va men bo'lsak!*

Shu yetimxonada tarbiyalanib, xat-savodli bo'ldim, komsomolga kirdim. Bu yetimxonani chegarachilarning komsomol tashkiloti otaliqqa olgan. Men bu yerga yetimxonaning ba'zi ishlarini tekshirish uchun shu tashkilot tomonidan keldim, – dedi Qurbon va yetimga qo'l uzatib: – Xayr, hozircha yaxshi qol. Sen bu yerga joylashib, xotirjam bo'lib ol. Men ham komsomol tashkiloti bergan topshiriqni bajaray. So'ng bafurja o'tirib ko'ngil hasratlarini, sarguzashtlarni baham ko'ramiz, – dedi-da, yetimning qo'lini mahkam qisib, chiqib ketdi.

Yetim Qurbon a'zo bo'lgan va ulkan yetimxona ham unga qaraydigan komsomol degani kim yoki nima ekani haqida o'ylab qoldi.

Hurmatli o'quvchilarimiz esa, Qurbon va uning otasi sarguzashtlarini eshitishga oshiqayotgan bo'lsalar kerak. Biz

shu voqealarni birma-bir bayon etib, kitobxonlarning ha-
vis va istaklarini qondirmoqqa harakat qilamiz.

II

Qurbonning otasi – Ro‘zimurod avallari Buxoro tomon-
lunda mardikorlik qilar, besh-olti tanga orttirgach, qishlog‘i-
ga kelib, xotin, bola-chaqasini ko‘rib, ularning oziq-ovqatini
to‘g‘rilab, yana qaytib ketar edi.

U ana shunday safarlaridan birida – Buxorodan o‘z qish-
log‘iga qaytib kelayotganda suv chetga chiqarib tashlagan
Murodning o‘ligini ko‘mayotganlar ustidan chiqib qoldi.
O‘likni u tanidi, hatto, daryoga o‘zi tushib ketmay, birov to-
monidan otib o‘ldirilganligini ham biqinidagi o‘q izidan aniq
bildi.

Bu xabarni u qishloqqa yetkazdi va ko‘p surishtirishlar-
dan so‘ng Murodni Eshonqulboyning buyrug‘i bilai Shoqul
otib o‘ldirib, daryoga tashlab yuborganini aniqlashga muvaf-
faq bo‘ldi. Lekin u jinoyatchilarga qarshi kurasha olmadi.
Chunki amir hukumati va uning amaldorlari boylarni himo-
ya qilar, ularga qarshi chiqqan, hatto qarshi gapirgan kam-
bag‘allarning kunini kundan ko‘rsatar edi. Ammo amir qoch-
gan va boylar qochishga tayyorgarlik ko‘rayotganda, u xalq
o‘rtasida boylarga qarshi tashviqot yurgazib, jinoyatchilarni
va jinoyatning sirini spravka tarzida ochib tashladi.

Buxoro–Termiz temir yo‘li qurilishi paytida Ro‘zimurod
mardikorlikni tashlab, temir yo‘lning yer qazuvchi ishchilari
qatoriga ishga kirdi. Yo‘l bitib, foydalanishga topshirilgach,
u Termiz deposida bir necha vaqt qora ishchi bo‘lib, keyin-
roq temirchi shogirdi, undan so‘ng master bo‘lib ishladi.

Ro‘zimurod Fevral va Oktyabr revolyusiyasini Termiz
temiryo‘lchilari bilan birgalikda kutib oldi, temiryo‘lchi-
lar orasida tarbiyalandi, uning sinfiy ongi ham shu yerda
ulg‘ayib, kamol topdi. Eshonqulboy va Shoqul tomonidan

Murodning o'ldirilishi sababini o'sha vaqtdayoq tushundirib, ular Murodni o'ldirish bilan kambag'allarga shuni bildirib berdi: moqchi ediki, kambag'allar boylarga tobe bo'lib, ularning farmonlarini bajarishlari, chizgan chizig'idan chiqmasliklari, boylar talab qilgan vaqtda, hatto, xotinlarini ayamashliklari kerak, aks holda, Murod kabi o'lib ketishlarini ko'z-ko'z qilib, ularni cho'chitmoqchi bo'lganlar.

Ro'zimurod Termiz deposida ishlab yurgan vaqtida Buxoroda Kolesov voqeasi ro'y berdi. Bunda jadidlar avangard yuristik, xoinlik va ikkiyuzlamachilik rolini o'ynadilar: bir tomondan, ular «biz revolyusionerlarmiz», deb xalq harakatiga rahbarlikni o'z qo'llariga olmoqchi bo'ldilar, ikkinchi tomondan, amir bilan murosachilik va yarashuvchilik pozitsiyasini tutib, xalq harakatini bo'g'ishga intildilar.

Amir esa, jadidlarning sulh va yarashishlaridan foydalanib, bor kuchlarini safarbar etib, o'ziga qarshi bosh ko'targan xalqni tor-mor etdi, tashkiliy birlashmagan, lekin amir va boshqa ekspluatatorlarga nafrat nazari bilan qaraydigan kishilarni uyma-uy yurib, topib qatl qildirdi.

Amir o'zining bu kontrrevolyusion harakati vaqtida Buxoro mehnatkashlarini ulug' rus xalqining va qizil askarlarning yordamidan mahrum qilish uchun hammadan oldin amirlik territoriyasidan o'tadigan temir yo'llarni buzib tashladi, temir yo'l ishchilarini bola-chaqalari bilan vahshiylarcha o'ldirdi. Jumladan, Buxoro – Termiz temir yo'li ishchilarini, xotin-qizlarni, hatto, qo'ldagi go'daklarning boshigacha oldirdi.

Amir territoriyasida sog'-salomat qolgan ishchilardan biri Ro'zimurod edi. U rus ishchilari va bolsheviklari bilan mustahkam aloqa bog'lab, Buxoro muzofotida mehnatkashlarni amir zulmiga qarshi yangitdan bosh ko'tarib chiqishga tayyorlash yo'lida jonbozlik qildi: Buxoro revolyusiyasida qo'lga qurol olib ishtirok etdi. Sharqiy Buxoroda – Toji-

hollarda bu yerlardan amir izini qirish uchun kurashayotgan qirli partizanlar safida turib janglarda qatnashdi; amir qochayotgan vaqtda sharqiy Buxoro mehnatkashlari o'rtasida tashviqot-targ'ibot ishlari olib borib, xalqni boylarning qir'vosidan qutqazdi, jumladan, chegarada joylashgan o'z qishlog'iga borib, qishloq aholisini boylarga ergashib ketishdan saqlab qoldi.

Ro'zimurod mehnatkashlarni boylarga ergashib ketishdan asrabgina qolmay, ularni boylarning yer-suviga, dehqonchilik asbob-uskunalariga xo'jayinlik qilib, o'z qishloqlarni obod qilishlariga ham rahbarlik qildi.

Lekin Ro'zimurodning qishloq obodonchiligi yo'lida qilayotgan ishlari uzoqqa cho'zilmadi. Ko'p o'tmay amir, uning amaldorlari, boy va jadidlar bosmachilikni tashkil etib, bolsheviklarga, kambag'allarga, umuman, barcha mehnatkashlarga – mamlakatga xo'jayinlik qilib, uni obod qilish va qayta qurish uchun kurashayotganlarga qarshi hujum boshladilar. Jumladan, Eshonqulboy va Shoqullar chet mamlakatda yarog' g'amlab bosmachilarga yordam berdilar, birinchi galda ularni Ro'zimurod boshchiligida kambag'allar egalik qilayotgan sobiq qishloqlariga yubordilar.

Qochoq boylarning bu xoinona tashabbusiga Ro'zimurod tomoshabin bo'lib turmadi: u darhol rayon partiya tashkidoti va revkom bilan aloqa bog'lab, qurol-yarog' bo'ldi, qishloq kambag'allaridan mudofaachi otryad tuzdi.

III

1920 yilning dekabri. Havo unchalik sovuq emas, laylakqor yog'moqda. Lekin qor peshma-pesh erib, Amu qirg'oqlarining sirachsimon tuproqlarini yopishqoq loyga aylantirardi.

Qishloq suv quygandek jimjit. Faqat mudofaachi otryadning shalp-shalp oyoq tashlashigina bu jimlikni buzardi. Otr-

yad havoning buzuqligiga, loygarchilikka qaramay, qishloq atrofida parvonadek aylanar va uni bosmachilarning favqulodda hujumidan mudofaa qilar edi.

Vaqt yarim kechadan oshdi. Qor va loy kechib yurgan otryad a'zolari nihoyatda sovqotdilar. Shuning uchun otryad komandiri Ro'zimurod qishloq atrofiga har joy, har joyga soqchi qo'yib, qolganlarga isinib kelishga va dam olishga ruxsat berdi. O'zi ham uyiga kirib o'choqda oyoqlarini isitib, kiyimlarini qurita boshladi...

Gulxan oldida uxlab qolgan Ro'zimurodni uzoqdan otilgan miltiq ovozi uyg'otdi. U shu zahoti miltig'ini olib, uydan hovliga sakrab chiqdi va ko'chaga otildi. Ko'cha boshida qishloq tashqarisiga qo'yilgai qorovullardan biri ot choptirib kelib, ma'lumot berdi:

– Sherigim bilan o'zimizga tayinlangan joylarda kuza-tuvchilik qilib yurganimizda qo'qqisdan bosmachilar hujum qilib, o'q uza boshladilar. Sherigim birinchi o'q bilanoq yiqildi, men senga xabar yetkazmoq uchun keldim.

Shu payt qishloqning to'rt tomonidan otishmalar esh-tila boshladi, otryad a'zolarini borib uyg'otishning hoja-ti yo'q edi: ular ham birinchi miltiq sadosi bilan uyg'onib, Ro'zimurod soqchi bilan gapni tamom qilmay turib, birin-ketin kelib, uning atrofiga to'planib, buyruq kutib turdilar.

Ro'zimurod otryadni bir necha gruppaga bo'lib, har bir gruppaga bittadan boshliq tayinladi va ularni qishloqning turli tomoniga yubordi. O'zi ham bir gruppani olib, bosmac-hilar tomonidan soqchi o'ldirilgan tarafga ketdi.

Ro'zimurod qishloqdan chiqa turib bosmachilarga duch keldi: soqchini o'ldirgan bosmachilar qishloqqa bostirib ki-rib, daryo qirg'og'idagi hovlilarni talar, «bekitib qo'ygan mollaringizni topib bering», deb dehqonlarni qiynardilar, qamchi bilan, miltiq qo'ndog'i va qilichning sopi bilan urar-dilar. Hujumga o'tgan Ro'zimurod o'n besh daqiqada ularga zarba berib, chekinishga majbur qildi.

Bosmachilar maydonda ikki odam va bir ot o'ligini qoldirib qochdilar, ularning qanchasi yarador bo'lgani ma'lum emasdi. Ro'zimurodning otryadidan ikki kishigina yengil yarador bo'lgandi, xolos.

Ro'zimurod otliq yigitlarini qishloqning boshqa tomonlaridan xabar olishga jo'natib, o'zi piyodalar bilan birga bosmachilarni quvib ketdi. Lekin ular otliq bosmachilarga yetolmadilar, bosmachilar qishloq chetidagi tepa orqasiga o'tib, ko'zdan g'oyib bo'ldilar. Ro'zimurod tepa ustiga chiqib, qishloqning chor atrofidan keladigan xabarga muntazir bo'lib turdi.

Qor tingan, havo ochilib, bulutlar ham tarqalgan edi. Yulduzlar shiftdagi chiroqlar singari charaqlar edi: sovuq turib, esayotgan kuchsiz shamol kishi yuzini yalar, xuddi muz parchalarini surkayotgandek yuzni junjitardi. Loyni muzlatadigan darajada sovuq bo'lmasa ham, ust-boshi yupun odamlarni qaltiratar edi.

Ko'p o'tmay, choparlar birin-ketin kela boshlashdi. Ular keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, u tomonlarda osoyishtalik, bosmachilardan asar ham yo'q ekan, bosmachilar hech kimga va hech yerga hujum qilmabdilar.

– Aftidan, bosmachilar bizni chalg'itish va kuchlarimizni bo'lib yuborish maqsadida har tomondan o'q uzganlar, haqiqiy hujumni esa faqat shu tomondan boshlabdilar, – der edi choparlar. Choparlar to'rt tomonga ot choptirib borib ham bironta bosmachini uchratmabdilar.

Bu xabarni eshitgach, Ro'zimurod bir oz tinchlangan bo'lsa ham, lekin batamom xotirjamlanmadi, balki fursatdan foydalanib, bosmachilarning navbatdagi hujumiga qarshi yanada durustroq tayyorlana boshladi. Shu maqsadda u qishloq atrofidagi posbonlarga xabar yuborib, muhim joylarga soqchi qo'yib, ularning qishdoq markaziga to'planishlarini buyurdi, o'zi ham yigitlari bilan qishloqqa qaytdi...

Ro'zimurod qishloq aholisining hammasini – qari bo'lsa ham, yosh bo'lsa ham, qurolliy quolsiz bo'lsa ham, qishloq machiti oldiga to'pladi, xalq yig'ilib bo'lgach, u yig'ilishni ochib, nutq so'zladi:

– Dushman hali tirik, hatto, u ko'payib, kuchayib bormoqda. Bosmachilarning zarba yeb qochib ketishiga aldanib, jim o'tiraversak, go'daklik qilgan bo'lamiz. Shuning uchun ham hammamiz qo'lga qurol olib, jang qilishni o'rganmog'imiz lozim, – dedi u.

– Hammamizning mashq qilishimiz uchun qaerdan qurol topamiz? – deb uning so'zini bo'ldi birov.

– Sabr qil, hammaning qanday qilib mashq qilishini hozir men senga aytib beraman, – dedi Ro'zimurod ovoz chiqqan tomonga qarab va so'zida davom etdi: – Qo'llariga miltiq olib jang mashqini egallagan o'rtoqlar qurollarini hali mashq qilmagan kishilarga beradilar. O'zlari esa qo'llariga ketmon va belkurak olib, qishloq atrofida xandaq kovlaydilar. Hamma miltiq otishni o'rganguncha biz rayonga odam yuborib, qurol oldiramiz, hammani qurollantiramiz.

Undan so'ng Ergash bedandon so'z olib, Ro'zimurodning gaplarini qo'llab-quvvatladi. Yana bir necha kishi gapirgach, Ro'zimurodning taklifi bilan og'zaki qaror qabul etildi.

Yig'ilishdan so'ng Ro'zimurod qurol talab qilib rayonga odam jo'natdi, qishloqda ishni boshlab yubordi. yig'ilish qaroriga muvofiq, hali jang ko'rmagan kishilar otish mashqiga, qolganlar esa xandaq qazishga kirishdilar. Ro'zimurod otda goh xandaq kovlayotganlar, goh mashq qilayotganlar oldiga borib, ishni kuzatib turardi.

Kunduz soat o'n ikkilargacha ish ancha oldinga siljidi, bir iecha xandaq qazilib, oldiga tuproqdan to'sinlar yasaldi, hanuzgacha qo'llariga miltiq olmagan kishilar miltiq ovozidan cho'chimaydigan, hatto, ba'zilar nishonga olgan parsalarini

madigan bo'lib qolishdi. Ro'zimurod bu muvaffaqiyatdan kursand bo'lib, xalqqa ikki soat dam olish va ovqatlanish uchun javob berdi, o'zi ham ovqatlanishga o'tirdi...

* * *

Ro'zimurod hali ovqatini yeb bo'lmagan edi hamki, bir kishi kelib, uning qulog'iga nimalardir gapira boshladi. Uning ma'lumotiga ko'ra, ular turgan joydab taxminan yigirma besh kilometr naridagi bir qishloqda bosmachilar yashirinch harakat boshlabdilar. Ular hanuzgacha niqoblanib, yashirinch yig'ilishlar o'tkazib turisharkan, turli joylarga yashirilib yurgan o'z odamlaripi qurollantirib bo'lgach, ochiqdan-ochiq bosh ko'tarisharmish.

– Bosmachilar qurolni qaerdan oladi? – deb uning so'zini bo'ldi Ro'zimurod.

Ro'zimurodning savoliga haligi odam bergan javobdan ma'lum bo'ldiki, bosmachilar qurolni hozirgacha ko'pincha qo'shni mamlakatdan olar ekanlar. Ular uchun chetdan yuborilgan qurollarnipg bir qismi chegarachilar qo'liga tushsada, boshqa yo'llar bilan yana kelib turar ekan. Lekin shu kunlarda ular mamlakatimiz ichidan ulgurji qurolni qo'lga kiritish va o'z odamlarining hammasini qurollantirish umidida ekanlar. Hatto bular: «Agar safimizga yana ming kishi qo'shilsa ham, qurol yetarli», – debdilar.

Xabarchining aytishicha, bosmachilarning yaqinda bo'ladigan hujumidan ogoh bo'lgan qishloq kambag'allari atrof qishloqlarga odam yuborib, aholini ogoh qilibdilar. Ro'zimurodning oldiga kelgan odamni ham o'shalar yuborgan ekan.

Bu xabarni eshitgan Ro'zimurod, tayyorgarlikni yanada kuchaytirib yuborib, qurol keltirish uchun rayonga – revkomga yana bir odamni jo'natdi.

Ishning ikkinchi kunida qishloq atrofi xandaq va okoplar bilan o'rab olingandek bo'ldi. Xandaq qazishni tezlashtirishda eski zaxkashlar ham yordam berdi: tepalik yonida qamishzor ko'lga tutashgan katta zaxkash bo'lib, u qishloq aylanasiining qariyb to'rtidan bir qismini tashkil etardi. Uni kovlash va suvga to'ldirish uchun juda oz mehnat sarf qilindi.

Miltiq mashqi ham ko'ngildagidek davom etdi, miltiqni ko'tara olish qobiliyatiga ega bo'lgan kishilarning deyarli hammasi navbatma-navbat mashq qilib, otish va nishonga urishni o'rgandilar.

Qishloq aholisining endigi yutuqlari rayondan keltiriladigan qurolga qarab qolgandi. Ammo rayondan xunuk xabar keldi; qurol uchun borgan har ikki chopar ham quruq qaytdi. Ularning aytishiga qaraganda, revkom raisi:

«Bosmachilarning qishloqlarga qo'qqisidan hujum qilish ehtimoli borligi haqidagi ovozarlar asossiz va yolg'on. Bunday ovozalarni bosmachilarning o'zlari jo'rttaga tarqatganlar. Ular ana shunday ovozarlar vositasi bilan qishloqlarning mudofaachi otryadlarini rayondan qurol so'rashga majbur etib, shu yo'l bilan rayondagi qurollarni qishloqlarga tarqatirib, so'ngra qurolsiz yoki kam qurol rayonni osonlik bilan bosib olish niyatida»,— debdi.

Revkom raisining fikricha, rayon markazi bosmachilar tomonidan bosib olingach, qishloqlar o'z-o'zidan o'shalariniki bo'larmish, binobarin, rayon markazidagi qurollarni qishloqlarga tarqatib yuborish yaxshi bo'lmas emish. Agarda biron qishloqda tahlikali holat yuz bersa, revkom qurolgina emas, balki qurollangan kuchlar ham yuborishga tayyor emish.

Ro'zimurod revkom raisining bu javobidan shubhalangan bo'lsa ham, noumid bo'lmadi. U o'z kuchiga — qishloq kambag'allarining kuchiga suyanib turib, mudofaaga jiddiy tayyorgarlik ko'raverdi.

IV

Okoplar qazilib, ularga qurollangan yigitlar oʻrnashdilar. Miltiq otishni puxta bilmagan kishilar bel, ketmon, bolta, tasha ushlagan holda zapasda turardilar. Roʻzimurod ot minib hamma xandaqlarni va ularda oʻtirgan yigitlarni koʻzdan kechirgach, oʻzi tepalik ustidagi markaziy okopga oʻrnashdi.

Shu kecha tinchlik va osoyishtalik bilan oʻtdi. Faqat jimgilikni otlarning oyoq tovushi: «Uxlab qolma! Hushyor boʻl!» – deb okopma-okop yurgan mudofaachi choparlarining ovozigina buzardi, xolos.

Lekin kun chiqishiga taxminan ikki soatlar qolganda qishloq atrofida miltiq ovozlari eshitila boshladi. Shundan soʻng choparlar ot choptirib kelib, qishloqdan uzoqroqda onda-sonda miltiq otib kelayotgan bosmachilar qorasini koʻrganliklarini Roʻzimurodga xabar qildilar. Shu payt ular turgan tepalik qarshisida ham bosmachilar koʻrindi – ular tepalik tomon shoshilmay kelardilar.

Roʻzimurod oʻz odamlariga miltiqlarni otishga shaylab turishni buyurdi. Bosmachilar tepaga yetib kelib, qishloq tomon oʻtmoqchi boʻlganlarida, oʻt ochish haqida farmoyish berdi. Tepa etagidagi xandaqlarda yotgan miltiqlilar bir yoʻla oʻq uzdilar. Bir bosmachi otdan uchib tushdi, oti esa qishloq tomonga qochdi. Qolgan bosmachilar otlarini orqaga burib, kelgan yoʻllaridan qochdilar.

Tepaning old tomonida turgan mudofaachi yigitlar Roʻzimurod buyrugʻi bilan qochib ketayotgan bosmachilarni oʻqqa tutdilar. Ammo oʻqlari zoe ketdi. Bosmachilar oʻq yetib bormaydigan darajada uzoqlashgach, Roʻzimurod oʻq uzishni toʻxtatdi...

Tong yorisha boshlagach, bir toʻda bosmachi tepaga yaqinlashib kelib, otishmani boshlab yubordilar. Mudofaachilar otryadi ham ularga javoban oʻq otaverdilar, lekin har ikki

tomonning o'qi ham bekorga ketmoqda edi. Mudofaachilarning o'qi tobora kamaya boshladi, otishmani davom ettirsalar, o'qsiz qolishlari turgan gap edi. Binobarin, Ro'zimurod o'z askarlariga o'q uzmay, bosmachilarning okoplarga yaqinlashuvini kutib turish haqida buyruq berdi va xavf haqida xabar yetkazish, «qurolli kuch» talab etish, hech bo'lmaganda, yarog' berishni so'rab rayon markaziga – revkomga odam yubordi. Bu safar u revkomga o'zining eng yaqin va hushyor kishisi Ergash bedandosh yubordi.

Kun chiqquncha bosmachilar tepaga bir necha marta hujum qilgan bo'lsalar ham hech natijaga erisha olmadilar. Har safar tepaga yaqinlashganlarida maydonda ikki-uch o'lik qoldirib, orqaga chekinishga majbur bo'ldilar.

Lekin bora-bora Ro'zimurod otryadining o'qlari ozaydi, buni bosmachilar ham sezib qolishdi. Ular mudofaachilarni yanada ko'proq o'q ketkizishga majbur qilish maqsadida ketma-ket hujumga o'tdilar, qishloqning boshqa tomonlariga ham hujum qilib, u yerdagi soqchilarni ham o'q sarf qilishga majbur etdilar. Ko'p o'tmay u tomonlardan ham o'q talab qilib choparlar kela boshladi. Ro'zimurod rayondan o'q keltirishi bilan darhol yuborishga va'da berib, ularni qaytarib yuborar edi. Bir ozdan so'ng atrofdagi o'qi tugab qolgan soqchilardan bir guruhi birin-ketin tepaga kelib, Ro'zimurodning yoniga to'plana boshladilar. Tepada jonli kuch ko'paydi, lekin bu kuchdan foydalannish uchun kerak bo'lgan epg muhim narsa – qurol yo'q edi. Qurolsiz soqchilar ketidan kelgan bosmachilar tepani o'rab oldilar.

Bosmachilarning hujumi shiddatli tus oldi. Okopdagilarning bu hujumga qarshi o'q otishlari tobora susayib bordi. Ularning ko'pchiligi dushmani miltiqning qo'ndog'i va bel bilan urib qaytarib turardi. Ro'zimurod hozir rayondan qurol kelishini va'da qilib, ularni tish-tirnoqlari bilan bo'lsa ham jang qilib, chidash va bardosh berishga chaqirardi.

Ro‘zimurodning rayondan qurol kelishiga tikkan umidi va yigitlariga bergan va‘dalari ham puchga chiqdi. Ergash bedandon qamishzor ichidan kelib zaxkashga tushdi va suv ichidan engashib kelib o‘zini tepalikka oldi-da, bir mudhish xabarni yetkazdi.

Ergash bedandonning aytishicha, u rayonga borib, revkom raisining oldiga kiribdi va qishloq boshiga tushgan haqiqiy xavfni aytib, undan qurolli kuch, hech bo‘lmasa, miltiq va o‘q so‘rabdi. Revkomning raisi Ergashga:

– Bosmachilarning rayon markaziga hujum qilishga tayyorgarlik ko‘rayotganligi haqida xabar bor. Shuning uchun men qurolli kuch u yoqda tursin, qishloqqa biron dona o‘q ham berolmayman, – debdi.

Ergash o‘z talabini yana takrorlab, qat’iy turib olganda, raisning xizmatkori kirib kelib:

– Markazdan Buxoro Xalq Sho‘rosining muxtor vakili keldi. Siz bilan maxfiy suhbatlashmoqchi, – debdi.

Rais Ergash bedandonga qarab:

– Sen tashqariga chiqib tur, – dedi-da, xizmatkoriga, – muxtor vakilning odamiga ayt, oldimga kirsin, – debdi.

Muxtor vakilning odami revkom bilan samimiy suhbatlashgach, hovliga chiqibdi. Rais o‘z odamlariga:

– Hammangiz otlaning, bir joyga boramiz. Bu yerga yerlik kishilardan qurolsiz ikki qorovul qo‘yiladi, – deb, o‘zi otga minibdi.

– Men nima qilay, menga nima javob berasiz? – deb so‘rabdi Ergash bedandon raisga yaqinlashib.

– Sen shu yerda tur, biz biron soatdan so‘ng qaytib kelamiz, kelib sening ishing to‘grisida gaplashamiz, – debdi, oti ni yeldirib, revkom idorasi hovlisidan chiqib ketibdi, odamlar ham otlariga minib, uning ketidan ergashibdilar...

Rais chiqib ketgandan so'ng oradan yarim soatcha vaqt o'tgach, bir guruh otliq, piyoda, qurolli va bequrol bosmachilar revkom idorasiga bostirib kiribdilar. Ularning qo'rboshisi supaga qalin to'shak-ko'rpacha soldirib, uning ustiga chiqib, amirning hokimlaridek chordana qurib o'tiribdi. Qo'rboshining yigitlari amir hokimlarining xizmatkorlari singari, supa oldida – uning ro'parasida ta'zim-tavoze qilib turibdilar.

– Qani, hamma narsani bir joyga to'planglar-chi, – deya farmoyish beribdi qo'rboshi o'z odamlariga.

Bosmachilar xuddi o'zlari berkitib qo'ygan narsalarni topib chiqmoqchi bo'lgandek, to'ppa-to'g'ri borib bir chekkada yotgan beda va xashaklarni bir tomonga irg'itib, ostidan sandiq, qutilar va toylab bog'lab qo'yilgan yuklarni ola boshlabdilar, ularni bir-bir ko'tarib, qo'rboshining oldiga eltib qo'yibdilar. Qo'rboshi kissasidan bir dasta kalit chiqarib, yigitlaridan biriga beribdi-da, omborlarni ochishni buyuribdi.

– Har bir qulfga o'z kalitini topib solinglar, qulflarni buzib qo'ymanglar, – deb ta'kidlabdi qo'rboshi.

Qo'rboshi odamlariga sandiq, quti va o'rab bog'langan yuklarni ochishni buyuribdi. U qo'lidagi ro'yxatga qarab, sandiq va qutilar ichidan olinayotgan miltiq, to'pponcha, o'q va qilichlarni tekshirib turibdi. Ergash bedandon bu holga hayron bo'lib qarab turaveribdi. Ergashga nogoh ko'zi tushgan qo'rboshi: – Sen kimsan, nima qilib turibsan bu yerda? – deb so'rabdi. – Men revkomning odamlaridanman «Bek kelgunlaricha sen shu yerda posbonlik qilib tur», – deb meni qoldirib ketuvdilar, – deb soxta javob beribdi Ergash.

– Juda soz, – debdi qo'rboshi. – Bek keldilar, endi revkom raisi odamining bu yerda qorovullik qilib turishining hojati yo'q. Qo'lingdagi miltiqni o'qlari bilan bizga topshir-da, o'zing raising orqasidan «sihat-salomat» ketaver!

Ergash miltiq va patronlarni tashlab, otini qantarilgan joyidan yecha boshlabdi.

– Ot bizga kerak. Sen piyoda borsang ham raisingni topib ola olasan, – debdi qoʻrboshi Ergashga qarab.

* * *

Ergash bedandon revkomdan chiqib, piyoda yoʻlga tushibdi. U tezroq qishloqqa yetib borib, bu dahshatli xabarni Roʻzimurodga yetkazishni istabdi. Ammo ot yoʻqligi bu ishtagini amalga oshirishga toʻsqinlik qilibdi. Shuning uchun ham quvvati boricha harakat qilib, chopogʻon otdek yuguribdi. Ammo yarim yoʻlga bormay turib, yoʻlda charchabdi, bir chashma labiga tushib suv ichibdi-da, dam olmoqchi boʻlib oʻtiribdi. Chashma bir jarlik ichida boʻlib, uning tepasidan katta yoʻl oʻtar, yoʻlning narigi beti esa chakalakzor ekan.

Ergash chashma boʻyida oyoqlarini uqalab oʻtirganda qardandir bir xotin kishi paydo boʻlibdn. U yoshgina, qoshkoʻzlari qop-qora, sochlari uzun, juda nozanin va goʻzal ekan. Uning qoʻlidagi koʻzasi suvga kelganidan dalolat berarkan. Ayol chashma labiga yaqinlashgach, Ergashga koʻzi tushib, toʻxtab qolibdi. U boshidagi roʻmolini tushirib, bir uchini tishlagan holda yuzini berkitibdi-da, roʻmol ostidan koʻz qiri bilan Ergashga hadiksirab tez-tez qaray beribdi.

Ayolning qoʻrqib-uyalayotganini sezgan Ergash undan koʻzini uzib, oʻzini hech narsani koʻrmaganlikka solib, oyogʻini uqalay boshlabdi.

Ayol Ergashniig odob va nazokatidan dadillanib chashma oldiga kelibdi, koʻzasini yerga qoʻyib, Ergashdan:

– Bu atrofda bosmachi koʻrmadingizmi, amaki? – deb soʻrabdi.

– Yaqin oʻrtada koʻrmadim, ammo rayon markazini bosib olishdi, – deb javob beribdi Ergash.

– Xudo ko‘tarsin ularni, uylari kuysin, xalqni xonavayron qildilar, – debdi ayol va buloq bo‘yiga tushib, ko‘zasini to‘ldirib, hovuchida suv olib ichibdi.

– Sizlarning qishlog‘ingizda bosmachilar nima qildilar? – deb so‘rabdi Ergash ayoldan.

Ayol suvga to‘ldirilgan ko‘zasini bir chekkaga qo‘yibdi-da, o‘nglanib olib, javob beribdi:

– Mol-ashyolarni, qoramollarni tortib olib ketdilar, xotin-qizlarning nomusini bulg‘adilar. Qarshilik ko‘rsatgani uchun ikki kishini o‘ldirdilar, uch erkakning qo‘l-oyog‘ini bog‘lab, qo‘rboshiga olib ketdilar. Qolgan erkaklar toqqa qochib ketishdi.

U so‘zini shartta kesib, ko‘zasini yelkasiga qo‘yibdi-da:

– Kechadan beri bolalarim tashna, tomoqlari qaqrab ketganiga rahmim kelib, qo‘rqa-pisa suvga chiqdim, – debdi.

– Biron erkak kishingiz yo‘qmidi.. shunday qo‘rqinchli kunda o‘zingiz suvga chiqibsiz? – so‘rabdi Ergash.

– Erim bor. U bolalarim bilan meni bir g‘orga yashirib, o‘zi toqqa qochdi. Bir echki bilan bir qo‘yimiz bor edi, uii ham bosmachilardan olib qochib ketdi, – debdi-da, jarlik chetiga – katta yo‘lga chiqibdi.

Xuddi shu payt uzoqda bir otliq ko‘rinibdi. O‘rta yoshlardagi bu odamning qorni nihoyatda katta ekan, uning belida qilichi, orqasida miltig‘i bor ekan. Peshonasini ro‘molcha bilan tang‘ib olgani bosmachiligidan dalolat berib turarkan.

Ayol otliqni ko‘ribdi-yu, qadamini tezlatibdi. Ammo bosmachi otiga bir-ikki qamchi bosib, unga yetibdi-da:

– To‘xta! – deb buyruq beribdi.

Ayol qo‘lidagi ko‘zani yerga uloqtirib, chakalakzorga qochibdi. Bosmachi otdan tushib, otini bir shoxga bog‘labdi-da, ayolning orqasidan quvib ketibdi.

Ayol butalar va chakalaklar orasida shamoldek uchib yuzi, boshi, oyoq-qo‘llarining tilinishi va kiyimlarining yir-

tilishiga qaramay, yuguribdi. Semiz bosmachi esa, tez yugurolmas, tikanli daraxtlar orasidan tez o'tolmas ekan.

Bosmachi qarasaki, unga yetolmaydigan, xotin bilan o'zi orasidagi masofa borgan sari uzoqlashmoqda. U miltig'ini qo'lga olib:

– To'xta! Yo'qsa, otaman! – deb qichqiribdn.

Buni eshitgan ayol qadamini yanada tezlatibdi. Bosmachi havoga qarab o'q uzibdi. Miltiq ovozi eshitgan ayol o'q yedim, deb o'ylab faryod chekibdi-da, yerga yuz tuban yiqilibdi. Bosmachi o'ljasini qo'lga kiritish umidida bamaylixotirlik bilan unga qarab boraveribdi.

Buloq labidan yo'l chetiga chiqib, buni tomosha qilayotgan Ergashning g'azabi qaynab ketibdi. Ammo bosmachi bilan olishib, ayolni xalos etish uchun qo'lida hech qanaqa quroli yo'q ekan, Lekin hademay ayol chiyabo'ri changaliga tushgan tovuqdek bosmachi changaliga tushajagini sezgan Ergash g'azablangan sher singari tishini g'ijirlatibdi. Lekin unda bo'rini – bosmachini g'ajib tashlovchi changal yo'q ekan.

Shu payt Ergashning esiga bir fikr kelibdi: bu fikrning paydo bo'lishi bilan uning g'azab alangasida yonayotgan ko'zlari charaqlab ketib, labida tabassum paydo bo'libdi. U o'z-o'ziga:

– Bir o'q bilan ikki qarg'ani urish qanday yaxshi, – deb otomon yuguribdi-da, uni daraxt shoxidan yechib olib, ustiga minib baqiribdi:– Hoy, bo'ri, bilib qo'y, otingdan ajralding, deb ot biqiniga niqtab yo'lga tushibdi.

Bosmachi Ergashning ovozi eshitib, orqasiga qayrilib qarasa, haqiqatan ham otini birov olib qochib ketyapti. U ayolni o'z holiga qo'pib, yo'lga qarab yuguribdi. Ammo u to'ozining semiz gavdasini tikanli daraxtlar orasidan olib chiqquncha Ergash ancha uzoqlashib ketibdi.

– To‘xta! Yo‘qsa, otib tashlayman! – deya baqiribdi bosmachi. Bunga javoban Ergash ot biqiniga yana bir-ikki niqtatibdi, ot avvalgidan ham ildamroq chopib ketibdi. Bosmachi birin-ketin o‘q uzsa, ot miltiq tovushidan cho‘chib, tobora tezroq yuguribdi...

O‘q yeta olmaydigan masofani bosib o‘tgach, Ergash bir balandlikka chiqib, otni to‘xtatib, orqasiga qarabdi. Bosmachi otini saqlab qolish umidida o‘q otaveribdi. Ayol esa chakalakzorlardan chiqib, tog‘ etagiga qarab yuguribdi. Ergash ayolning tog‘ etagiga yetib, bir tuynukka kirib ketganini ko‘rgandan so‘ng otni o‘z qishlog‘i tomon burib choptirib ketibdi...

U qishloqni har tomondan bosmachilar o‘rab olgan holda ko‘ribdi. Qishloqning faqat qamishzor ko‘l tomoni ochiq ekan, u otni qo‘yib yuborib, qamish ichiga kirib ketibdi, u yerdan zaxkash ichiga tushib, tepachaga – Ro‘zimurodning oldiga yetib boribdi.

V

Ergash qurol so‘rab revkom raisi bilan uchrashganini, revkom raisining javobini va rayon markazida hamda yo‘lda ro‘y bergan voqealar haqidagi hiqoyasini endi tamomlagan ediki, bir kishi zaxkashdan chiqib, Ro‘zimurodning oldiga yugurib keldi. U keltirgan xabar Ergash hikoya qilgan xabardan ham mash‘umroq, kishini g‘azablantiradigan edi.

Uning aytishicha, Buxoro Xalq Sho‘rolar hukumatining muxtor vakili Sharqiy Buxoroda Sovet hukumatiga qarshi isyon ko‘taribdi. U o‘z qo‘lidagi hamma qurollar, tilla tanga va hukumatning boshqa narsalarini bosmachilarga topshiribdi, o‘ziga sodiq odamlar bilan birga Anvarposhsho va Ibrohimbekka qo‘shilib ketibdi.

Bu xabardan g‘azablangan Ro‘zimurod o‘ziga-o‘zi:

– Muxtor vakil kim? – deb savol berdi.

Bir oz jim turgach, o'z savoliga o'zi javob bermoqchi bo'lib: «Muxtor vakil hiyla-nayrang bilan Buxoro Xalq Sho'rolar hukumatini qo'lga kiritgan, Buxoro jadidlarining boshlig'i bo'lgan bir millionerning tog'avachchasi. Demak, bu sotqin Sharqiy Buxoroga bosmachilikni tashkil etish va kuchaytirish uchun muxtor vakil bo'lib kelgan ekan», – dedi.

Ro'zimurod bir oz sukut qilgandan so'ng, gapni revkom raisiga borib, o'z-o'ziga: «Rayonimiz revkomining raisi ham Buxoro boyvachchalaridan biri edi, o'sha xoinlarning yuvindixo'r iti va farmonbardorlaridan», – dedi.

Ro'zimurrd xoinlarning qisqacha, lekin to'la tarjimai holini bayon etgach, mushtlarini tugib, g'azabdan kamondek tortilgan qo'llarini ikki tomonga yozib, o'z-o'zicha gaplashishni davom ettirdi: «Bu xoinlardan bundan boshqa narsani kutish mumkin emas edi. Agar bo'rining qo'y bilan, chiya-bo'rining tovuq bilan, kalxatning kaptar bilan do'st bo'lishi mumkin bo'lganda edi, ularning Sovet hukumati bilan do'st bo'lishi mumkin edi. Afsuski, hayotda hali bunaqa do'stlik uchratilmagan».

Ro'zimurod gapini to'xtatib, xalqqa murojaat qildi:

– O'rtoqlar! Bizning oldimizdagi asosiy vazifa – bu xoinlarning yordamidan umidni uzib, Lenin partiyasiga, bolshheviklar partiyasiga, Sovet hukumatiga va ulug' rus xalqi proletarlariga suyanib turib xalq dushmanlariga, bosmachilar va ularning suyanchiqlariga qarshi jang qilishdan, qurol topolmasak, tish-tirnog'imiz bilan bo'lsa ham kurashishdan iborat. Agar biz shu yo'lda halok bo'lsak, ulug' rus xalqi proletarlarining yordami bilan farzandlarimiz, ishchi-dehqonlarimiz maqsadlariga yetadilar. O'rtoqlar! Tanangizda joningiz bor ekan, olg'a!

– Kurashamiz! So'nggi tomchi qonimiz qolguncha jang qilamiz. Qurol topmasak, tish-tirnoqlarimiz bilan ham urushamiz! – deb javob berdi ko'pchilik bir ovozdan.

Ro'zimurod xalq yordamiga suyanib avvaldagidan ham g'ayrat va shijoat bilan mudofaa ishlariga kirishdi...

* * *

Qurolning yetishmasligi, o'q-dorining kamligi natijasida mudofaachilarning ahvoli og'irlashdi, bosmachilar okoplarini har tomondan o'rab olib, yomg'irdek o'q yog'dirar edilar. Ammo okopdagilar yuz o'qqa bir o'q bilan javob berar, u ham bo'lsa, bosmachilardan birontasi okopga tushmoqchi bo'lganda otardilar. Shu paytda bosmachilarga yangi kuchlar kelib qo'shildi, qurollar yetib keldi. Natijada Ro'zimurodning otryadi nochor ahvolda qoldi.

Mudofaachilarning o'qi tugadi. Endi Ro'zimurod aytganidek, tish-tirnoq bilan jang qilishga to'g'ri keldi: ular okoplarga bostirib kirgan bosmachilarni bel va miltiq qo'ndog'i bilan kaltaklar, miltiqsizlar esa qo'lga tushgan bosmachini bo'g'ib, duch kelgan yerini tishlar. mushtlashardilar. Bora-bora Ro'zimurodning odamlari kamayib, sanoqli kishilargina qoldi. U yanada g'ayrat va shijoat bilan jang qilardi. Qo'shni okopda tanho qolgan Ergash bedandon xandaq ichidan emaklab, Ro'zimurodning oldiga keldi. Uning kelishi bir tomondan, Ro'zimurodning ruhini ko'tarib yuborgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning kuchiga yana ikki jangovar qo'l qo'shdi. Ro'zimurod bilan Ergash bedandon sherdek jang qilardilar, okopga yaqinlashgan bosmachi omon qolmasdi.

Shu payt bosmachilar boshlig'i okopga yaqinlashib kelib, o'z yigitlariga:

– Qolganlarni tirik qo'lga tushiringlar! Uloq chopamiz, – deb farmoyish berdi.

Bu buyruqni eshitgan bosmachilar o'q otishni to'xtatib, to'rt tomondan Ro'zimurod bilan Ergash bedandon ustiga yopirildilar, lekin Ro'zimurod: «Bolshevik dushman qo'lga tirik tushmaydi!» – deb Ergash bilan orqama-orqa tu-

rib, okopga kirgan bosmachilarni birma-bir kalla qilib urar, o'ldirar, o'limtikni oldidan uloqtirib tashlagan sherdek ularning o'ligini okopdan tashqariga irg'itar edi.

Bosmachilar ko'rdiki, ularni tirik qo'lga tushirish mumkin emas. Shuning uchun har tomondan o'q yog'dira boshladilar. Avval Ergash ko'krigidan o'q yeb yiqildi. Yolg'iz qolgan Ro'zimurod bir necha joyidan o'q yeb, kuchsizlanib qolgan bo'lsa-da, okopning devoriga suyanib tik turar, badanidan tirqirab chiqqan qon kiyimini lola rang qilgandi. Bosshiga urilgan qilich zarbidan u ham yerga yiqildi, bosmachilar uning yerda yotgan murdasini hamon o'qqa tutar edilar. Ro'zimurodning badani g'alvir kabi ilma-teshik bo'lgandan so'nggina bosmachilar uni o'z holiga qo'yib, chalajon qolgan hamma mudofaachilarning badanini ham to'rdek teshib tashladilar.

* * *

Vaqtincha g'alaba qozongan bosmachilar bu zafardan mast-alast bo'ldilar: himoyasiz qolgan qishloqqa yopirilib hujum qildilar. Qishloqdagi jonli va jonsiz mollarni taladilar, jantda qatnasha olmay, uyda qolgan qariyalarni, xotin-xalajlarni, bemorlar va bolalarni qishloqdan haydab chiqib, bir maydonga to'plab, ularga qorovul qo'yidilar-da, kimsasiz, mol-mulksiz qolgan qishloqqa o't qo'yidilar. Bu shunday bir vahshiyona zulm bo'ldiki, yong'in alangasi mazlum xalq oh-fig'onining dudi bilan qo'shilib falakka ko'tarildi.

Nihoyat, tinchigan bosmachilar asirlarga yopishdilar: chiroyli xotin-qizlarni bir chekkaga ajratib qo'yidilar, qariyalar, kampirlar va o'zlariga kerak bo'lmagan ayollarni jarlikka tushirib, otib tashladilar. Ba'zilarni tirik echkidek birma-bir uloq chopish uchun tepa oldiga haydab bordilar.

Bosmachilar uloq chopishni endi boshlab, bir odamni tort-tort qilayotganda uzoqdan bir to'da otliq ko'rindi. Bosmachi-

lar otliqlarni o'z odamlari fahmlab, ularga o'z g'alabalarini namoyish qilish maqsadida «uloq chopishni» zavq-shavq bilan davom ettiraverdilar.

Ular nimjon asir tepasiga otda to'planib, biri oyog'idan, boshqasi qo'lidan, uchinchisi bo'ynidan, to'rtinchisi belidan ushlab, har biri o'ziga tortar, chetroqda qolganlar esa otlariga qamchi bosib, asir ustiga yetib borib, biron joyidan ushlab tortishga harakat qilardi: har biri ham asir jasadini o'rtadan olib chiqib, yangi kelayotgan bosmachilar oldiga poyandoz qilishga intilardi.

Lekin asir boshiga olaqarg'adek to'plangan bosmachilarni pulemyotning «ta-ta-ta»lagan ovozi tarqatib yubordi. Pulemyotdan yomg'irdek yog'ilayotgan o'q bosmachilarni tutdek to'kar edi.

Bosmachilar kelayotgan otliqlar o'z odamlari emasligini bildilar, lekin vaqt o'tgan edi: ular to'rt tomondan o'rab olingan, har tomondan pulemyot va miltiq o'qi yog'ib turardi.

Tirik qolgan bosmachilar otlaridan tushib, Ro'zimurodning buyrug'i bilan tepalikda qazdirilgan okoplarga bekindilar. Ular qo'llaridagi miltiqlarni olib, dushmanlarining okopga yaqinlashuvini kutib turdilar.

Lekin ular okoplarga yaqinlashmay, bosmachilarga qarab granatalar otdilar: yer-ko'kka ko'tarilgan chang-to'zon ichida bosmachilarning parchalangan gavdalari ko'rindi.

Bir soatlik jang natijasida ko'p bosmachilar o'z qilmishlariga yarasha jazolarini tortdilar. Qochib qutulib qolish ulardan juda kamdan-kam kishiga nasib bo'ldi.

Bu otryad chegarachilar komsomol tashkiloti a'zolaridan iborat otryad edi. Ular qishloqning bosmachilar hujumiga giriftor bo'lganini eshitgach, chegarachilar rahbari va komsomol tashkilotining ruxsati bilan ko'ngilli ravishda Semyon Semyonovich degan bir komsomol rahbarligida qishloq aholisiga yordam berish uchun otlangan ekanlar.

Ko'ngilli komsomollar bosmachilarni tor-mor qilgandan so'ng, yaradorlar va bemorlarni chegarachilar kasalxonasiga yubordilar, sog'-salomat qolgan xotin-qizlar uchun chegara yaqinida artel tashkil qilib, ularni shu yerga joylashtirdilar; qariyalar va oyoqdan qolganlar uchun esa yotoqxona qurib, ularni ovqat va kiyim bilan ta'minladilar. Yosh bolalar uchun chegarachi komsomollar otaligida yetimxona tishkil etildi. Bolalar shu yerda tarbiyalana boshladilar.

Ro'zimurodning o'g'li – Qurbon (hikoyamizning qahramoni yetim Murod o'g'li uni «Qurbon aka» deb atar edi) ham o'sha kuni komsomolning yordami tufayli bosmachilardan xalos bo'lib, boshqa bolalar qatorida yetimxonaga keltirilgan edi. yetim Murod ham ana shu yetimxonaga joylashtirildi.

VI

Bu bolalar uyi internatsional yetimxona edi: unda tojik, turkman, o'zbek, qozoq kabi mahalliy millatlarning bolalari, shuningdek, rus, ukrain, polyak, latish kabi yevropalik bolalar ham tarbiyalanardilar. Lekin tarbiyalanuvchilarning ko'pchiligi mahalliy millat farzandlari bo'lib, aksariyatini ota-onasini bosmachilar o'ldirgan bolalar tashkil qilar edi.

Mahalliy millat bolalaridan Norbibish ismli qizcha yetim bilan juda do'st bo'lib qoldi. U yetim bilan tengdosh bo'lsa ham, bo'yi unikidan pastroq, qomati nozikroq edi. Uning kalta qilib qirqilgan qo'ng'iroq sochi, shirmonday yuma-loq yuzlari, charosday charaqlagan qop-qora ko'zlari har qanday odamning ham diqqatini o'ziga jalb etardi. Burni va peshonasidagi ikki-uch dog' qizning husn-latofatiga zarracha ta'sir etmas, balki yaltirab turgan bir parcha oltinga o'yib qo'yilgan nokdek uni yanada go'zalroq, yanada husndorroq qilib ko'rsatardi.

Norbibish chehrasining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shu ediki, uning bo'ynida kul rang tovlanib tur-

gan chiziqcha bor edi. Bu dog' – chiziq uning oq bo'ynida, qo'ng'iroq sochlari ostida bo'lganligi uchun har kimning narigiga tushavermas, birovning ko'zi tushganda ham husnida bir injudek tuyulardi. Zero, bu chiziqcha qizning oppoq bo'ynida xuddi kumush taxtachaga yozilgan savod jadvalini eslatardi. Bu qizchani yetimxonada kattadan-kichikkacha, tarbiyachidan tortib oddiy xodimlargacha hamma suyar, hurmat qilar, o'yin-kulgi vaqtida ham, ovqatlanish paytida ham hamma uni e'zoz-ehtirom qilardi.

Hammaning qizni bu qadar yaxshi ko'rishiga sabab uning husn-latofati bo'lmay, bu mehr-muhabbat uning sarguzashti tufayli edi. Norbibishning sarguzashti shu darajada fojialiki, eshitgan odam o'zini yig'idan to'xtatolmaydi. Qizchani kamgapligi, ma'yus va hazin yurishining boisi ham ana shu achchiq sarguzashtdan bo'lsa kerak. yetimxonadagilar bu sarguzashtni uning tutingan onasi rus xotindan eshitgan edilar. Qyeyinchalik u og'izdan og'izga ko'chib, hammaga ma'lum bo'lib ketgandi.

Norbibish hammadan ko'ra yetim bilan inoq edi. Ular yashaydigan xonalar bo'lak-bo'lak bo'lsa ham, qizcha ko'pincha yetim bilan o'ynardi, ovqatlanishda ham uning yonida o'tirar, ekskursiyalarda ham yetim bilan yonma-yon yurardi. U yetimxonaga yetimdan bir necha yil burun kelganligi uchun xat-savodi chiqib qolgan edi.

Shuning uchun ham u xat-savod chiqarishda yetimga yordam berardi. yetim darsdan chiqqach, Norbibishning yoniga yugurib borar, tushunmay qolganlarini undan so'rab bilib olardi.

Yetimning sarguzashti Norbibishga juda ta'sir etgan, uni yetimning o'z tilidan birma-bir eshitib, bilib olgan edi. yetim onasidan qanday qilib judo bo'lgani, onasini o'z farzandini iaqadar sevishini hikoya qilib, oh tortganda, Norbibish:

– Afsuski, mening onam yo‘q, bo‘lsa ham, kimligini bilmayman, – dedi.

– Otang bormi? – deb so‘radi undan yetim.

– Otam ham yo‘q, balki bordir, lekin kimligini bilmayman, – dedi Norbibish.

Norbibishdan eshitgan bu bir-ikki kalima yetimning qalbini ezib tashladi, uning ahvoliga chin ko‘ngildan kuyunib, yig‘lab yuborishiga sal qoldi. Ammo yetimxonadagi shodliklari va baxtiyorliklari uni yig‘idan to‘xtatdi. Bu baxtiyorlik va shodliklar yetim uchun shunday bir nur ediki, har qanday g‘am-kulfat zulmatini ko‘z o‘ngidan yo‘qotardi. Lekin yetim Norbibishning sarguzashtiga qiziqib asta-sekin so‘rab, qizchani kechmish-kechirmishlarining bir qismini bilib oldi. yetimning sarguzashtidan qattiq ta’sirlangan Norbibish ham o‘z boshidan o‘tganlarni birinchi marta unga so‘zlab berdi. Biz Norbibishni yetimga aytib bergan o‘zi haqidagi hikoyasini quyida bayon etamiz.

* * *

Buxoro – Termiz temir yo‘li Termiz stansiyasining yaqinida Ivan Ivanovich Samarskiy degan bir rus qorovullik qilar edi. Uning xotinn, sakkiz-o‘n yashar ikki o‘g‘li va olti yashar qizchasi bor edi. Ivanning tirikchiligi ancha yaxshi edi. Uning qorovulxona oldida bog‘chasi ham bo‘lib, unga kartoshka, karam, bodring, pomidor kabi sabzavot ekinlari, makkajo‘xori va kungaboqar singari ekinlar ekar edi. Bundan tashqari, uning sersut sigiri bo‘lib, sut-yog‘i yetib-ortib yotardi. Ammo Samarskiyning tinch tirikchiligi uzoqqa cho‘zilmadi, amirning 1918 yilgi xuruji uning oilasini barbod qildi. Chunki, biz yuqorida qayd qilib o‘tganimizdek, 1918 yilgi Kolesov voqeasi munosabati bilan Buxoro amiri o‘z territoriyasidagi temir yo‘llarni batamom buzib tashladi, qo‘lga tushgan ishchilarni esa, xotin-bolalari bilan birga o‘ldirdi.

Ana shu fojiali kunlardan birida amirning odamlari, Ivan Samarskiyning qorovulxonasiga bostirib kirib, qorovulxonaga o't qo'ydilar, Ivanning qo'l-oyogini bog'lab, katta qo'l bilan birga Termizdan uzoqroqdagi bir stansiyaga olib ketdilar, Amirning odamlari boshqa qorovulxonalardan ushlab olingan odamlarni ham shu yerga olib kelib, bir joyga to'plagan edilar. Ular orasida ruslar, tojiklar, o'zbeklar, tatarlar, qozoqlar va turkmanlar ham bor edi. Har bir ishchining xotin-bolalari ham birga olib kelingan edi.

Amirning odamlari temir yo'llarni buzib, relslarni oqitib, bukib tashlab, qorovulxonalar va shpallarni yoqib yuborganidan keyin, asirlarni o'ldirishga kirishdilar. Ular qo'l-oyog'ini bog'langan ishchilar va ularning xotin-bolalarini bir joyga to'plab, qilichlar bilan chopdilar, bo'g'izladilar, kaltaklab o'ldirdilar.

Aia shu bemahal ajaldan qutulib qolganlarning biri Ivanning xotini Mariya edi. U mana shu vahshiyoia fojia yuborgan kuni erta tongda sigirini qorovulxonadan uzoqroqqa o'tlatgani olib ketgandi. Amir odamlarining temir yo'l buzayotganlari haqidagi xabarni u peshinga yaqin bir cho'pon boladan eshitib, sigirni dalada qoldirib, qorovulxonaga yugurdi. U yerda na qorovulxona, na uy qolgandi, hammasi yondirilgan, hamon tutab yotardi.

Mariya bu dahshatli voqeadan shu darajada qo'rqdi-ki, telba bo'lishiga sal qoldi. Lekin, o'zini tutib olib, eri va bolalarini qidirishga tushdi, ulardan darak topmadi. Mariya kul va cho'g'larni titib ko'rdi, lekin kuydirilgan odamning suyaklari ham ko'rinmadi.

Shundan so'ng u tutuni burqsib falakka ko'tarilayotgan qo'shni qorovulxonaga qarab yugurdi. U bu yerda yana-da dahshatliroq manzaraga duch keldi: ishchilar, ishchi xotin-qizlar va bolalarning o'liklari to'planib yotardi.

Mariya hushidan ketib yiqildi. Hushiga kelgach, murdalarning ichiga kirib, ular orasidan o'z eri va bolalarini axtara

shahid. Shu payt u dahshatli manzaraga duch keldi: qilich bola bundalab tashlangan eri va bolalarining jasadini ko'rdi. U yana hushidan ketib yiqildi. Bir ozdan so'ng hushiga kelib, eri va bolalarining jasadini murdalar ichidan sudrab chiqib, jasadni ko'mish chorasini ko'rdi. Bolalar jasadi orasidan bir qizcha ham chiqib qoldi. Taxminan uch yashar bo'lgan bu qizchani bo'yniga qilich urilgan, tirqirab qon oqib turar edi, lekin bola hali tirik edi, hushini yo'qotgan bo'lsa-da, guli-poli qimirlab qo'yardi.

Mariya bolalarining jasadi orasidan topilgan bu qizchani yodgorlik sifatida saqlab qolishni eri va bolalarini ko'mishdan ham zarurroq deb bildi.

«Ular o'ldilar, ularning o'ligini hozir ko'msam ham, bu kundan so'ng dafn etsam ham baribir. Lekin tez chora ko'masam bu bola ham o'lib ketadi», – dedi Mariya o'z-o'ziga.

U ana shunday mulohazalar bilan qizchani murdalar orasidan chekkaga olib chiqib, boshidagi ro'moli bilan uning varasini bog'ladi. Qizni saqlab qolish uchun uni biron vrach, hech bo'lmasa feldsherga ko'rsatmoq kerak edi. Vrach va feldsherni faqat Termizdangina topish mumkin edi. Lekin u yerda ahvol qanday ekanligi Mariya uchun qorong'i. «U yerda ham shu fojia ro'y berib, hamma o'ldirilgandir. Vrach va feldsherlar tirik qolganmikan?» – der edi Mariya o'z-o'ziga.

Mariya hayron bo'lib qoldi: u yerdagi haqiqiy ahvolni bilmay turib borish, o'zim uchun ham, tasodifan tirik qolgan qizcha uchun ham xavfli, ammo bolaning jarohatini durustroq davolatish uchun uni qaerga olib borsam ekan? Shu payt uning xotiriga bir kishi keldi. U qizchani ko'tarib o'sha kishining qishlog'i tomon yugurdi.

Bu qishloq temir yo'l yaqinida edi. U yerda bir xotii bo'lib, uning eri ham Mariyaning eri singari qorovullik qilardi. Shu sababdan Mariya unikida ko'p bo'lgan, uning eri

ikki yil burun o'lgan bo'lsa ham, u bilan bordi-keldisini uzmagandi.

U qizchani ko'tarib, yugura-yugura yetib bordi. Bu yerda xotin bir parcha kigizni kuydirib, kulini qizchaning yarasiga bosdi, ustidan latta bilan bog'lab qo'ydi. Undan so'ng atala pishirib, bolaning og'ziga qoshiq bilan quydi. Bola biron soatlardan keyin ko'zini ochib, tilga kirdi:

– Acha! – deb mahalliy tilda ovoz chiqardi u. Shundan ma'lum bo'ldiki, u mahalliy ishchilardan birining qizi ekan.

Atrofida onasini topa olmagan qizcha yig'lay boshladi. Mariya va uy egasi qancha harakat qilsalar ham, uni ovuta olmadilar. Lekin qizcha ko'p qon oqishi natijasida darmoni qurigani uchun bir oz yig'lab yana hushdan ketdi. Yig'ining zo'ridan bo'ynidagi latta ochilib ketib, yana qon oqa boshladi. Uy egasi ikkinchi marta kigiz kuydirib bosib, bog'ladi va bolani yotqizib qo'ydi. Bola jimgina uxlab qoldi.

* * *

Qizchani uxlatgach, uy egasi Mariyaning iltimosi bilan Termizdagi ahvolni bilmoq uchun qishloqqa chiqdi. Bir necha daqiqadan so'ng xushxabar olib keldi.

Bir dehqonning aytishicha, Termiz stansiyasi sog'salomat ekan. O'sha kuni dehqon Termizga tuxum sotgani borgan ekan, amirning odamlari Termiz stansiyasiga hujum qilibdilar. Lekin ishchilarshshg qurolli kuchiga bardosh berolmay, jang maydonida bir necha o'lik qoldirib qochibdilar.

Mariya bu xabarni ayoldan kun botish oldida eshitgani uchun o'sha mahalda yo'lga chiqishni lozim topmadi. U eri va bolalarining g'ami bilan yonib, kechani to'lg'anib o'tkazdi va tong yorishi bilan Termizga yo'l oldi.

Mariya Termizga yetib borganda ishchilar qurollangan holda amirning odamlari o'ldirib ketgan o'liklarni dafn etishga jo'nash oldida turgan edilar. Mariya ham dafn maro-

simida qatnashdi, boshqalar qatori uning eri va bolalari ham dafn etildi.

Mariya ishchilar yordamida Termizda uy topib, ishga joylashgach, qizni olib kelish uchun qishloqqa jo'nadi. Qizcha batamom sog'aymagan bo'lsa ham, tinch yotar, zo'r ishtaha bilan ovqat yer, asta-asta yurar va hatto o'yinqaroqlik ham qilar edi.

Qizcha tamoman sog'ayib, quvvatga kirguncha Mariya qishloqda qoldi. Bolaning yarasi bitib, lattasini yechib tashlagandan so'ng uni Termizga olib ketdi. U Termizga ketish oldidan uy egasidan qizga biron mahalliy nom qo'yishni so'radi.

– Mening bir qizim bor edi. Uning bir yuzida qizil dog'i bo'lgani uchun otasi unga Norbibish deb nom qo'ygandi. Ammo u otasidan oldin vafot etib ketdi. Men bu bolaga o'sha qizimning hurmati uchun Norbibish degan nom qo'yaman, – dedi u. Bu nom Mariyaga ham ma'qul bo'ldi.

Buxoro – Termiz temir yo'li ishga tushgunga qadar Mariya Norbibishni tarbiya qildi. Buxoro revolyusiyasidan – amir qochib ketgandan so'ng u erining qorovulxonasida posbonlik qildi. Norbibish sakkiz yoshga kirgan paytlarda kimsasizlik, eri va farzandlarining dog'i Mariyani adoyi tamom qildi. U Samara (hozirgi Kuybishev)dagi qarindoshlarining oldiga ko'chib ketmoqchi bo'ldi. Ammo serquyosh o'lkaga o'rgangan, mahalliy millatning qizchasi bo'lmish Norbibishni o'zi bilan birga olib ketishni lozim topmadi. Shuning uchun uni Amudaryo labidagi zastava komsomol tashkilotining otaligida ochilgan yetimxonaga topshirib, o'zi safarga jo'nadi.

Norbibishning bo'ynidagi qoramtir chiziqcha uch yashtarligida qilich bilan chopilgan joyiga bosilgan kigiz kuyasining dog'i edi.

VII

Yetim Murod yetimxonada to'rt yil tarbiyalandi, xat-savodini chiqardi, yetti yillik maktab hajmida bilim ham oldi. U kundalik darslardan so'ng mustaqil o'qib, ilm egallashga intilardi. Yoshi ulug'roq bo'lgani uchun ortiqcha dars uning salomatligiga ta'sir etmasdi.

Xat-savod chiqarish, dars tayyorlash va programmadan tashqari o'qish paytlarida unga Norbibish yordam bergan bo'lsa ham, ma'lumoti oshgan sari unga saboq beruvchilar ham ko'paydi: Qurbon unga yordam berar, qurbonlarni boshmachilar changalidan qutqargan komsomollar ko'ngilli otryadining boshlig'i ham undan o'z yordamini ayamasdi.

Semyon Semyonovich partiya a'zosi bo'lib, chegarachilar komsomol tashkilotiga rahbarlik qilar edi. U komsomol tashkiloti otalik qiladigan yetimxonadagi bolalarni internationalizm, bolshevizm ruhida tarbiyalab, komsomol safiga qabul qilardi.

Sarg'ishdan kelgan, ko'k ko'z, yuzlari sepkilli bu yigit juda muloyim, xushmuomala edi, lekin har doim jiddiy va qat'iy gapirardi. Semyon hamma vaqt umum ishi bilan band bo'lar, shaxsiy ishini ham umum ishiga moslab olib borardi. U har bir yosh yigitni kommunistlariing sodiq yordamchisi qilib yetishtirishga intilardi.

Tengqurlari ham, o'zidan kattalar ham, hatto bolalar ham Semyon Semyonovichni Senya deb atardilar. Mahalliy kishilar esa, bu so'zni «siyna» deb tushunib: «Haqiqatan ham bu yigit insonning siynasiga o'xshaydi, uning ko'ksida yurak bilan bir qatorda emchagi ham bor, u go'daklarni emizib, voyaga yetkazadi», – deyishardi.

Yetim Murod umumiy ma'lumot va siyosiy tarbiyani ko'pincha ana shu Senyadan oldi. U yetimni komsomolga kirishga munosib qilib tarbiyaladi.

Yetim Murod o'qish va siyosiy ongini oshirish bilan birga fizkultura va sport bilan ham shug'ullandi. Qayiq haydash va gupsarda suzishni allaqachonlar o'rganib olgan yetim mashqni yanada davom ettirib, suv osti va ustida baliq singari bemalol suzadigan bo'ldi. Endi u gupsar va qayiqdagina emas, Amudek tezoqar daryoda o'zi erkin suzar, suv oqimiga qarshi suzar, hatto mohir g'avvos-vodolazlar singari ana shu tezoqar suv ostiga sho'ng'ib, bir necha minut turar, har tomonga harakat qilar, umuman, suzishda kamolotga yetgandi.

Yetim Murod suzishdan tashqari, jang mashqi bilan ham mashg'ul bo'ldi. Miltiq otish, ot minish, qilichbozlik va granata otishni ham mashq qildi.

Jang mashqlarida yetimga Yuriy Senchikov nomli yigit yordam berardi. Yuriy Senchikov otliqlar polkining kichik komandiri bo'lib, shu polk komsomol tashki-lotining sekretari ham edi. Senchikovning tabiati jasoratlilik, qahramonlik, sotsialistik Vatanga muhabbat, kishilarga samimiyat va mehribonlik bilan to'lib-toshgandi. Vatan va sotsialistik tuzum mudofaasi uchun kurashgan har bir kishining hayotini saqlab qolish uchun o'z jonini fido qilishni Senchikov o'zining asosiy burchi deb hisoblardi. Senchikov katta yoshdagi bolalarni yig'ib, jang mashqi o'tkazar, o'zining eng yaxshi xislatlarini ularda ham shakllantirishga harakat qilardi.

Bosmachilarga qarshi janglarda Yuriy Senchikov hamnsha oldinda borar, tinch vaqtlarda esa doim chegarachilar orasida bo'lib, amaliy ishlarda ularga hamroh bo'lardi. Katta yoshdagi bolalar bilan jang mashqlarini ham ana shunday bo'sh vaqtlarda o'tkazardi. yetim harbiy ta'limni ham, amaliy jang mashg'ulotlarishsh ham ana shu kishidan o'rgandi.

Yetim o'n sakkiz yoshida komsomol safiga kirdi. U komsomolga qabul qilingan paytlarda ham chegarachilar komsomol tashkilotining sekretari Semyon Semyonovich – Senya edi. yetim Murodning komsomolga qabul qilish haqidagi arizasini ko'rishga bag'ishlangan chegarachilar komsomol tashkilotining byuro majlisida Senya undan:

– Qomsomolga kirishdan maqsading nima? – deb so'radi.
 – Qomsomolga kirishdan maqsadim sotsialistik qurilishda yanada aktivroq ishlab, kommunizm sari olg'a qadam tashlashdan, kommunizm yo'liga g'ov bo'layotgan dushmanlarga qarshi kurashib, Lenin farzandi bo'lmoq, kommunistlarning sodiq yordamchisi bo'lishga harakat qilishdan iborat. – dedi yetim Murod va yana davom etdi: – Men hammadan oldin chegarachi bo'lib yetishib, qo'linga qurol olib, chet el josuslariga qarshi, chet el dushmanlarimizning agenti bo'lgan bosmachilarga qarshi, ularning suyanchiqlariga qarshi kurashmoqni istayman.

Yetimning birinchi galda chegarachi bo'lib, josuslar va bosmachilarga qarshi kurashish istagini bildirishi tasodifiy emasdi: o'sha vaqtlarda mamlakat ichkarisida bosmachilarning kuchli shaykalari qolmagan bo'lsa ham, ularning mayda-chuyda guruhleri mavjud bo'lib, ular qochib ketgan bosmachilar, amir va chet el josuslari bilan aloqa bog'lab, Sovet hokimiyati ichida qo'poruvchilik harakatlarini olib borardilar. Bularga qarshi kurashishda chegarachilar alohida rol o'ynardi. Shuning uchun ham yetim Murod komsomol safiga kirib, chegarachi bo'ldi.

VIII

Chet elda qochib yurgan Ibrohimbek qo'rboshi boshchiligidagi bosmachilar 1931 yilning bahor oylarida che-

qaramizdan yashirinch a o'tib, Sovet Tojikistoni yerlarida qo'poruvchilik ishlarini boshladi. Ular qizil askarlarga va partizanlarga ro'yirost qarshi chiqa olmasalar-da, kambag'al dehqonlarni tutib olib o'ldirar, himoyasiz xotinqizlarga vahshiylarcha yopirilar, kolxoz omborlari va kooperativlarning do'konlarini talon-toroj qilib, qorovullarni o'ldirardilar.

Ammo hamma mehnatkashlar bek boshchiligidagi bosmachilarga qarshi qo'zg'algandilar: Tojikistonning turli rayonlarida, O'zbekistonning chegaraga yaqin rayonlarida mehnatkash dehqonlar va kolxozchilar qizil tayoqchi otryadlari tashkil etib, Ibrohimbekni axtarardilar, tirik qo'lga tushirishga intilar edilar. Lekin Ibrohimbek ilon va chayondek g'or va kovaklarda, xarsang toshlar orasida yashinar, tog'cho'qqilariga qochar edi.

Sovet mamlakati territoriyasida Ibrohimbekning hech qanday suyanchig'i qolmagandi, ammo uning chet eldagi xo'jayinlari kontrabandistlik yo'li bilan unga qurol va kuch yuborib turardilar. Shuning uchun ham ana shu yillari chegarachilarning ishi juda ko'payib, mas'uliyatlari oshgan edi. Ular doim uyquni tark etib, soqchilik qilar – chegarani qo'riqlardilar.

Shu jumladan, yetim Murod, Qurbon, Nikitin chegarachilikka yangi kelgan Navro'zlar ham Semyonovich (Senya) rahbarligida kechayu kunduz uxlamay, qamishzordan qamishzorga, botqoqlikdan botqoqlikka o'tib yurar, kontrabandistlarni ushlar, chegaraga yaqinlashgan bosmachi shaykalan bilan jang qilardilar.

Yuriy Senchikov esa goh rayonlarga chiqib bosmachilarga qarshi jang qilar, goh esa chegaraga qaytib yetim va Senyalarga yordamlashardi. Sotsialistik Vatanni mudofaa qilish uchun qacda kurash bo'lsa, u o'sha yerda tayyor edi.

Keyingi vaqtlarda Semyon Semyonovich otryadida bir qiz ham paydo bo'lib qoldi. Bu qiz endi o'n yettiga to'lgan bo'lsa ham g'ayrat, shijoat va jasoratda yigirma besh yashar yigitlardan qolishmasdi. To'ladan kelgan, o'rta bo'yli bu qizning ko'zlari katta-katta, yuzlari oppoq va lo'ppigina, sochlari qo'ng'iroq edi. Uning xumro rang qo'ng'iroq sochlari qop-qora qayrilma qoshlari ustiga tushib, ajib bir latofat kashf etgan ediki, har qanday kishini maftun etardi.

Shu sababdan ham otryadda u bilan gaplashib sho'xlik qilishni xohlamaydigan odam yo'q edi. Lekin u sho'xlikdan ham, o'yindan ham o'zini tortib yurar, negadir ruhida doim g'am izi sezilar ediki, biz bunday holatni sovet yoshlarining hech birida ko'rmagandik. O'rtoqlari hamma vaqt uni xursand qilishga urinardilar, undan g'amginlikni sal bo'lsa ham chetlatish maqsadida dam olish vaqtlarida turli xil o'yinlar tashkil etar, qiziq-qiziq hikoyalar aytardilar. Lekin u bularga hech e'tibor bermas, hushsiz odamlardek har qanday gapga ham beparvolarcha qarardi. Ammo chegarachilikka oid biron ish chiqib qolsa, hammadan oldin maydonga tushar va eng xavfli joylarda harakat etardi. Hatto ba'zan u bunday vaqtlarda komandirning buyrug'ini kutib ham o'tirmasdi. U komandirning ruxsatisiz ish tutgani uchun bir necha bor ogohlantirilgan, harbiy jazo olgai bo'lsa ham biron hodisa ro'y bergudek bo'lsa, ruxsat va buyruqni unutib, otilib olg'a tashlanardi.

Bu qiz 1932 yilning 15 aprelida o'qiyotgan maktabini tashlab, hech kimdan ruxsatsiz Toshkentdan chegaraga kelib, chegarachilik ishiga kirgandi. Uning maktabni tashlab ketish voqeasi quyidagicha bo'lgandi:

Toshkent ta'lim-tarbiya texnikumining o'qituvchilari kunduz soat o'n ikkida yigirma minutlik tanaffusga chiqdilar. Ular tezroq choy ichib olish maqsadida bufet tomon yugurishdi. Shu paytda maktab koridoriga pochtalon kirib kel-

di Uzoq joylardan kelgan va ota-onalarining maktubiga ko'z tutib yurgan bir guruh o'quvchilar bufet oldini bo'shatib, pochталonga qarab yugurdilar. O'quvchilar pochталonni xatlarning adreslarini o'qib, egalariga tarqatishiga ham sabr qilmay, uni o'rab oldilar va: «Menga xat bormi? Bugun ham menga xat olib kelmadingizmi? Ko'pdan beri uydан xat olmadim...» – deb boshini gangitib yubordilar.

Ular orasida faqat bir qizcha indamay turar, nima haqdadir o'ylayotgandek xomush ko'rinar edi.

Pochталon bir konvertga qarab turib:

– Natasha Senchikova kim? – dedi.

– Men, – deb qizcha pochталonga yaqinlashdi va unga qo'l cho'zdi. Qizchaning qo'llari qaltirardi. Bu qaltirash konvertga ko'z tashlaguncha davom etdi. Konvertning adresini o'qigandan so'ng a'zoyi badani titroqdan to'xtadi. lablari g'unchadek ochilib ketdi. U ko'ngli bir oz taskin topgach:

– Xayriyat, salomat ekan, o'zining xati, – deb bir chekka-ga borib, xatni o'qish uchun skameykaga o'tirdi.

Qonvertga ko'p burchakli pechat bosilgan, u markasiz – bepul kelibdi. Qizcha konvertdagi adresni yana bir marta o'qib chiqqach, bir chetini yirtib, xatni oldi. Xat bir parcha bloknot varag'iga qalam bilan shoshilinch va og'ir paytda yozilgan bo'lib, zo'rg'a o'qilardi. Bu holni ko'rgan qizcha yana xavotirlanib, maktubning oxiriga ko'z tashladi va o'ziga-o'zi: «O'zining imzosi», – dedi-da, xatni o'qishga kirishdi. Xat rus tilida yozilgan edi, biz uning mazmunini naql qilamiz;

«Azizim Natasha!

Men bilaman, sen bu xatni o'qigach, juda og'ir g'am-g'ussaga duchor bo'lasan. Lekin men, sen har qanday g'amni ham bolshevikchasiga yengib, chidamli bo'lasan, deb ishonaman.

Men bu xatni atrofimni bir to'lda bo'rilar – boxma bilan o'rab olgan bir sharoitda yozyapman. Bir necha minutlik vaqtim qoldi. Men o'z vzvodimni qutqazib qolish uchun jondan fido qildim. Chunki ular salomat qolsalar, umrlarining oxirigacha Vatanimiz mudofaasi va sotsialistik qurilish va tinchlik fidokorona xizmat qiladilar. Mening qurbon bo'lishim bilan Vatanimiz mudofaachilari va sotsializm quruvchilar bir kishidangina judo bo'ladilar, xolos. Yashasin Sotsialistik Vatanimiz! Yashasin bolsheviklar partiyasi! Yashasin Lenin partiyasining sodiq yordamchilari – Lenin komsomoli!

Azizim Natasha! Sendan yana o'tinib so'rayman, mabnatli, chidamli bo'! Bu xabarni onamga yetkazma, mening nomimdan soxta xatlar yozib, unga tasalli berib yur.

Salom bilan va vidolashib, seni jondan aziz ko'radigan akang Yuriy. Niyozbuloq. 8/1U-31».

Maktubni o'qigandan so'ng Natasha o'tirgan joyidan qimirlay olmay qoldi, a'zoyi badani harakat qilmas, ko'z o'ngi qorong'ilashgan, hech narsani ko'rmasdi. Lekin u hushini yo'qotmagandi, hushidan ketganda, skameykadan ag'ablanib tushgan bo'lardi. Ammo behushlarcha hech narsaga parvo qilmas, zalda nima yuz berayotganshsh payqamasdi.

Natasha o'ziga kelib, ko'zini ochsa, zalda hech kim qolmabdi, pochtaalon allaqachon ketib qolibdi. O'quvchilar sinflariga kirib ketib, bufetning oldi ham bo'shab qolgan, demak, dars davom etyapti.

U o'rnidan turib, maktubni yana bir marta ko'zdan kechirdi, vujudi larzaga kirdi. Lekin bu larza qo'rqqoqlik oqibati bo'lmay, g'azab va nafrat nishonasi edi. Qizning yig'idan yoshga to'lgan ko'k ko'zlarida jangga shaylangan sherning ko'zidagiday g'azab alangalanardi.

U aziz akasi Yuriyni ko'z oldiga keltirib, unga: «Sen joningni o'z o'rnida fido etibsan, ofarin senga, aziz akajon! Lekin sen maktubingning bir joyida... «Mening qurbon

bo'lishum bilan Vatanimiz mudofaachilari va sotsializm qu-
ranchilar bir kishidangina judo bo'ladilar», deb xato qilibsan.
Chunki, sening Vatan mudofaasi yo'lida halok bo'lishing
minglab minglab yigitlarni Vatan mudofaasi yo'lida sening
o'rnini to'ldiradiganlarning birinchisi men bo'laman», —
dedi.

Natasha ana shundan so'ng maktab direktoridan ruxsat
o'rab ham, maktabdoshlari bilan xayrlashib ham o'tirmay,
maktab hovlisidan chiqib, to'g'ri vokzalga bor-di. U onasi-
ga «Akam telefonda chaqirgani uchun tezda uning oldiga
jo'nab ketdim. Siz bilan ko'rishib, xayrlashishga ham vaqtim
bo'lmadi. Kechirasiz, oyijon, u yerga borgach, batafsil yoza-
man», deb bir parcha xat yozib yashikka tashladi-da, akasi
jangda halok bo'lgan chegaraga jo'nab ketdi.

IX

1931 yilning 9 aprelida Yuriy Senchikov bosmachilar-
ga qarshi kurashish uchun rayonga chiqqan edi. Senchikov
vzvodi komsomollardan iborat bo'lib, uning o'zi otliqlar pol-
ki komsomol tashkilotining sekretari edi.

Senchikov Niyozbuloq qishlog'i (Tojikistonning
Dang'ara rayoni)da bosmachilarning katta bir guruhi bilan
qo'qqisdan to'qnashib qoldi. Bosmachilarning soni chega-
rachilardan qariyb yigirma baravar ortiq edi. Senchikov biron
qulay joyga o'rnashib olib, bosmachilarga qarshi kurashish-
ga fursat topolmadi, shuning uchun ham u ochiq maydonda
jang qilishga majbur bo'ldi.

Dastavval chegarachilar miltiq va pulemyot vositasi bilan
jang qilgan bo'lsalar ham, bosmachilar qizil askarlarning oz-
ligidan foydalanib, ularga yaqin kelishib, aralashib ketdilar.
Qizg'in jang bo'ldi. Odatda bunday janglarda o'q o'rniga
miltiqning qo'ndog'i, sar-nayzasi va qilich ish beradi. Senc-
hikov oldingi safda turib, har bir hamlada bir bosmachining
boshini tana-sidan judo qilardi. U bosmachilar bilan yakka-

ma-yakka kurashishni davom ettirish bilan birga, jang maydonini qulay joyga surish va u yerda joylashib olib mardlik bilan kurashishni mo'ljallardi. Lekin soat sayin bosmachilarning yangi-yangi kuchlar qo'shilaverdi, vzvodning ahvoli tanglashib bordi.

Senchikov jangda bosmachilarni aldab, o'z vzvodini tepalikka chiqazib, o'rnatib olib, jangni davom ettirmoqchi edi. Ammo bunga erisha olmadi: bosmachilar yangi kelgan kuchlar vositasi bilan vzvodni halqaday o'rab oldilar. Vzvodni xalos etish umidi batamom yo'qoldi.

Vzvodni qutqarishni o'ylayotgan Senchikovning miyasiga bir fikr keldi va u vzvodga tepalikka chiqish haqida buyruq berdi. Lekin tepaga chiqish yo'li berk edi.

Buyruq bergandan so'ng Senchikov ot choptirib tepalik oldiga bordi. Ko'pchilik kuchini tepalikka chiqadigan yo'lni muhofaza qilishga safarbar etgan bosmachilar Senchikovning jasoratiga bardosh bera olmadilar: u bosmachilar safini yorib o'tib, o'zini bir chekkaga oldi. Senchikov orqasidan otliqlari ham chopib kelardilar, lekin u otliqlarini orqaga qaytarib yuborib, o'zi olg'a chopdi.

Bosmachilar Senchikovning qolganini ko'rib uning orqasidan quvib ketdilar. Bosmachilar yaqinlashib kelganda u otini to'xtatib, ularning yo'lini to'sar, bir hamla qilib, ikki-uch bosmachini qulatar, yana olg'a ketar edi. Bosmachilar orqaga qarab qochar, yana ko'plashib quvishga tushardilar. Bosmachilarning katta to'dasi Senchikovni quvib ketgach, dushman halqasi bo'shashdi, vzvod uni yorib o'tib, tepalikka o'rnatib oldi va komandirning buyrug'ini bajarishga kirishdi: bosmachilar miltiq va pulemyotdan o'qqa tutildi. To'planib hujumga o'tgan bosmachilar sochma miltiqdan otilgan qarg'alardek to'kildilar. Natijada, ular ko'p qurbon berib, qochishga majbur bo'ldilar. Vzvod jangchilari ularni quvib, yana bir necha kishini qulatdilar, yarador qildilar.

Vzvod bosmachilarni tor-moretib, tepalikka to'planganda, ular orasida komandir Senchikov yo'q edi. Kun botib, tun

... yuziga o'z pardasini yoygan edi... Qorong'i kechada butun vzvod murdalarni birma-bir ko'zdan kechirdi, lekin Senchikovdan nishon topilmadi. Vzvod jangchilari kechani shu tepalikda o'tkazib, erta tong bilan yana o'z komandirlarini o'zlariga qaytarishga kirishdilar. Ular jang maydonidan bir kilometr uzoqligi bir jarlikdan Senchikovning o'ligini topdilar: uning yonida ayrimlari to'pponcha bilan otilgan, ba'zisi qilich bilan chopilgan uch bosmachining jasadi yotardi. Bularni Senchikovning bir o'zi o'lim oldida o'ldirgan ekan. Jangchilar uning murdasini ko'tarib garnizonga yo'l oldilar. Kiyim-kechaklarini yig'ishtirish paytida yonidan bir maktub chiqdi.

Bu maktub Yuriyning singlisi Natasha Senchikovani aka-si o'rniga Vatan mudofaasi uchun otlantirgan o'sha maktub edi.

X

1931 yilning iyun oyi. Qorong'i tun. Musaffo osmonda yulduzlar chaqnar, ularning aksi esa ko'lning tiptiniq suvi- ni oydinlashtirib yuborgan edi. Daryo suvi mavjlanib oqar, uning to'lqinlari bir metr balandlikdagi uzun zinapoyalarni eslatardi. Amuning qizg'ish, bo'tana suvida yulduzlarning aksi ko'rinmasa-da, ularning aksi ana shu qizg'ish suv zina- poyalari yuzini sayqal berilgan oltindek yaraqlatardi.

Amu bilan ko'l o'rtasida katta qamishzor yastanib yotardi. Ko'm-ko'k qamishzorning xanjarsimon zumrad barglari ko'lning tiniq suvi va daryoning zinapoyalari o'rtasida ajoyib bir dilrabo manzara hosil qilgandi. yetim, Qurbon, Nikitin, Navro'z va Natashalar Semyon Semyonovich boshchiligida shu uchastkani qo'riqlardilar. yetim va Navro'z bir joyda, Qurbon va Nikitin boshqa joyda, Natashaning yakka o'zi boshqa joyda turib, ham daryo tomonni, ham dala va qamishzorni ko'zdan kechirib turardilar. Ular ko'rshapalaklarni ham, suvdagi baliqlarning suzishini ham, yer ostidagi qurtlarning g'ivirlashini ham, xullas, har yerni va har bir jondor-

«Sening bolshevikcha, komsomolcha ko'nglingga tasanno-ye!» – dedi Norbibish.

Yetim kulishdan to'xtab, jiddiy ohangda:

– Quloq sol, Norbibish! Men senga bergan va'damni esdan chiqarganim yo'q. Lekin men u vaqtda sen texnikumni tugatguningcha men ham ko'nglimga tugib qo'ygan bir qancha ishlarimni tugataman, so'ngra sinovdan o'tib, turmush quramiz, deb o'ylagan edim. Ammo, men hisobdan adashibman, hali maqsadimga erishganim yo'q. O'sha va'damning muddatini bir oz cho'zishni sendan o'tinib so'rayman! – dedi yetim va qo'llari Norbibishning qo'llarida turgan holda gapini to'xtatib, diqqat bilan daryo tomonga tikildi va davom etdi:

– Men va'damdan ham qaytmaganman, biron kishiga ko'ngil ham bermaganman, ko'ngil qo'ymoqchi emasman ham. Bu dunyoda mening ikki sevgilim bor: birinchisi sendan ham aziz bo'lgan Vatanimiz; ikkinchisi sening o'zing san, xolos. Endi xoh ishon, xoh ishonma, o'zing bilasan!

Yetim Murod bu gaplarni shunday sidqidildan aytdiki, unga Norbibishning ishonmasligi mumkin emas edi. Shuning uchun Norbibish ham:

– Ishonaman! Va'dang muhlatini cho'zishga sabab bo'lgan ishlaringni menga aytib ber, – dedi.

– Bo'pti, aytib beraman, – dedi yetim daryodan ko'zini uzmay. – Men otamning qotillarini, onamni badbaxtlikka giriftor qilganlarni, ma'naviy onam – Vatanimizning dushmanlarini qo'lga tushirmasdan hech qanday xursandlikni ixtiyor qilmayman, deb ahd qilganman. Shodligimning shodligi bo'lgan sen bilan birga yashash ham hozircha to'xtab turadi.

Norbibish nimadir demoqchi edi, lekin yetim daryoga yana bir marta diqqat bilan nazar tashlagach:

– To'xta! – deb uni gapirishdan to'xtatdi-da, qo'llarini bo'shatib, daryo labiga qarab emaklab ketdi va Norbibishga shivirladi:

– Sen shu yerda cho‘zilib yot!.. Kel, yaxshisi, mening orqamdan emaklab kelaver. Lekin ehtiyot bo‘l, yaqin atrofda biron kishi bo‘lsa ko‘rib qolmasin, – dedi.

Yetim Norbibish bilan gaplashayotganida daryoning narigi qirg‘og‘ida, qo‘shni mamlakat tomondan tikka turgan bir qorani ko‘rgandi. U qora bir oz tik turgach, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi, uning ketidan yana bir necha qora ko‘rinib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Bu qoralarni ko‘rgandan so‘ng ham yetim Norbibish bilan gapini davom ettirsa-da, ko‘zini u yoqdan uzmadi. Bir necha daqiqadan so‘ng yetim suvda goh ko‘rinib, goh ko‘rinmay shu tomonga kelayotgan qorani ko‘rib qoldi. Shuning uchun ham yetim Norbibish bilan suhbatini uzib, daryo tomon emaklab ketgandi.

Yetim Navro‘zning yoniga yetib borganda haligi qora ancha yaqinlashib qolgan, uning bir mahalliy kema ekanligi ko‘rinib turardi. Kema goh suv to‘lqini yuzasiga chiqar, goh to‘lqinlar orasida ko‘rinmay qolardi. Lekin uning suvni tezlik bilan dadil kesib, qirg‘oqqa – qamishzorga qarab kela berishi uni baquvvat va tajribali odam boshqarayotganidan dalolat berardi.

Yetim kelganda Navro‘z uyquga ketib qolgandi. U Navro‘zni koyib uyg‘otdi-da, kemani ko‘rsatdi va o‘zi emaklashni yana davom ettirdi.

Navro‘z kemani ko‘rgan bo‘lsa ham, chegarachilik qoidasini buzib, gugurt chaqib papirosini tutatdi va shu bilan uyqusini qochirmoqchi bo‘ldi. Bu nojo‘ya harakatni ko‘rgan yetim orqasiga qaytib kelib, papiros olovini shineli bilan to‘sib Navro‘zning og‘zidan uni tortib oldi-da, yerga ishqab o‘chirdi va unga qarab:

– Chegarachilik qoidalarini qachon o‘rganasan! – deb pichirladi-yu, yana daryo labiga qarab emakladi. Lekin kemachilar buni fahmladilar shekilli, qirg‘oqqa yaqinlashib qolgan kemalarini orqaga qaytarib, qo‘shni mamlakat tomon suza boshladilar.

Yetim ming afsus va nadomat bilan dilida Navro'zni koyib, yashin tezligida daryo labiga yetib bordi. Bu yerga – kema nishonga olib suzib kelayotgan joyga Senya, Nikitin va Natashalar ham yetib kelgan edilar. Ular shox-shabbalar va qamishlar ichida turib kemani kuzatgan ekanlar.

– Otib tashlaymiz-da, kemani cho'ktirib yuboramiz. Boshqa iloj yo'q, – dedi Nikitin.

– Tirik qo'lga tushirganimizda, ko'p narsani o'lja qilardik, sirdan voqif bo'lardik, – dedi Senya.

– Qo'lga kiritganimiz-ku, yaxshi edi-ya, – dedi Nikitin, – lekin qo'lga tushira olmaganimizdan so'ng, otib tashlaganimiz ma'qul.

– Qo'lga tushiramiz, – dedi yetim va qamish ichiga kimlarini yechib qo'yib, Senyaga qarab:

– Ruxsat eting! – dedi.

– Bor! Ehtiyotlik bilan qo'lga ol! – ruxsat berdi Senya.

Yetim yechinib, qamishzor va butalarni oralab, daryo labiga chiqdi, tovush chiqarmaslik uchun sekin suvga tushdi. Hech kim, hatto yaqinda turgan o'rtoqlari ham suvda odam borligini sezmadilar. yetim ellik-oltmish metrdan so'ng baliq singari suv yuziga bir chiqib, nafas olar, yana g'oyib bo'lardi...

Yetim Murod kemaga yetib bordi. Chegarachilardan qo'rqib qochgan kemachi eshkak eshishga ko'p kuch sarflagani uchun endi juda charchab qolgan, qo'llari shu darajada bo'shashib ketgan ediki, kemani boshqara olmay qolgandi. Natijada kema suvning oqishiga qarab ketardi.

Yetim Murod kemani arqon boylanadigan uchiga yetib borgach, bir qo'li bilan uning bir chetidan ushladi, ikkinchi qo'lini cho'zib halqasimon qilib to'plab qo'yilgan arqonni yechib olib, suvga tushirdi-da, suvga sho'ng'ib arqonning bir uchini beliga bog'ladi.

U suv ostidan suzib kemani qirg'oq tomon tortib borar, kemachilar sezib qolmasin uchun uni o'n metr tortsa, yigirma metr suv oqishiga qarab o'z ixtiyoriga qo'yib borar edi.

Lekin kemachi kemanding Sovetlar mamlakati tomon yaqinlashib borayotganini sezib qoldi. Buni u Amu suvining bebosh oqishidan deb bilib, zo'r berib eshkak eshib «suv oqimining beboshligiga» qarshi kurashishga intilar, hech bo'lmasa, kemani faqat suv oqimi tomon yo'naltirishga intilardi. Ammo uning bu harakatlari behuda ketar, kema tobora mamlakatimiz sohiliga yaqinlashardi.

Kema sohilga yaqinlashib qolganda kemachi uni birov sudrab olib ketayotganini sezib qoldi va birdaniga:

– Arqonni kesinglar! – dedi kemadagilarga va o'zi jon talvasasida eshkak esha boshladi.

– Nima bilan kesamiz? – deb so'radi ulardan biri.

– Kemada pichoq bor, topib o'sha bilan kesinglar?! – deb javob berdi kemachi.

Ular axtarib-axtarib pichoqni topdilar, lekin yo'g'on kanop arqonni zanglagan, o'tmas bo'lib qolgan pichoq bilan kesib bo'lmadi.

– Pichoq kesmayapti, – dedi zo'r berib arqonni kesishga urinayotgan kishi.

– Unday bo'lsa, arqonni yechib yuboringlar, – dedi kemachi. Lekin yo'g'on arqonning suvda ivib yanada qotib, mahkamlangan ko'r tugunini qo'rquvdan titrayotgan barmoqlar yecha olmasdi...

Kema sohilga tobora yaqinlashardi. Arqonning tezda yechilavermaganini ko'rgan kemachi kimnidir «iflos» deb qattiq koyidi va eshkaklarni kema ichiga irg'itib o'zi arqonga qarab yugurdi. Lekin uning qo'llari eshkak eshishdan juda charchab, uvushib qolgani sababli tugunni yecholmadi.

– Ifloslar, hammalaring ham nopokmidinglar, bunday badbaxtlikka uchradi, – deb kemachi hammani koyidi va miltiq olib. kema devoriga qo'ydi-da, arqon tortilayotgan tomonga qarab, kemani tortib ketuvchining suvdan bosh ko'tarishini kutib turdi.

Yetim nafas olish uchun boshini suvdan ko'targandi, uni nishonga olib otdi. Miltiq tovushi bilan yetim yana g'oyib

bo'ldi. Shu payt Sovetlar mamlakati sohilidan birin-ketin o'q uzilaverdi. Lekin chegarachilar kema dagilarni otmay, ularni qo'rqitib sarosimaga solmoqchi bo'lganlari uchun, o'qlar zoe ketardi.

Kemani tortib boruvchining boshiga zarar yetmadi shekilli, kema avvalgidек sohil tomon boraverdi.

– Gupsarlarga dam beringlar, ifloslar! – dedi kemachi sarosimaga tushib, o'zi kema ostiga yotib, arqonni nishonga olib yetimning bosh ko'tarishini kutib turdi.

Gupsar dam berilib taxt etilgach, kema dagilardan biri minib qochish uchun bir gupsarni suvga tushirdi. Lekin shu payt qarshidan kelgan o'q gupsarni ilma-teshik qildi, uning dami chiqib, puchqayib qoldi.

Bu holatni ko'rgan kemachi unga qarab:

– Iflos! Men gupsarni senga tayyorlaganmidim? O'zining minib qochishim uchun puflatib tayyorlagandim. Siz ifloslar baribir qo'lga tushasizlar, – dedi-da, kiyimlarini yechib, qip-yalang'och bo'lib, o'zini suvga tashladi. Lekin u suvga tushishi bilan uning bo'yni, qo'l-oyoqlari arqonga o'ralib, kuchli qo'llar bilan sohilga tortildi. Bu baquvvat qo'llar Qurbon bilan Nikitinlarning qo'llari edi.

Bu vaqtda kema ham sohilga yetay deb qolgan, qarshidan otilgan o'qlar uning tepasidan o'tib ketardi. Kemada qolgan uch kishi ham kiyimlarini yechib, suvga tashlanmoqchi bo'ldilar. Lekin:

– Qimirlamang! Bo'lmasa, hammangiz otilasiz! – degan ovoz ularni to'xtatdi. Bu Senyaning ovozi edi. Ana shu buyruqni ta'kidlash uchun bo'lsa kerak, sohildan uch miltiqning biryo'la bo'shatilgani eshitildi: o'qlar kema dagilarning tumshug'i tagidan vizillab o'tib ketdi, ularning har uchovi ham tirik murdalardek kemaga yiqildilar. Bu o'qlar Senyaning farmoni bilan Natasha, Navro'z va Norbibishlar tomonidan otilgan o'qlar edi.

Kema daryo qirg'og'ida loyga tegib to'xtab qoldi, undan nariga yurmadi. Senya, Natasha, Navro'z loyga botib-bo-

tib kema oldiga yetib keldilar. Ularning har birida bittadan to'pponcha bo'lib kemadagilarga qaratilgandi.

– Qo'llaringni ko'tarib, bu yoqqa chiqinglar, – deb farmon berdi Senya.

Lekin suvga tushib qochishni mo'ljallab, shir yalang'och bo'lib olganlari sababli ular qo'llarini ko'tara olmadilar: bir qo'llarini oldilariga, ikkinchisini orqalariga qilib, uyat joylarini yashirib turardilar.

Ular ana shu holda kemadan chiqishdi. Bu sharmandalikdan kulgisi qistagan Senya ularni qo'l ko'tarishga majbur etmadi.

– Qani, oldimga tushinglar, – deb oldiga solib haydab chiqdi.

Kemachi ham Nikitin nazorati ostida daryo labida bir qo'lini oldiga, ikkinchi qo'lini orqasiga qilgan holda turardi. Senya, Natasha va Navro'zlar kemadan tushganlarni ham uning oldiga keltirib qatorlab qo'ydilar.

Bir chekkada yetim o'tirardi. Norbibish bilan Qurbon uning boshini doka bilan bog'ladilar. Bu holni ko'rgan Senya:

– E... Senga nima bo'ldi? – deb yetimning oldiga bordi.

– Hech narsa, kemachining o'qi boshimning terisini sal shilib ketibdi. Shuni bog'latyapman, – dedi yetim.

– Bir emas, boshining bir necha joyiga o'q tegib, yarador qilibdi, lekin miyaga zarar yetmagani uchun unchalik xavfli emas, – dedi Qurbon.

– Yarador bo'lsa ham, zarari yo'q. Buning zararsizligini shundan ham bilish mumkinki, men suvdan chiqib, ko'zimga qon oqib tushgandan so'nggina yaralanganligimni sezdim. Bu ishga bel bog'laganimda yarador bo'lishni aslo o'ylamagandim.

– Ish mas'uliyatli bo'lgani uchun hatto yaralanganingni sezmagansan, sezgan bo'lsang ham e'tibor bermagansan, dedi yetimga Senya, – ofarin!

U yetimning yaralarini bog‘lab bo‘lgan Qurbonga:

– Natasha bilan birga kema-dagi mollarni quruqlikka olib chiqinglar. Norbibish bilan men yetimga qaraymiz, – dedi-da, yetimning nariroqda turgan kiyimlarini keltirib oldiga qo‘yib:

– Ho‘l trusingni yechib, quruq kiyimlaringni kiyib ol, – dedi va o‘zi chakalakzorga kirib ketdi.

Ust-bosh kiyishda Norbibish yetimga ko‘maklashdi. U kiyimlarini kiyib bo‘lguncha chakalakzor ichidan Senya harbiy sumkasini ko‘tarib chiqib keldi va uni yetimning oldida ochib, ichidan termossimon bir idish, bir stakan va bir shisha oldi.

Senya shishani ochib, stakanga ikki qoshiqcha konyak quydi, uning ustiga stakanga to‘ldirib issiq kofe quyib, yetimga uzatdi. yetim konyak aralash kofeni ichdi-yu, badani qizib, quvvat paydo bo‘ldi.

– Yana bir stakan quy, – dedi yetim Senyaga. Senya bir stakanga kofening o‘zini quyib berdi. Ikkinchi stakandan so‘ng yetim batamom jonlanib ketib:

– Asirlarni tekshirib, so‘roq qilish kerak! – dedi Senyaga.

– So‘roq qilamiz, – dedi Senya, – lekin so‘roq qilishdan oldin kemadan olingan narsalarni tekshirib ko‘rishimiz lozim.

* * *

Kemadan olib chiqilgan narsalar: ikkita og‘ir-og‘ir uzunchoq o‘rama, ikkita og‘ir yashik, og‘ir narsalar solib to‘ldirilgan to‘rtta charm xalta, bir quchoq eski paxta, dami qaytib o‘tmas bo‘lib qolgan bir pichoq, bir miltiq va o‘qi to‘la patrontash hamda kemada kelganlarnipg ust-boshlaridan iborat edi.

Senya avval uzun o‘ramlarni ochtirdi. Ularning ichidan ellikta beshotar miltiq, yashiklardan turli xil va turli markadagi to‘pponchalar chiqdi. Charm xaltalar esa miltiq va

to'pponcha o'qlari bilan to'ldirilgandi. Xaltalarning biridagi o'q ostidan bir xat ham chiqdi. Xatni Qurbon cho'ntak chirog'ining yorug'ida o'qib, Senyaga tarjima qilib berdi. U Ibrohimbek qo'rboshi nomiga yozilgan bo'lib, xatning boshida qurollarning ro'yxati keltirilgan va xat quyidagi mazmunda davom ettirilgan edi:

«Hozircha sizga mana shu qurollar yuborildi, yaqinda yana yuboramiz. Siz qattiqqo'l bo'ling, iloji boricha qizil askarlar va qizil partizanlarga ro'para kelmang. Yashash joyingizni tez-tez o'zgartib turing, ko'pincha tog' cho'qqilarida tunashga harakat eting. Qulay fursat topganingizda dehqonlarni talash va o'ldirishdan tortinmang, qishloqlarga o't qo'ying, umuman, shunday ish tutingki, toki xalq tirikchilikdan bezsin. Qolxoz va kolxozchilarga nisbatan hech qanday rahm-shafqat qilmang. Hozirgi vaqtda Sovet hukumatining qishloqdagi yagona tayanchi kolxoz va kolxozchilar ekanligini aslo unutmang...»

Xatning oxirida muhr va imzo o'rnida bir qancha shartli belgilar bo'lib, undan hech narsani tushunib bo'lmadi.

Kemadan olib chiqilgan narsalarni tekshirib bo'lgach, Senya telefonda asirlarni va buyumlarni olib ketish uchun zastavadan mashina so'radi, so'ng asirlarni so'roq qilishga kirishdi.

Senya asirlardan nomi va otasining nomini, qaeerlik va qanday ish bilan shug'ullanishlarini, bu tomonga nima maqsad bilan o'tganliklarini, yaroqlarni qaeerda va kim tomonidan tayyorlanganshsh, nihoyat, kimga olib borayotganliklarini birma-bir so'rab chiqdi.

Senya bergan har bir savolni Qurbon tarjima qilib turardi. Lekin asirlar biron savolga ham javob bermas, meditsina muzeyiga qo'yilgan skeletlar kabi harakatsiz qotib turardilar. So'roqlar turli formada bir necha bor takrorlansa-da, ulan

g'ing demay turaverdilar... Tong oqara boshladi, lekin ular-dan hech qanday javob olinmadi.

So'roqning natijasiz cho'zilib ketayotganidan zerikkan yetim Norbibishning man etishi va to'sqinligiga qaramay, so'roq qilishda qatnashish va asirlardan biron javob olish maqsadida o'rnidan turib, ularning oldiga bordi va asirlarni yorug'likda ko'rdi-da:

– Bo'ldi-bo'ldi, ish tamom! Sizlar so'roq qilib, ovora bo'lib o'tirmanglar, bular javob bermagan bo'lsa, ularniig nomidan men javob beraman, – dedi.

Hamma yetimga qarab hayron bo'lib jim turib qoldi. U asirlarning keksarog'ini ko'rsatib:

– Mana bu mening oldingi xo'jayinim, otamni o'ldirishga buyurgan va onamni azob-uqubatlarga giriftor qilgan Eshon-qulboy Mardon o'g'li, – dedi.

– Mana bu otamning kushandasi – Shoqul Subhon o'g'li, – dedi yetim o'rta yoshlardagi asirni ko'rsatib.

– Mana bunisi esa, xo'jayinim Eshonqulboyning o'g'li Istam, – deb ta'kidladi yetim, soqol-mo'ylovlari endi sabz urgan bolani ko'rsatib.

– Mana bunisi so'nggi xo'jayinim Uroz Avazmurodzoda. U butun umrini serpul qochoqlarga xizmat qilish bilan o'tkazgan, – dedi yetim kemachini ko'rsatib.

Har bir asirning tarjimai holini yetimdan eshitgan chegarachilar g'oyatda shodlanib: «Ura!» deb yuborishdi. Norbibish esa shodlikdan raqsga tushib ketdi va ohista yetimning oldiga kelib, uning qulog'iga:

– Va'dangning muhlati ham bitdi, – dedi pichirlab.

– Va'damga vafo qilaman, – dedi yetim Norbibishiing qo'llarini qisarkan...

Chegarachilar shodlikka g'arq bo'lib turganda daryo tomondan:

– Manovi qochoqni chetga chiqazish uchun yordam beringlar, – degan ovoz eshitildi. Hamma daryo tomonga qara-

di: suvda ichida odam o'tirgan bir gupsarning tizimchasidan ushlagan holda Natasha turardi. Senya yordamga yugurdi va ikkovlari gupsarchini suvdan chiqarib, bandilar qatoriga keltirib qo'shdilar.

Uning kiyimlari mahalliy xotinlarning ust-boshiga o'xshagan bo'lib, basharasini ro'mol bilan o'rab olgan. Faqat ikki ko'zigina ko'rinardi, xolos.

– Bu qochoq o'zini tanitmaslik uchun yaxshi niqob topibdi, – dedi yetim.

– Men qochoq emasman, men mana bu odamning (Es-honqulboyni ko'rsatib) qo'lidan qochib, bolsheviklar panohiga keldim, – dedi u.

Yetim bu ovozni eshitishi bilan:

– Onam, voy onajonginam! Seni ko'radigan kun ham bor ekan-ku, – deb yugurib uning bag'riga otildi...

Shu payt janubdan uchib kelayotgan samolyotning ovozi eshitildi. Hammaning diqqati unga tortildi. Samolyot ularning tepasiga pastlanib kelib bir dasta qog'oz tashlab ketdi. Senya qog'ozlardan birini olib, baland ovoz bilan o'qidi. Unda quyidagilar yozilgandi:

«Bobotog'dan qochib bekinib yotgan Ibrohimbek qo'r-boshini kecha Kofarnihon daryosi bo'yida qiziltayoqchilar qo'lga tushirdilar».

Chegarachilarning shodiyona chapaklari va «Ura!» sado-lari osmonga o'rladi. Hanuzgacha xafa yurgan Natasha ham mehribon akamning qotili ushlanibdi, deb behad quvonib ketdi, uning Nikitin bilan tushgan raqsi hammaning diqqatini o'ziga jalb qildi. yetim ham onasini ko'tarib o'yinga tushib ketdi. Norbibish o'rtaga tushishi bilan yetim onasini qo'yib, u bilan chir aylandi. Hamma ularga qarsak chalardi...

Asirlar va mollarni olib ketish uchun yuk avtomashinasi ham yetib keldi...

Ko'k bilan o'pishgan baland tog'lar orqasidan ko'tarilib kelayotgan quyosh o'zining zarrin nurlarini koinot uzra so-cha boshladi...

MUNDARIJA

Eski maktab.....	
Yetim. <i>Tojikchadan H. Homidov tarjimasi</i>	

Adabiy-badiiy nashr

SADRIDDIN AYNIIY

ESKI MAKTAB

*

YETIM

Qissalar

Muharrir	Oʻ. Xoldorova
Musahhih	S. Saydamirova
Sahifalovchi	O. Ismoilova

Nashriyot litsenziyasi AI № 193. 10.05.2011 y.
Bosishga ruxsat etildi 03.07.2019-y. Bichimi 84x108 1/32.
Bosma tabogʻi 12,0. Shartli bosma tabogʻi 10,08.
Adadi 1500 nusxa. Buyurtma № 23-19.

«Kamalak-PRESS» MChJda nashrga tayyorlandi
va matbaa boʻlimida chop etildi.
Toshkent shahri, Navoiy koʻchasi, 30-uy.

«Kamalak»

ISBN 978-9943-56-84-8-8



9 789943 568488